

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY VA O'RТА MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI

SHOOBİDOV SH.A.,
IRGASHEV A.

**TRAKTORLAR VA QISHLOQ
XO'JALIK MASHINALARI TEXNIK
SERVİSİ VA ULARNI TA'MIRLASH**

2- qism

(Ichki yonuv dvigatellari, traktorlar va qishloq
xo'jalik texnikasi elektr jihozlari va elektronikasiga
servis xizmatini ko'rsatish va ularni ta'mirlash)

O'quv qo'llanma

Toshkent 2010

Traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalari texnik servisi va ularni ta'mirlash, 2- qism: (Ichki yonuv dvigatellari, traktorlar va qishloq xo'jalik texnikasi elektr jihozlari va elektronikasiga servis xizmatini ko'rsatish va ularni ta'mirlash); o'quv qo'llanma. Shoobidov Sh.A., Irgashev A.-Toshkent, ToshDTU, 2010.

Ushbu o'quv qo'llanmada ichki yonuv dvigatellari, traktorlar va qishloq xo'jalik texnikasi elektr jihozlari va elektronikasiga servis xizmatini ko'rsatish va ta'mirlash jarayonlari bayon etilgan.

O'quv qo'llanma oliy ta'limning 5811000 – Servis texnikasi va texnologiyasi (traktorlar, qishloq xo'jalik mashinalari va jihozlari) bakalavriat ta'lim yo'naliishiда tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, undan "Mashinalardan foydalanish va ta'mirlash" fanini o'r ganadigan boshqa yo'naliish talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga muvosiq chop etildi.

Taqrizchilar: Toshkent avtomobil yo'llari instituti «Yo'l qurilish mashinalari» kafedrasining professori, t.f.d. **Asqarxodjayev T.I.**, Toshkent davlat texnika universiteti «Yer ust'i transport tizimlari (QX mashinalari va traktorlar) va servisi» kafedrasining dotsenti, t.f.n. **Yunusxodjayev S.T.**

KIRISH

Ushbu qo'llanmada traktorlar va mobil qishloq xo'jalik texnikasi ichki yonuv dvigatellari va elektr jihozlariga servis xizmatini ko'rsatish va ta'mirlash jarayonlari keltirilgan.

Traktor, kombayn va boshqa qishloq xo'jalik texnikalarining elementlarini bajaradigan funksiyasi va ularning qo'llanish maqsadlariga qarab elektr jihozlarini elektr bilan ta'mirlash tizimi (generator qurilmasi, akkumulyator batareyasi), yurgizib yuborish tizimi (starter va uning relesi), yoritish tizimi va yorug'lik signalizatsiyasi hamda nazorat-o'lchov asboblariga bo'linadi.

Ichki yonuv dvigatllari va elektr jihozlarining sozligi va puxtaligi ko'p jihatdan traktor aggregatining ish unumiga, bajariladigan ishning sifatiga va xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadi. Elektr jihozlarining istalgan elementlaridagi to'xtov butun traktor aggregatida to'xtov sodir bo'lismiga va iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. Shuning uchun ham traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalarining elektr jihozlariga o'z vaqtda texnik xizmat ko'rsatish mashinadan foydalanish davrida va resursli to'xtov sodir bo'lganda nosozliklarni bartarf etish va kapital ta'mirlash mashinalardan texnik foydalanihning ajralmas qismi hisoblanadi.


Ichki yonuv dvigatllari va elektr jihozlarining konstruksiysi mukammallashuvi ularning texnik servis ishlariiga qo'yilgan talablar oshishiga olib keladi. Elektr jihozlariga texnik servis xizmatini ko'rsatuvchi mutaxassislardan progressiv texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni servis korxonalariga keng miqyosda joriy etish masalalarni yechishni talab qiladi. Buning uchun texnik servis korxonalarini mukammal texnologik uskuna va qurulmalar bilan jihozlash muhim ahamiyatga ega.

Ichki yonuv dvigatllari va elektr jihozlari detallarining nosozliklari mexanik va elektrik xarakterga ega. Mexanik nosozliklarni «Traktorlar va qishloq xo'jalik texnikasi detallarini qayta tiklash metodlari» fanida o'rgamilgan texnologik usullar bilan ta'mirlanadi. Elektr jihozlarida uchraydigan o'ziga xos yoki tez-tez sodir bo'lib turadigan nosozliklar paydo bo'lisingning oldini oluvchi texnik xizmat ko'rsatish va ularning ish qobiliyatini tiklash bilan bog'liq bo'lgan ta'mirlash texnologiyasi ushbu o'quv qo'llanmada yoritib berilgan.

1- BOB. YONILG'I BILAN TA'MINLASH TIZIMINI TA'MIRLASH

1.1. Yonilg'i nasoslarini ta'mirlash

Nasos korpusida quyidagi nuqsonlar uchraydi (1.1-rasm): yuza A va reyka teshigining silindrik yuzasi B, turtkich o'qi ariqchalari D ning va turtkich teshiklari sirti E ning yeyilishi, bolt va shpilka rezbalarining yeyilishi yoki uzilishi, darz ketishlar, o'tqizish tekisliklarining pachoqlanishi.




1.1-rasm Yonilg'i nasosi korpusining yeyilishi: A-reyka teshigi tiskasi; B-reyka teshigining silindrik sirti; D-turtkichlar o'qining ariqchalari; E-phunjer turtkichini o'rnatish teshigi

Yuza A ning yeyilishi ortishi bilan reykaning o'z-o'zidan aylanib ketishi jadallahadi. Turtkich o'qining korpusdag'i yo'naltiruvchi ariqchalarining yeyilishi turtkichlarning qiyshayishiga va ularning yeyilish jadalligi oshishiga olib keladi. Ko'p hollarda rolik o'qining tishlashib qolishiga ham sabab bo'ladi.

Turtkichni o'rnatish teshigi yuzasining yeyilishi kulachokli valning o'qiga perpendikulyar tekisligining yeyilishidan katta bo'lganligi uchun, teshik oval shaklida bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, teshik turtkich birikmasidagi tirqishning ortib ketishiga

olib keladi va u turkichning taqillashiga sabab bo'ladi. Ayrim hollarda bu nuqson turkichning tishlashib qolishiga va kulachokli valning yoki rolik o'qining sinib ketishiga olib kelishi mumkin.

Nasos korpusini ta'mirlash. Yonilg'i nasosi reykasini o'rnatish teshigining yeyilishini korpusga vtulka o'rnatib, unda profilli teshik ochish yo'li bilan ta'mirlanadi. Plunjer turkichiqlari o'qlari uchlarining ariqchalari yeyilgan bo'lsa, ular kattalashtirilgan o'lehamdag'i proshivka bilan ishlov berib ta'mirlanadi. Korpusdagi darzlar epoksid, BE-2 yelimlari bilan yoki payvandlanib ta'mirlanadi.



1.2-rasm Yonilg'i nasoslari kulachokli valining yeyilishi: A-kulachok profilining yeyilish uchastkasi; B-valning salnikka yotadigan qismining yeyilishi


Kulachokli valning o'ziga xos nuqsonlariga quyidagilar kiradi: kulachok profilining yonilg'i uzatishdag'i yeyilishi (asosan 1 uchastkada 1.2-rasmiga qarang); o'z-o'zidan siquvchi salnikning bo'yinda yotish joyidagi halqa shaklidagi ariqchaning yeyilishi; sharqli podshipniklar ichki halqasining val bo'yinkariga o'tirish joylarining shikastlanishi; val uchidagi rezbaning shikastlanishi.

Kulachokli valni ta'mirlash. Val kulachoklarining yeyilishi silliqlash-kopirlash dastgohida silliqlab ta'mirlanadi.

Salmiklar yotadigan bo'yinlardagi, sharikli podshipnikning ichki halqalari o'tirish joylaridagi yeyilish izlari yo'qolgunga qadar silliqlanadi, undan so'ng uning sirtiga galvanik usulda metall qoplanadi va qaytadan normal o'lehamgacha silliqlanadi. Sharikli podshipniklar ichki halqalarining o'tirish joylari elektr uchquni yoki elektr yordamida qizdirib cho'zish usulida kattalashtiriladi.

Plunjer turtkichining asosiy nuqsonlari quyidagilardan iborat: rostlovechi bolt chetining yeyilishi; rolik va turtkich roligi vtulkasi orasidagi tirqishning kattalashishi; turtkich korpusi o'qidagi o'tqazishning bo'shashi; turtkich korpusi yo'naltiruvchi sirtining yeyilishi.

Turtkich detallarining yeyilishi natijasida taqillashlar paydo bo'ladi, detallarning o'tirishi buziladi, bu esa yonilg'i nasosining sozlanganlik darajasi o'zgarishiga olib keladi.



1.3-rasm. Nasos turtkichlari plunjeri boltining yeyilishi: 1-plunjер povodogining ta'siridan; 2-plunjер uchining ta'siridan; 3-plunjер prujinasining tarelkasi ta'siridan


Plunjер uchlarni bolt kallagiga tayanish joylarining hamda plunjер prujinasi tarelkasining yeyilishi turtkichni rostlovechi boltlarning asosiy nuqsonlari hisoblanadi (1.3-rasm). Boltning sezilarli darajada yeyilishi, nasos reykasi harakatlanishga qarshiligining ortishi natijasida rostagichning sezgirligi pasayishi mumkin.

Fashqi diametri bo'yicha rolik o'qining o'tirishi joylarining yeyilishi turtkich korpusining asosiy nuqsoni hisoblanadi.

Turkich detallari nuqsonlarini ta'mirlash: rostlash boltlarining yeyilganligi kallak tekisligini silliqlab bartaraf etiladi. Bolt sirti sianlangan qatlamining yeyilishi sormayt yoki po'lat sim bilan gaz alangasida payvandlanadi va unga zarur qattiqlik berish uchun toblanadi.


Agar turkich korpusi tashqi diametri bo'yicha yeyilgan bo'lsa, u ta'mirlanmaydi.

Rolik o'qining turkich korpusidagi o'tqazilishi bo'shashgan bo'lsa, teshik o'qqa mo'ljallab razvyortkalanadi va ta'mir o'lehami bo'yicha yasalgan o'q o'rnatiladi.



1.4-rasm. Plunjerning yeyilish joylari: 1-gilzaning kiritish teshigining qarshisi; 2-vimti zonaming qirrasi; 3-plunjер pazining toraygan qismi; 4-tayanch qirrasi

Plunjер va gilzalarning ishehi yuzalari yeyilishi natijasida ulardagи gidravlik zichligining yo'qolishi plunjер juftliklarining asosiy nosozliklari hisoblanadi. Plunjerdagi eng katta yeyilish, uning yuqorigi qismida, kiritish teshigi qarhisida sodir bo'ladi (1.4-rasmiga qarang). Plunjerning, asosan, uning yuqorigi qismi (kiritish teshigining qarhisida joylashgan qismi) yeyilishga uchraydi. Yeyilish natijasida kengligi 4 – 5 mm va uzunligi 9,5 mm bo'lgan tarmov shaklidagi chuqurcha hosil bo'ladi.



1.5-rasm. Plunjер justligining germetikligini tekshirish asbobining sxemasi: 1-plunjер; 2-vtulka; 3-zichlovchi qatlam; 4-ish suyuqligi; 5-plunjerni ushlab turuvchi fiksator; I-plunjер qirrasining yonilg'ini purkash paytiga mos keluvchi sinov holati; II-plunjер qirrasining yonilg'ini purkash paytini tugatish holatiga mos keluvchi sinov holati; h-plunjerning aktiv harakat yo'li; P-plunjerni sinash paytidagi bosim.

Gilzada kiritish teshigi zonası ko'proq yeyiladi. Oqibatda 4,5 mm li tarnovsimon polosa hosil bo'ladi. Bunda eng katta yeyilish teshik qirrasining yuqorigi qismiga to'g'ri keladi. Undan tashqari, gilzada quyidagi nuqsonlar ham uchrashi mumkin: gilza chetida korroziya izlari, o'yilishlar, ternalish; plunjер chetining ezilishi natijasida gilzaga tifilib qolishi; plunjер va vtulkaning yo'naltiruvechi yuzalarida korroziya yoki o'yilishlar sodir bo'lishi.

Plunjerga yonilg'i bilan birga kiruvchi abraziv zarracha-larning o'lehamlari tirkish o'lehamiga teng yoki undan bir oz kattaroq bo'lishi mumkin. Plunjер harakatlangunda o'tkir qirralari bilan metall qatlamin sindirib ariqcha hosil qiladi. Dastlab abraziv

zarracha kattaroq miqdordagi metallni sidiradi, harakatlanish davomida uning o'tkir qirralari o'tmaslashadi, abraziv zarrachalar maydalanadi va natijada kamroq metall sidiriladi. Shuning uchun ham plunjerning chetiga yaqinlashgan sari uning yuqori qismida yeyilish kamayib boradi. Kiritish teshigining yuqorigi qirrasida yeyilish eng katta qiymatga ega bo'ladi.

Plunjerning vintli qirrasi nisbatan kamroq yeyiladi. Abraziv zarrachalarning ishqalanish sirtiga ta'siri natijasida uning o'tkir qirralari dumaloqlanadi, ishechi yuzalarida bo'ylama tiralishlar hosil bo'ladi. Bunday yeyilishni tashqi nazorat bilan yuzaning xiralashganligidan aniqlash muunkin. Plunjер justliklarining mahalliy yeyilishi yonilg'ini so'rish paytida yonilg'i silindrlariga purkaliш paytining kechikishiga olib keladi. Undan tashqari, plunjер justligi yeyilganda nasosning ish unumi, ayniqsa, dvigateлni yurgizib yuborish paytida keskin pasayadi. Bunda yonilg'ining purkash bosimi keskin pasayib, dvigateлni yurgizib yuborish qiyinlashadi. Plunjerning vintli qirrasi va gilzaning o'tkazish teshigida mahalliy yeyilish sodir bo'lganda yonilg'ini uzatish davomiyligi qisqaradi. Gilzalarning chekka yuzalarining korrozion yeyilishi natijasida so'rish klapani va plunjер gilzasining birlashish zichligi buziladi va unda yonilg'i siza boshlaydi.

Plunjер justliklarining gidravlik zichligi 1.5-rasmda keltirilgan asbob yordamida sinaladi.

Plunjер justliklarini ta'mirlash juda murakkab jarayon hisoblanadi. Plunjер justliklarining zichligi texnik shartlarga mos kelmasa, qayta komplektlash, xromlash yoki nikellash, azotlash va boshqa usullar bilan ta'mirlanishi mumkin.

Qayta komplektlash usuli bilan ta'mirlash ishqalab-silliqlashdan, guruhlarga saralash va tanlashdan iborat. Gilzani dastgohning maxsus siquvchi moslamasiga qotirib, ishqalash moslamasi yoki plunjер dastgoh shpindeliga qotiriladi va sirtiga M10 pastasi suriladi, so'ng ishqalab silliqlanadi. Silliqlash rejimi quyidagicha: pasta bir marta surilganda ishqalab silliqlovchi moslamasining ish davomiyligi 60 s; detal yoki ishqalab silliqlovchi moslamaning aylanishlar chastotasi 250 ayl/min; detalning yoki ishqalab silliqlovchi moslamaning ikkilangan yo'llari soni bir minutda 100-150 marta, ishqalab silliqlovchi moslamaning gilzani


ishlov berish chegarasidan chiqishi 26 mm; ishqalab silliqlovchi moslamaning plunjerga ishlov berish chegarasidan chetga chiqishi 12 mm; moslamaga bo'lgan bosim 0,1 – 0,2 MPa. Yakuniy silliqlash ham avvalgi rejimda, mayinroq bo'lgan M3 pastasida olib boriladi. Gilzalarning chetini tekislash cho'yan plitalarda, dastlab M7, so'ng M3 pastasida olib boriladi.

Detallar ishqalab silliqlangandan so'ng ular 1 mkm oraliqdagi guruhlarga ajratiladi. Juftlik shunday tanlanishi kerakki, gilzaga plunjer uzunligining 2/3 qismi qo'l kuechi bilan kirsin. Undan so'ng plunjer dastgohning sangalik patroniga qotirilib, ishqalanadigan detallar juftligi sirtiga M1 pastasi surtilib, birikma hosil qiladigan detallar 1 - 2 minut davomida 100 – 150 ayl/min chastotada ishqalanadi. Bunda plunjer juftligini silliqlashda dizel yonilg'isidan ham foydalanish mumkin. Dizel yonilg'isi apparatining tekis detallarini silliqlashdagi plitadagi harakat trayektoriyasining o'lchamlari 160 x 80 chegarasida «sakkizsimon» shaklda bo'lib, 0,070 – 0,013 MPa nisbiy bosimda, 7 – 12 m/min kesish tezligida, abraziv zarrachalarining M5 - M7 o'lchamlarida olib boriladi, ishlov berish davomiyligi 2 – 4 minut. Juftlikning ta'mirlash sifati quyidagicha aniqlanadi: juftlik dizel yonilg'isida yaxshilab yuvilgandan so'ng, plunjer 18 – 20°C haroratda o'z og'irligi ta'sirida gilzaga butun uzunligi bilan kirishi lozim. Agar bu shart bajarilsa, juftlik gidravlik sinovdan o'tkaziladi. Gilzalarga to'g'ri kelmaydigan plunjeler xromlanadi, yoki nikellanadi yoki ikkala detal ham azotlanadi, so'ng silliqlanadi.

Klapan juftligining asosiy nuqsonlari yeyilish natijasida sodir bo'lgan nozichliklardan yonilg'ining sizishi hamda klapan va uya birikish joylaridagi tirkishning oshib ketishidan iborat. Klapan juftligida yeyilish sodir bo'ladigan xarakterli joylar 1.6-rasmida keltirilgan.

Klapan va uning o'rindig'ini siquvehi konusi sirti yonilg'i berilishi to'xtashi bilanoq zarb bilan o'tirishi natijasida yonilg'idagi abraziv zarrachalar ta'sirida yeyiladi. Klapan yopilganda abraziv zarrachalar tirkishga tushib uyaga o'tiradi va undan metall zarrachalarini sidirib tushadi. Yeyilish natijasida siqish konusida va uyada kengligi 0,4 – 0,5 mm, o'rtacha chuqurligi 0,05 mm bo'lgan halqasimon ariqcha paydo bo'ladi. Yuksizlantirish belbog'i va

korpusning silindrik teshigi orasidagi tirkishga tushib qolgan abraziv zarracha konussimon ternalishlar hosil qiladi, korpusda esa xira uchastka paydo bo'ladi.



1.6-rasm. Klapan juftligida yeyilish sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xarakterli joylar: a-teskari yo'nalish klapani; b-teskari yo'nalish klapamining o'rindig'i. 1-siqish konusi; 2-yuksizlantiruvchi belbog'; 3-quyruq yo'naltiruvchisi; 4-siqish faskasi; 5-yo'naltiruvchi teshik

Yeyilish natijasida yuksizlantiruvchi belbog' va uya teshigi orasidagi tirkish kattalashadi. Yo'naltiruvchi quyruq yeyilganda yonilg'i nasosining klapani qiyshaya bosblaydi, natijada yonilg'ini siqish qismining germetikligi buziladi, yuksizlantiruvchi belbog'ning

yeyilishi ortadi. Bunday nosozliklarning mayjudligi nasosning ish unumi pasayishiga olib keladi.


Klapan juftliklarini ta'mirlash. Ta'mirlangan va ta'mirlanishi lozim bo'lgan juftliklarning zichligi gidravlik sinash natijasida aniqlanadi. Sinov o'tkazishdan avval uya teshigida klapanning harakatlanishi tekshiriladi. U yarim uzunligiga surilib, o'z og'irligi ta'sirida vertikal o'qqa nisbatan istalgan burchakka burilganda ohista tushishi lozim. Dastlab juftlikning yuksizlantirish belbog'ining germetikligi tekshiriladi. Buning uchun o'rnatish vintining kallagi yordamida klapan 0,2 mm ga siljtiladi va tizimda 0,22 MPa bosim hosil qilinadi. Bosimning 0,2 MPa dan 0,1 MPa gacha pasayish vaqtি o'lehanadi, bu vaqt 1 s dan kattaroq bo'lishi lozim. So'ng klapan juftligining umumiy germetikligi tekshiriladi. Asbob tizimida 0,82 MPa bosim hosil qilinadi va bosimni 0,8 MPa dan 0,7 MPa gacha pasayish vaqtি o'lehanadi. Juftlikning texnik holatini tekshirish uchun yuksizlantiruvchi belbog'ning holatini hisobga olish lozim. Juftlikning bosim hosil qiluvchi konusi va uning o'rindig'i silliqlab ta'mirlanadi. Buning uchun yeyilgan klapan ishlov beruvchi babka sangasiga qotiriladi, ishqalash moslamasida, pasta bilan bosim hosil qiluvchi konus va yuksizlantiruvchi belbog'ning shakli tiklanadi. Klapan o'rindig'ining yo'naltiruvchi teshigi ham ishqalash moslamasida ta'mirlanadi. Klapanlar va klapan uyalari diametrlerining o'lchami silindrik yuzalarning diametrleri bo'yicha saralanadi va ular o'zaro ishqalab moslanadi. O'lchamlarining kichikligi tufayli, komplektlab bo'lmaydigan klapanlar elektrokimyoviy va kimyoqty usullarda kattalashтирiladi.

1.2. Forsunkalarni ta'mirlash

Ish davrida forsunka birikmalarining yuzalari, bosimni qabul qiluvchi prujinalarning tayanch o'ramlari va forsunka detallarida yeyilish sodir bo'ladi. Natijada purkash bosimi pasayadi, purkagich ignasining ko'tarilishi va forsunkaning o'tkazuvchanlik xususiyati ortadi, yonilg'ini silindrarga purkash burchagini ilgarilashishi kattalashadi, yonilg'i sarfi ko'payadi. Forsunkalarning detallari bir xil yeyilmasligi natijasida, alohida silindrarga yonilg'ini uzatish ravonligi buziladi.

Forsunka detallarining yeyilish tezligiga yonilg'i bilan birga kiruvchi suv, chang, ifloslik ta'sir ko'rsatadi. Yeyilish natijasida purkagichdan yonilg'i sizishi va kokslanib qolish hollari sodir bo'ladi. Konus shaklining buzilishi va forsunkaning yonilg'i o'tkazuvchanligi yomonlashadi. Shtifstli forsunkalarda mexanik zarrachalar yonilg'i bilan birgalikda katta tezlikda igna shtifti va soplo devori orasidagi tirkishdan o'tib, detaldan metall zarrachalarini qiradi. Natijada soplo va shtiftlarning o'lchamlari o'zgaradi. Shtift va purkagichning soplosi devori orasidagi halqasimon tirkish kattalashadi, bu esa yonilg'ining purkash sifatining pasayishiga sabab bo'ladi. Shtiftsiz forsunkalarda igna va purkagich chetining zinch tegib turmasligi, soplo teshigining shakli va o'lchamlarining o'zgarishiga olib keladi (1.7-rasm).

Bundan tashqari, igna yo'naltiruvchi qismining purkagich korpusi ham yeyiladi, natijada yonilg'i siza boshlaydi.



1.7-rasm. Shtiftsiz forsunkalarda igna va purkagich tagining yeyilishi: 1-purkagich tagi; 2-ignaning yo'naltiruvchi yuzalari; 3-igna cheti

Purkagich va forsunka korpuslarining birikish zinchligi

asosan, chekka yuzalarning korroziyasi yoki forsunkaning noto'g'ri o'yilishi natijasida sodir bo'ladi. Purkagichning deformatsiyalanishi, uning qizib ketishi, ignaning tishlashib qolishi, forsunkani qotirish gaykalarining notekis tortilishi oqibatida gazlar qistirma tagidan sizib chiqadi.


Forsunka purkagichlarining dizel yonilg'isi apparatidagi boshqa pretcision detallar kabi, ulardagi yeyilishlar ishqalab-silliqlab ta'mirlanadi. Bunda purkagichlar birikuvchi detallarning yeyilishi tekis va uncha katta qiymatga ega bo'lmagan sababli, ta'mirlash operatsiyalarini bajarish uchun baza saqlanib qolnadi, shuning uchun ham ular bir-birlaridan ajratilmagan holda ta'mirlanadi.

Yeyilgan yo'naltiruvchi qismiga ega bo'lgan ignalarni xromlab, ishqalab-silliqlab va birlashuvchi detallarni tamlab ta'mirlash mumkin. Detallarni uzil-kesil ishqalab-silliqlash pastasiz olib boriladi. Bunda moylash materiali sifatida toza dizel moyidan foydalilanadi. Shtiftli forsunka purkagichining yeyilgan shtifti ignasi, yangi purkagich va bosim hosil qiluvchi konuslar, shtift ignasining qolgan qismi hisobiga ta'mirlanadi. Bunday ishlov berish natijasida igna 1 mm ga kattalashadi. Shtift esa kattalashtirilgan ta'mir o'lchamida yasaladi.

Purkagichning bosimi hosil qiluvchi konusini ta'mirlashda, yangi purkagich tayyorlashda, yangi purkagich yashashda elektr uchqunida ishlov beruvechi dastgohdan foydalilanadi. Bunday ishlov berishda soploli teshik joylashgan qismda purkagich tagining qalinligi 1,4 mm dan kam bo'lmasi lozim. Elektr uchqunli dastgohda soploli teshik joylashgan qismning shakli va diametri ta'mir o'lchamigacha kattalashtiriladi.

Igni va korpus ta'mirlangandan so'ng siquvchi konus maxsus dastgohda o'zaro ishqalab-silliqlanadi (1.8-rasm).

Purkagich va igna korpusining ishechi qirralari ishqalash plitasida ishqalab-silliqlanadi. Ignani purkagich korpusida silliqlash paytida, uni asta-sekin burib turish kerak. Purkagich korpusi chetining sferik sirti forsunka korpusining qirrasi bilan birga silliqlanadi. Ishqalab-silliqlash sifati yangi purkagichning ishlashi bilan solishtirib aniqlanadi. Igni va purkagich korpusi tishlashib qolgan bo'lsa, ular birgalikda ishqalanadi. Bunda mikron o'lchamli pastadan foydalilanadi.



18-rasm Ishqalab silliqlash dastgohi sxemasi

Igna ishqalanib va dizel yonilg'isida yuvilgandan so'ng purkagichda o'z og'irligi bilan harakatlanishi lozim.

Shtifli forsunka korpusining cheti plitada, purkagich korpusining cheti kabi, halqasimon yeyilish izi yo'qolguncha ishqalanadi.

Yo'nigan forsunkalarni germetiklikka sinash, purkash sifati va burchagi, purkash bosimi va o'tkazuvechanlik qobiliyat-ini aniqlash maxsus stendlarda, forsunkalarni sinash va rostlash asboblarida amalga oshiriladi.


Ia'mirkangan va to'g'ri yig'ilgan forsunkada: yonilg'i purkagich orqali yonilg'i purkalganda purkash tekis, ko'zga tashlanmaydigan, alohida tomechilar va oqimlarsiz amalga oshirilishi; yonilg'i purkash burchagi to'g'ri konus shaklida bo'lishi; purkashning to'xtatilishi aniq bo'lishi; purkash bosimi me'yor darajasida bo'lishi; zarur germetiklikni, belgilangan

o'tkazuvchanlikni ta'minlashi lozim. Bularning barchasi forsunkaning yaxshi ta'mirlanganligini va to'g'ri yig'ilganligini ko'rsatadi.

1.3. Karbyurator va benzin nasoslarini ta'mirlash

Karbyuratorlarda uchraydigan nosozliklar quyidagilardan iborat: ignasimon klapan va uning uyasining yeyilishi, qalqovichning shikastlanishi, jiklyorlar kesimining kattalashishi. Bunday nosozliklar tashqi nazorat yoki maxsus asboblar yordamida aniqlanadi.

Yeyilgan ignasimon klapan va uning uysi GOI pastasini surtib, qo'lda ishqalash yo'li bilan ta'mirlanadi. Qalqovichdag'i pachoqlanishlar unga kavsharlangan chiviq yordamida bartaraf etiladi. Tekislangandan so'ng chiviq kavsharlangan joydan chiqarib olinadi.



1.9-rasm. Karbyurator-qalqovuchli yonilg'i kamerasidagi sathni tekshirish sxemasi: 1-karbyuratori qotirish kronshteyni; 2-stoyka; 3-bakchan ni qotirish kronshteyni; 4-bakcha; 5-karbyurator; 6-nazorat trubkasi (naychasi)

Jez qalqovichdag'i darz va teshiklarni aniqlash uchun u issiq suvga botirib olinadi. Qalqovich ichiga kirib qolgan yonilg'i qaynayotgan suvga tushib uni bug'latib yuboradi. Aniqlangan shikastlanishlar yumshoq kavshar yordamida kavsharlab qo'yiladi.

Ta'mirlangan qalqovichning massasi texnik shartlarda ko'rsatilgan massaga mos kelishi lozim.

Jiklyorlarning smola qoplangan teshiklari mis tozalagichlar bilan tozalanib, atsetonda yuviladi. Ta'mirlangan jiklyorlarning o'tkazuvchanligi, diffuzor plastinkalarining elastikligi tekshiriladi. Agar ular texnik talablarga javob bermasa, almashtiriladi.

Yonilg'ining qalqovichli kameradagi sathi 1.9-rasmda ko'rsatilgan sxema bo'yicha tekshiriladi.

Benzin nasoslari prujinasining holati va elastikligi, diafragma va klaparlarning ahvoli tekshiriladi. Benzin nasosi yig'ilgandan so'ng esa maxsus stendda uning maksimal bosimi va ish unumi o'lehanadi.

1.4. Yonilg'i bilan ta'minlash tizimi uzellari va asboblarini ta'mirlash

Alovida detallarning yeyilishi, uzellar rostlanishining buzilishi, dvigatel ishining yomonlashuviga yoki uning ishdan chiqishiga olib keladi.

Yonilg'i bilan ta'minlash tizimi detallarining asosiy yeyilish turi abraziv yeyilish hisoblanadi. Yonilg'i bilan ta'minlash tizimining ko'pchilik detallari yuqori aniqlikda yasaladi, shuning uchun ham tizinga abraziv zarrachalarining va suvning kirmasligiga katta ahamiyat berish lozim.

Havo tozalagichni ta'mirlash. Dvigatelning havo tozalagichini ishlatish davrida uning chang yiqqichida, filtrlovchi elementlarida va poddonida chang to'planib qoladi. Oqibatda havo tozalagich birikmalarining germetikligining yo'qolishi, teshilishi, ezilishi va boshqa shikastlanishlar sodir bo'lishi mumkin. Havo tozalagichning ifloslanishi kiritish taktidagi qarshilikning ortib ketishiga sabab bo'ladi, natijada silindrлarning to'ldirish koefitsienti yomonlashadi, dvigatelning quvvati va uning tejamkorligi pasayadi.

Havo tozalagichning germetikligi buzilishi silindrлarga tozalanmagan havoning kirishiga va dvigatel detallarining yeyilishi tezlashishiga sabab bo'ladi.

Havo tozalagichdagi teshilishlar, ezilishlar va boshqa shunga oxshash nosozliklarni tashqi nazorat bilan aniqlash mumkin. Detallarning ezilgan joylari to'g'rilanadi. Korpus trubalari, kallak va

poddonning shikastlangan joylari gaz payvandlash bilan yoki epoksid smolasi asosidagi yelimlar bilan yelimlab ta'mirlanadi.

Havo tozalagich korpusi ta'mirlangandan so'ng uning kallagi, trubasi va poddoni germetiklikka 0,05 – 0,1 MPa bosim ostida, suvli vannada 1 minut davomida sinaladi. Undan so'ng korpusning ichki yuzasi nitrobo'yoq bilan, havo tozalagichning sirti esa kapot rangida bo'yaladi.

Havo tozalagichning barcha birikmalarida shunday germetiklikni ta'minlashi kerakki, tirsakli valning past aylanishlar chastotasida ishloveli dvigatel kiritish trubasi berkitilganda o'chib qolsin.

Yonilg'i baklarini ta'mirlash. Yonilg'i baklariga xos bo'lgan nuqsonlar: darz ketish, teshilish, tijimning bo'yinga o'tirish zichligining buzilishi va bak filtri to'rinining buzilishi.

Ko'pchilik shikastlanishlar tashqi nazorat va yonilg'i bakining germetikligini tekshirish natijasida aniqlanadi. Germetiklikni tekshirish uchun bak 0,1 MPa bosimgacha havo bilan to'ldiriladi. Bakning tekshiriladigan qismlari sovunli suvg'a tushiriladi. Bak tijinining korpusiga zich o'tirishi kerosin bilan tekshiriladi.

Bakni ta'mirlashdan avval, u 80 – 90°C gacha isitilgan kaustik yoki kalsiyli sodaning 10% li eritmasi va undan so'ng esa toza suv bilan yuviladi. Yuvigandan so'ng payvandlash yoki kavsharlash olib borilayotganda yonilg'i bug'lari portlashining oldini olish uchun bak yaxshilab shamollatiladi.

Xuddi shu maqsadda bakni suv bilan ham to'lg'izish mumkin, bunda bakning payvandlamadigan yoki kavsharlanadigan qismi suv bilan to'ldirilmaydi.

Ezilgan baklarni ilgak yordamida to'g'rilash mumkin, u botiq uchastkasiga payvandlanib, richaglar yordamida bakning ezilgan joyi bartaraf etiladi, so'ng payvandlangan ilgak olib tashlanadi.

Darzlar va kichik teshiklar qattiq yoki yumshoq kavshar bilan kavsharlanadi. Teshiklar kattalashib ketsa, ular po'lat listlardan tayyorlangan yamoqlarni kavsharlab qo'yish yo'lli bilan bartaraf etiladi.

Choklardagi darzlar gaz bilan payvandlab ta'mirlanadi. Baklarni ta'mirlashda polimer materiallardan foydalanish ham mumkin.

Yonilg'i baki ta'mirlangandan so'ng uning germetikligi tekshiriladi. Buning uchun u dastlab dizel yonilg'isida yoki benzinda yuviladi. Bakning barcha kavsharlangan va payvandlangan joylari yaxshilab tozalanganidan so'ng nitrobo'yoq bilan bo'yaladi.

Bak filtri to'rining ko'pi bilan 10% qismi yirtilgan bo'lsa, uni payvandlab ta'mirlash mumkin.

Past bosimli yonilg'i trubalarini ta'mirlash. Ularning asosiy nuqsonlariga egilish, ko'ndalang kesimi bo'yicha darzlar va shtutserlarga tegib turadigan uchlaring shikastlanishi kiradi.

Yonilg'i trubalaridagi darzlar, singan va uzilgan joylar yumshoq yoki qattiq kavsharlar bilan kavsharlanib bartaraf etiladi. Agar ular sezilarli darajada shikastlangan bo'lsa, bunday joylar kesib tashlanib, uchlarga musta ulanadi. Detallarni puxtarot ulash maqsadida kavsharlash qattiq kavsharda olib borilgani ma'qul.

Trubkalarning yeyilgan uchlari kesilib, ular qizdiriladi va maxsus moslamada ulashga moslab egiladi. Yonilg'i trubalari ta'mirlangandan so'ng yaxshilab yuviladi va siqilgan havo bilan quritiladi. Yonilg'i trubalari ta'mirlangandan so'ng germetikligi 0,5 MPa havo bosimida tekshiriladi.

Yuqori bosimli yonilg'i trubalarini ta'mirlash. Ularga xos bo'lgan nuqsonlar quyidagilar: zichlovchi konusning ezilishi, trubka uchlari ichki diametrining kichiklashuvi, ruxsat etilgan egilish radiusidan kichik radiusga egilishi, trubka uchlарини ta'mirlashda ularning qisqarishi, trubkalar sirtining mahalliy yeyilishi va ezilishi, gaykalarning shikastlanishi.

Nuqsonlar dvigatelning yonilg'i bilan ta'minlash tizimini normal ishlashini buzadi, natijada uning quvvati pasayadi, yonilg'i sarfi ortadi.

Trubalardagi nosozliklarning asosiy qismi tashqi nazorat paytida aniqlanadi. Trubka uchlаринин diametri kichiklashuvi 1,7 mm diametrlı kalibrangan sim bilan, 20 – 25 mm lik qismi tekshirilayotgan trubka kirdizib tekshiriladi. Trubkalar ichki diametrining kichiklashuvi yonilg'inинг trubkadagi gidravlik qarshiligi oshishiga olib keladi.

Gaz payvandlash bilan ta'mirlangan yoki yangi tayyorlangan yonilg'i trubkalari 50 MPa bosim ostida mustahkamlikka sinaladi.

Yangi zichlovchi konusni hosil qilish yoki konusli uchliklar yasash uchun maxsus moslamalardan foydalaniлади. Ulardan va richag vintli yoki gidravlik pressdan foydalaniб та'mirlanayotgan trubka uchlarini cho'ktirish mumkin.

Ta'mirlangan yuqori bosimli yonilg'i trubalar komplekting gidravlik qarshiligini aniqlash talab etiladi. Buning uchun ular navbatma-navbat ishlayotgan yonilg'i nasosining faqat bir bo'linmasiga ulanadi.

Shovqinni pasaytirish moslamasini ta'mirlash. Bu moslamada ko'pincha ulangan joyi kuyadi. Bu nosozlik payvandlab yoki kuygan joyi olib tashlanib, o'rниga boshqa yupqa material qo'yib ta'mirlanishi mumkin.

Yonilg'i filtrlarini ta'mirlash. Yonilg'i filtrlariga xos bo'lган nosozliklar quyidagilardan iborat: qotirish qulоqlarining sinishi, filtrlovchi elementlardagi darzlar, rezbalarning yeyilishi va uzilishi, dag'al tozalash filtridagi filtrlovchi elementlarning shikastланishi, korpusining plita va boshqa detallar bilan bo'lган birikmalarida pachoqlangan va tirmalangan yuzalarning mavjudligi. Mayin tozalash filtrining ifloslanishi, filtrlar germetikligining bузilishi. Bu nosozliklarning ko'philigi tashqi nazorat bilan aniqlanadi.

Filtrning korpusi, qopqog'idagi singan joylar va darzlar gaz yoki elektr yoy yordamida mis-po'lat elektrodlar bilan, detallarni qizitmasdan, payvandlab bartaraf etiladi, so'ng payvandlangan yuzalar yaxshilab tozalanadi. Darzlarni epoksid smolasi asosidagi yelim bilan ham ta'mirlash mumkin.

Korpus plitasi va qopqog'idagi pachoqlangan, tirmalangan yuzalar silliqlab va shaberlab bartaraf etiladi. Ta'mirlashga tushgan dag'al tozalash filtrlarining elementlari kerosin yoki dizel yonilg'isida yuviladi.

Ifloslangan mayin tozalash filtrining filtrlovchi elementlari yangisiga almashtiriladi. Yig'ilgan yonilg'i filtri maxsus stendda sinaladi. Dag'al tozalash filtri germetiklikka sinaladi, mayin tozalash filtri esa germetiklikka va filtrlovchi elementlari gidravlik

qarshiligidagi sinaladi. Mayin tozalash filtrining gidravlik qarshiligi, texnik soz bo'lgan nasosda, yonilg'ini filtr orqali tozalash va filtsiz o'tish unumi bo'yicha tekshiriladi. Haydovchi nasos ish unumining gidravlik qarshilik hisobiga pasayishi nominal tezlik rejimida 40% dan ortiq bo'lmasligi lozim.

Yonilg'i haydovchi nasosni ta'mirlash. Porshenli yonilg'i haydovchi nasosda ish unumi va bosim pasayishining asosiy sabablari quyidagilar: porshen va nasos korpusi teshigi, turkich sterjeni va korpus orasidagi tirkishning oshib ketishi; so'rish va chiqarish klapanlari va ularning uyalari germetikligining buzilishi; porshen prujinalari elastikligining buzilishi. Ulardan tashqari, porshenli yonilg'i haydovchi nasosda quyidagi nuqsonlar ham uchraydi: turkich uzeli detallarining yeyilishi, korpus va porshenning yeyilishi, rezbalı birikmalarning yeyilishi, sharikli klapan, nasos va silindr porshenining, yonilg'i ni qo'lda haydash nasosining, porshen, klapanlar va turkichlar prujinasining o'tirish elastikligi buzilishi.

Porshenli nasos detallarini ta'mirlash. Yonilg'i ni haydovchi nasos korpusidagi turkich sterjen teshigi yeyilgan bo'lsa, u ta'mir o'lehamigacha raxvyortkalanadi. Ushbu teshikka ta'mir o'lehamidagi turkich sterjen o'rnatiladi. Cho'yan korpusuning porshen o'rnatiladigan teshigi yeyilgan bo'lsa, u ta'mir o'lehamigacha yo'niladi. Korpusdagi klapan uyalari sirtlarining yeyilishi maxsus freza bilan yeyilish izlari yo'qolgunga qadar ishlov berish yo'li bilan bartaraf etiladi. Klapanlar chekka yuzalarining yeyilish izlari cho'yan plitada yoki mayda donali jilvir qog'ozda ishqalab ta'mirlanadi.

Porshen tashqi yuzasining yeyilishi uning asosiy nuqsoni bo'lib hisoblanadi. U ta'mir o'lehamigacha xromlab ta'mirlanadi. Xromlashdan avval porshen yeyilish izlari yo'qolgunga qadar silliqlanadi. Po'lat 45 dan ta'mir o'lehamidagi yangi porshen tayyorlash mumkin, porshen yasalgandan so'ng uni toplash va silliqlash lozim. Xromlangan yoki yasalgan porshen va korpusdagi teshik normal tirkish hosil qilgunga qadar ishbqalanadi.

Yonilg'i ni qo'lda haydash nasosining asosiy nuqsonlariga: silindrning porshen bilan birikish yuzasi, porshen zinchlovchisi va sharikli klapan o'rindig'inining yeyilishi kiradi.

Yonilg'ini qo'lda haydash nasosining detallarini ta'mirlash. Silindr ichki yuzasining yeyilishi uncha katta bo'lmasa, uning konussimonligi va ovalligi yo'qolgunga qadar ishqalab silliqlanadi. Porshennenning yeyilgan zichlovechi halqasi almashtiriladi. Yonilg'ini qo'lda haydash nasosining ta'mirlash sifati dastlab porshenni silindrning butun uzunligi bo'yicha obista harakatlanishi tekshiriladi. Nasos yig'ilgandan so'ng, u undan 2 m pastga o'rnatilgan dag'al tozalash filtri orqali bakdan yonilg'ini so'ra olishi lozim. Sharikli klapan o'rindig'ining yeyilishi $0,2 - 0,3$ MPa havo bosimda klapanning zich yotishini tekshirish yo'li bilan aniqlanadi. Agar klapanning zichligi ta'minlanmasa, uning o'rindig'i chekankalanadi.

Shesternyali yonilg'ini haydash nasosning bosimi va ish unumini pasayishining asosiy sabablari: shesternya cheti va korpus plitasi o'rtasidagi tirqish kattalashganligi; shesternya tishlari qirrasi va korpus devori orasidagi tirqish kattalashganligi; reduksion klapan yeyilgan va prujina elastikligini yo'qotganligi. Ulardan tashqari: vtulka o'rindig'ining va yetaklanuvchi shesternya o'qining yeyilishi, rezbal'i birikmalarning yeyilishi, darzlar, bronza vtulkalarining yeyilishi, detallarning tutashish yuzalarining pachqolanishi va ternalishi, nasos valigi va salnik korpusining yeyilishi.

Shesternyali nasos detallari shesternyali moy nasoslari detallari kabi ta'mirlanadi.

Yonilg'ini haydash nasosi yig'ilgandan so'ng, u xo'rda lanadi va maxsus stendda sinaladi. Sinashda nasosning ish unumi yuritma valigining nominal aylanishlar chastotasida aniqlanadi. Sinash paytida eng katta bosimda, bir minutda besh tomchi yonilg'i sizishiga ruxsat etiladi.


1.5.Aylanishlar chastotasi rostagichini ta'mirlash

Rostlagich detallarining yeyilishi natijasida uning ishlash xususiyati buziladi, sezgirligi, o'z paytida ta'sir etishi yomonlashadi, yonilg'i nasosi reykasining yo'li oshib ketadi. Bunday nosozliklar dvigatelning ishlash barqarorligi buzilishiga olib keladi. Rostlagich normal ishlashi uchun ta'mirlash ishlari bajarilganda prujinani, yuqchalarni to'g'ri tanlash va qotirish; rostagich mexanizmi

birikmalaridagi tirqishning oshib ketishini, tishlashib qolishini va qiyshayishini bartaraf etish lozim. Rostlagich prujinasining asosiy nuqsoni uning elastiklik xususiyatini yo'qotishidir. Agar uning elastikligi texnik shart talablariga javob bermasa, uni almashtirish lozim.

O'q-vtulka birikmasi yeyilganda po'lat 45 dan ta'mir o'lehami bo'yicha yangi o'q yasaladi, toblanadi va bo'shatiladi. Vtulka esa razvyortkalanadi. Bir paytning o'zida yukchalaraga presslangan ikki vtulkani razvyortkalash talab etiladi. Yukchalarining yeyilgan ishchi yuzalari sormayt qotishmasi yoki ENX elektrodida suyuqlantirib qoplash usulida ta'mirlanadi. Yukchalar suyuqlantirib qoplangandan so'ng andaza bo'yicha va ularning massasi vtulkalar massasi bilan birlilikda texnik shartlarda ko'rsatilgan qiymatlarga tenglashtiriladi. Yukchalarining yeyilgan o'qlari va suxarigi yangisiga almashtiriladi.

Krestovinalarda odatda yukchalar o'qini o'rnatish joylari, rostlash valigi va podshipniklari yeyilishga uchraydi (1.10-rasm). Yukchalar o'qining teshigi yeyilgan bo'lsa, ta'mir o'lehamigacha razvyortkalanadi. Bunda krestovina-podshipnik birikmasida zarur bo'lgan o'tqizishni ta'minlash lozim.



1.10-rasm. Yukchalar va rostlagich valigi krestovinasining yeyilishi. 1-o'q teshigi; 2-valik vtulkasining yuzasi; 3-orqa sharikli podshipnik bo'yni; 4-rezba; 5-old sharikli podshipnik bo'yni.

Rostlagich valigining vtulka o'rnatish joyi silliq-lanadi, xromlanadi, so'ng qayta silliqlanadi. Bunda podshipnik o'rnatiladigan bo'yin ham xromlanadi. Xromlash o'miga temirlashni qo'llash ham mumkin. Yeyilgan teshiklarning o'tirish joylarini ta'mirlashda ular teshiladi va razvyortkalanadi hamda ularga ta'mir o'lehami bo'yicha kattalashtirilgan o'lehamdagi barmoq va o'qlar tayyorlanadi.

1.6. Turbokompressorni ta'mirlash

Dizellarning quvvatini oshirish maqsadida quyidagi turbokompressorlar o'rnatilgan: SMD-18N dizellarida TKR-85N-1, SMD-60 va SMD-86 dizellarida TKR-11N-1 (1.11-rasm), SMD-66 dizellarida TKR-11S-1 markali turbokompressorlar o'rnatiladi.

Dizel to'liq yuklamada ishlaganda va tirsakli valning normal aylanish chastotasida kiritish truboprovodida o'lchangan havo nadduvining bosimi 4,5-6,5 MPa chegarasida bo'lishi kerak.


Kiritish truboprovodlari bo'yicha havo nadduvi bosimining pasayishi, dizel to'xtagandan so'ng kompressor rotorining aylanishida yaxshi eshitiladigan haddan tashqari shovqinning mayjudligi turbokompressorning nosozligini ko'rsatadi.

Soz turbokompressorda dizel tirsakli vali maksimal aylanish chastotasiga yetgandan va yonilg'ini berish to'xtatilgandan so'ng rotoring aylanishi davom etishi 20 s dan past bo'lmasligi lozim, rotor «выбес» ining pastligi turbokompressor qismlariga qurum va mumsimon moddalarning yopishib qolganligidan, podshipniklarning chegaraviy yeyilganligidan yoki rotorni qo'zg'almas detallarga tegib aylanishidan darak beradi. Oxirgi holatda uning aylanishida xarakterli shovqin eshitiladi.

Kompressoring podshipniklari korpusi bilan tutashish joyida moy dog'lari yoki qurumi paydo bo'lishi ziehlovchi halqalarning ishdan chiqqanligini ko'rsatadi.

Moylash tizimidagi bosimning 15 MPa gacha pasayishi podshipniklarning yeyilganligi yoki filtrning illoslanganligidan darak beradi.

Yuqoridagi nosozliklar sodir bo'lganda turbokompressor dizeldan yechib olinadi. Rotoring aylanish ravonligi uni turli tomonga aylantirib tekshiriladi va o'q bo'yicha tirqish tanlanadi.



1.11-rasm. Turbokompressor: 1- rotor vali; 2- kompressor g'ildiragi; 3- kompressor korpusi; 4- korpus; 6- moyqaytargich; 7- turbina korpusi; 8- turbina g'ildiragi; 9- vtulka-podshipnik; 10- zichloevchi disk

Agar kompressor yoki turbina g'ildiragi krilchatkasining tegib aylanishi aniqlanmasdan, rotoring qiyin aylanishi kuzatilsa, unda turbokompressorming ichki bo'shlqlari qurum va cho'kindilardan tozalash maqsadida qismlarga ajratiladi va uning detallari texnik nazoratdan o'tkaziladi.

Podshipnik korpusi turbina korpusidan ajratilib, kompressor g'ildiragini qotirish gaykasi bo'shatiladi va rotor o'qi turbina bilan birgalikda bosim ostida siqib chiqariladi. Rotor parragi yoki turbina diskida darzlar bo'lsa, rotor almashtiriladi. Qismlarga ajratish podshipnik vtulkalarini chiqarib olish bilan yakunlanadi. Rotor vali va vtulka orasidagi tirkish 0,135-0,190 mm dan oshmasligi kerak. Moy qaytargichning zichloevchi halqlari holati ular 23 mm li qisqichga o'rnatilgandan so'ng aniqlanadi. Halqa tutashmasidagi tirkishning 0,05-0,15 mm oralig'i da bo'lishiga ruxsat etiladi.

Bir vaqtning o'zida halqa va moy qaytargich ariqchasi orasidagi yonaki tirqish tekshiriladi, uning qiymati 0,05-0,13 mm atrofida bo'lishi lozim.

Turbokompressor detallari ko'rikdan o'tkazilib, tirqishlari o'lchangandan so'ng ular qurumdan tozalanadi va dizel yonilg'isida yuviladi.

Qurumi yumshatish uchun 15 g/l miqdordagi «Labomid-101», «Labomid-100» sintetik yuvuvechi vositalaridan yoki ishqorli eritma (1 l suvg'a 10 g kalsiy soda, suyuq shisha, xo'jalik sovuni va 1 g xropik) dan foydalaniladi.

Rotorni o'rnatishda moy qaytargichning tayanch vtul-kasidagi chiziqlar va kompressor g'ildiragi rotor validagi chiziqqa mos kelishi kerak. Kompressor g'ildiragini valga o'rnatishdan avval u 80-100°C gacha qizdiriladi. Kompressor g'ildiragining gaykasi 40 N·m tortish momenti bilan qotiriladi.

Podshipniklar korpusi rotor bilan birlashtirilganda yig'ilgandan so'ng uning o'q bo'yicha siljishi 0,15-0,23 mm, radial tirqishi 0,02-0,07 mm bo'lishi lozim. Turbokompressoring rotori yig'ilgan holatda erkin aylanishi kerak, uning qo'zg'almas detallarga tegishi ruxsat etilmaydi.

Chiqarish trubasi, moy sifontari va quyish quvurining gaykasi shunday qotirilishi kerakki, unda ishlatalgan gazlarni yorib chiqishiga va moyni tutashmalardan oqib chiqishiga yo'l qo'yilmasin. Turbokompressor o'rnatilgandan so'ng moyni o'tkazish kanaliga 10-15 g toza motor moyi quyiladi. Turbokompressor dizelda obkatka qilinadi, bunda barcha birikmalarning germatikligi va korpus detallarining qotirilishi, begona shovqinlar va taqillashlar, moyning kompressordan chiqish paytidagi izlarining mavjudligi tekshiriladi.

Dizelni ishga tushirishdan avval, turbokompressorda moyning bosimi hosil bo'lmasganda, dizel tirsakli valining aylanish chastotasi 1000 min⁻¹dan oshiq bo'lmasligi kerak.

1.7. Yonilg'i bilan ta'minlash tizimi uzel va asboblarini xo'rdalash va sinash

Ta'mirlangan yonilg'i nasosi, rostlagich va forsunkalar komplekti xo'rdalash, sinash va rostlash uchun maxsus stendga o'matiladi.

Dastlab nasos 5 – 10 minut davomida forsunkalarga yonilg'i uzatmasdan turli aylanishlar chastotasida xo'rdalanadi. Undan so'ng normal aylanish chastotasida va yonilg'ining uzati-lishi to'liq bo'lgan holda 20 – 25 minut davomida xo'rdalash davom ettiriladi. Xo'rdalash jarayonida birikmalarni zichlanib qolishiga, ishqalinish sirtlarining qizishiga, begona shovqin va taqillashlar bo'lishiga, reykaning tiqilib qolishiga yo'l qo'yilmaydi.

Xo'rdalashdan so'ng yonilg'i apparatining rostlagichi, yonilg'i nasosining ish unumini, yonilg'ini purkashning boshlanish burchagini; nasosning yonilg'ini bir tekis uzatishini rostlash talab etiladi.

Rostlagich funksiyasi tashqi richagning chap chetki holatida va normal aylanishlar chastotasida boshlanadi. Bunda korrektirovka vinti korrektirovka prizmasiga joylashishi lozim.

Aylanishlar chastotasingning ortishi bilan vint korrektirovka prizmasidan qaytishi lozim.

Rostlagichning ishi va yonilg'i berishni avtomatik ravishda to'xtatish rostlagich prujinasi tagidagi yoki aylanishlar chastotasin cheklovchi boltlar ostidagi qistirmalar komplektining qalinligini o'zgartirib rostlanadi.

Rostlagichning tashqi richagi chekka chap holatda va yonilg'i nasosining vali ma'lum aylanishlar chastotasiga erishganda yonilg'i berishni avtomatik ravishda to'xtatishi lozim. Nasos reykasining erkin siljishi va reyka holatini o'zgartirish kuchi dinamometr yordamida aniqlanadi. Yonilg'i nasosining yonilg'ini uzatishni boshlashini rostlash uchun avval uning ish umumi rostlanadi. Nasosni normal uzunlikka ega bo'lgan yuqori bosim trubka (naycha)larida, traktor dvigatelining forsunkalarida rostlanadi. Barcha nasos seksiyalarining ish unumini uncha katta bo'limgan oraliqda o'zgartirish uchun rostlagich tortqisi vilkasining vintini 0,5 aylanishga burish lozim. Bu operatsiya tugagandan so'ng plunjер juftliklari almashtirilgan nasosning yonilg'i uzatish miqdori

yurgizib yuborish aylanishlar chastotasida va yonilg'ini to'liq uzatish holatlari uchun tekshiriladi. Bunda yonilg'ini notekis uzatish 7 - 8% dan katta bo'lmasligi lozim.

Seksiyalardagi yonilg'ining uzatilishi boshlanishi nasosning rostlovchi boltlarini burib o'zgartiriladi.

Nasos bunday rostlanganda seksiyalarda yonilg'ini uzatishning bir xilligi bir oz buziladi, shuning uchun ham uni uzilkesil rostlash talab etiladi. Qo'shimcha ravishda salt yurishda, maksimal aylanishlar chastotasida yonilg'ining notekis uzatilishi tekshiriladi. Nasosni rostlash tugagandan so'ng yurgizib yuborish moslamasini avtomatik ravishda o'chirish payti tekshiriladi va yonilg'i uzatishni cheklovchi shpilka burab qo'yiladi.

Nazorat savollari

1. Yonilg'i nasoslarida qanday nuqsonlar uchraydi?
2. Yonilg'i nasoslarini ta'mirlash jarayonini tushuntirib bering.
3. Nasos korpusini ta'mirlash jarayoni nimalarni o'z ichiga oladi?
4. Yonilg'i nasosining kulachokli vali qanday ta'mirlanadi?
5. Plunjer juftliklarini ta'mirlash qanday olib boriladi?
6. Klapan juftligining asosiy nuqsonlari nimalardan iberat?
7. Klapan juftliklarini ta'mirlash jarayonini tushuntirib bering.
8. Forsunkalarning nuqsonlari va ular qanday ta'mirlanadi?
10. Karbyurator va benzin nasoslarini ta'mirlash jarayonini tushuntiring.
11. Havo tozalagich qanday ta'mirlanadi?
12. Yonilg'i baklarini ta'mirlash jarayonini tushuntiring.
13. Past bosimli yonilg'i trubalar qanday ta'mirlanadi?
14. Yuqori bosimli yonilg'i trubalarini ta'mirlash qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi?
15. Shovqimni pasaytirish moslamasi (glushitel)ni ta'mirlash jarayonini aytib bering.
16. Yonilg'i filtrlari qanday ta'mirlanadi?
17. Yonilg'ini haydovchi nasosni ta'mirlash jarayoni nimalarni o'z ichiga oladi?

18. Porshenli nasos detallarini ta'mirlash qaysi jarayonlardan iborat?
19. Yonilg'ini qo'lda haydash nasosining detallari qanday ta'mirlanadi?
20. Aylanishlar chastotasi rostlagichini ta'mirlash jarayonini tushuntiring.
21. Turbokompressorni ta'mirlash jarayonini aytib bering.
22. Yonilg'i bilan ta'minlash tizimi uzel va asboblarini xo'rdareshish va sinash nimalardan iborat?


2- BOB. MOYLASH TIZIMINI TA'MIRLASH

2.1. Moy nasosini ta'mirlash

Moylash tizimiga xos bo'lgan nosozliklar quyidagilardan iborat: moy nasosi detallarini va filtr elementlarining yeyilishi; klapanlar rostlanishining buzilishi; uzellarning germetikligi buzilishi; tizim ifloslanishi.

Moy nasosining texnik holati uning yetaklovchi valining nominal aylanishlar chastotasida va ishehi bosimida ish unumi hamda saqlagich klapanining ochilish bosimi bilan xarakterlanadi.

Moy nasosini tekshirishdan va ta'mirlashdan avval, u yaxshilab yuviladi va tashqi nazoratdan o'tkaziladi. Unda vallarning, vtulkalarning yeyilishi va boshqa nosozliklar aniqlanadi. So'ng nasosning ish unumi va saqlagich klapanning ochilishi stendda tekshiriladi. Bunda moyning qovushqoqligi aniqlanadi. Nasos ta'mirlangandan so'ng sinash jarayonidagi qovushqoqligi qizitilgan dvigatel moyining qovushqoqligiga mos bo'lishi lozim. Sinov natijalari bo'yicha nasosni ta'mirlashga zaruriyatি bor-yo'qligi aniqlanadi. Nasosni ta'mirlashga zaruriyat bo'lsa, uni qismlarga ajratish, detallarini yuvish, detallardagi nuqsonlar va yeyilgan joylari hamda miqdori aniqlanadi. Moy nasosining birikkan detallari yeyilgan joylari 2.1-rasmda ko'rsatilgan.



2.1-rasm. Moy nasosidagi birikkan detallarning yeyilgan joylari: 1, 2, 3, 4-korpusdagi; 5, 6-gopqoqdagi; 7-vtulka va vallardagi

Dvigatel ishlashi davomida moy nasosining korpusi va shesternya qirralari, o'rindiq devori, shesternya tishlarining qirralarini biriktiruvchi joylari, yetaklovchi val vtulkasini o'tqazish joyi va yetaklanuvchi shesternya barmoqlari yeyiladi. Ullardan

tashqari. saqlagich klapanining uyasi yeyilishi, rezbalarining shikastlanishi, darzlar sodir bo'lishi mumkin.

Moy nasosining korpusi yeyilganda nasosning ish unumi keskin pasayadi. Saqlagich klapanning yeyilishi uning germetikligining buzilishiga, buning natijasida bosimning pasayishi sodir bo'ladi. Qopqoqning sirti 5 (4.15-rasm 1-qism) va vtulkani qopqoq bilan birikish joyi 6 yeyiladi. Yetaklovchi va yetaklanuvchi shesternyalarning chetlari va tishlarining balandligi hamda qalinligi bo'yicha yeyilishi sodir bo'ladi, natijada moy nasosining ish unumi pasayadi. Moy nasosining ish unumiga shesternya tishlarining qalinligi bo'yicha yeyilishi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmaydi. Nasos vtulkalarining tashqi sirtlarining yeyilishi ularning korpusga, qopqoqqa va yetaklanuvchi shesternyaga bo'lgan o'tqazishining bo'shashiga, ichki yuzalarning yeyilishi esa vtulkalar va yetaklovchi val hamda yetaklanuvchi shesternya barmoqlari orasidagi tirqishning oshib ketishiga sabab bo'ladi.

Yetaklanuvchi shesternya barmog'i korpus va yetaklanuvchi shesternya vtulkasi tutashgan joyi ko'proq yeyiladi. Moy nasosining yetaklovchi vali vtulka bilan birikish joyi kattaroq yeyilish miqdoriga ega. Bu nuqson o'z vaqtida bartaraf etilmasa, tirqish keskin oshib ketishi mumkin, natijada korpus va shesternyalarning yeyilish tezligi ortadi. Valda esa shlitsalar yoki shponka uyalari kattaroq yeyilish miqdoriga ega bo'ladi.

Saqlagich klapanining sirtlarida chiziqli o'yilishlar, mahalliy yeyilishlar sodir bo'ladi, natijada klapanning germetikligi buziladi. Bunga sabab klapanlarga smolasimon moddalarning o'tirib qolishidir. Sharikli klapanlarda halqasimon chuqurcha va chiziqchalar paydo bo'ladi. Klapan prujinalari uzoq muddat ishlaganda yeyiladi, ularning elastikligi buziladi, ayrim hollarda sinib ketishi ham mumkin.

Korpusning qopqoq bilan birikkan joylarining yeyilishi silliqlash yo'li bilan bartaraf etiladi.

Nasos korpusining yeyilgan uya (kolodes) larini ta'mirlash ancha murakkab. Bunday uyalarni mis, nikel yoki jezni suyuqlantirib qoplab, epoksid smolalari bilan yelimlab hamda uyalarni yo'nib, ularga vkladishlar presslab ta'mirlash mumkin. Uyalarni yo'nib unga

vkladish presslash usuli nasos korpusini ta'mirlashning eng oson usuli hisoblanadi.

Val vtulkasi va shesternya barmog'ini o'rnatish teshigining yeyilishi razvyortkalab, unga kattalashtirilgan o'lchamda vtulka presslab ta'mirlanadi. Sharikli klapanlar o'tqazish joylaridagi yeyilish izlari yo'qolgunga qadar zenkerlanadi va sharik uyasi sharik bilan cho'ktiriladi.

Plunjer xildagi yeyilgan klapanlar ishqalab-silliqlanadi. Korpusdagi darzlar payvandlanadi yoki qattiq kavshar bilan kavsharlanadi. Chekka sirti yeyilgan moy nasosining qopqoqlari silliqlanadi. Vtulka teshiklari razvyortkalanadi va unga kattalashtirilgan o'lchamdag'i vtulka presslanadi. Tashqi yuzalari yeyilgan vtulkalar korpusda yoki qopqoqda cho'ktirish yo'li bilan ta'mirlanadi. Agar uning ichki yuzasi yeyilgan bo'lsa, uni almashtirish lozim. Yeyilgan barmoq va valiklar suyuqlantirib qoplanadi, yo'niladi, so'ng bo'yinlari silliqlanadi, shlisalar frezalab ta'mirlanadi. Nasos qabul qiluvchisining to'ri uzilgan yoki yirtilgan, uning korpus bilan birikish joyining zichligi buzilgan bo'lisi mumkin. To'ming yirtilgan qismi kavsharlanadi. Bunda to'ming ta'mirlanadigan qismi, umumiy maydonning 10% dan kam bo'lisi lozim. Aks holda to'r yangisiga almashtiriladi. Moy nasosining yuritmasida yeyilgan kronshteyn ko'rib o'tilgan usullarning biri bilan ta'mirlanadi.

Moy nasosini xo'rdalash va sinash. Ta'mirlangan moy nasosi maxsus stendda xo'rdalanadi, sinaladi va rostlanadi. Nasosni sinash paytida begona shovqin chiqmasligi, detallari qizimasligi, detallarning tutashgan joylardan va saqlash klapanidan moy sizmasligi lozim. Xo'rdalashdan so'ng saqlash klapani rostlanadi. Moy nasosi ta'mirlangandan so'ng uning ish unumi normal aylanishlar chastotasi va texnik shartlarga muvosiq qarshi bosimga tekshiriladi. Ko'pehilik avtomobilarning moy nasoslari faqat hosil qiladigan bosimi bo'yicha sinaladi.

Moy nasosining yetaklovchi valini normal aylanishlar soni bo'yicha quyidagi rejimlarda sinash tavsiya qilinadi:

yuklamasiz, stend magistrallida bosim bo'limganda xo'rda qilish, muddati - 4 minut:

stend magistralidagi bosimni 0 dan normal ish bosimigacha oshirilib, nasosning yuklamasini sekin-asta oshirish bilan sinash, davomiyligi 3 minut;

magistraldagи normal bosimda xo'rda qilish, muddati 3 minut.

Traktorlarni ta'mirlash bo'yicha tipoviy texnologiyaga muvofiq moy nasoslarini xo'rda qilishning quyidagi rejimi nazarda tutilgan:

nasos valini 400-500 ayl/min chastotasida, stend magistralidagi bosimni normal qiymatgacha sekin-asta oshirib borish yo'li bilan sinash, muddati -4 min;

normal bosim va normal aylanishlar chastotasida sinash, muddati -2 min;

normal bosimda aylanishlar chastotasi 400-500 ayl/min dan normal aylanishlar chastotasiga oshirib borish bilan sinash, muddati -2 min;

aylanishlar chastotasi normal bo'lganida va bosim minimaldan maksimal darajaga ko'tarilganda, ya'ni reduksion klapani ishga tushgandagi sinash, muddati -2 min.

Nasos xo'rda qilingandan so'ng uning saqlash klapani rostlanadi. U 2.1-jadvalda ko'rsatilgan bosimda ochilishi va moyini o'tkazib yuborishi lozim.

Nasosni xo'rda qilib saqlash klapani rostlangandan so'ng moy nasosining ish unumi aniqlanadi. Uning qiymati aylanishlar soniga, moyning qorvushqoqligiga va nasos hosil qiluvehi bosimga bog'liq. Aylanishlar chastotasi ortganda, nasosning ish unumi ortadi, tizimdagi bosim ortganda esa kirishdagi va chiqishdagi bosimning pasayishi natijasida, tirkishlar orqali moy sizib, nasosning ish unumi pasayadi. Shuning uchun ham nasosning ish unumini tekshirishda 2.1-jadvalda ko'rsatilgan rejingga qat'iy rioya qilish talab etiladi.

Ish unumi jadvalda ko'rsatilgandan ko'pi bilan 10-12% ga past bo'lган nasoslarni dvigatelga ta'mirsiz o'rnatish mumkin.

Nasosida so'ruchchi seksiyalari bo'lgan dvigatellarning ishlashi ham tekshiriladi. Tekshirish paytida nasos qopqoqlaridagi so'ruchchi teshiklar barmoq bilan berkitib turiladi. Agar so'ruchchi seksiya normal ishlasa, barmoq teshikka tortiladi.

**Turli rusumdag'i dizellarning moy nasoslarini
sinash rejimlari**

Dvigatelning rusumi	Saqlagich klapani- ning ochilish bosimi, MPa	Sinov rejimi		Ish unumi, kamida, 1min
		Chiqishda -gi moy- ning bo- simi, MPa	Nasos valigining aylanishlar chastotasi, ayl/min	
KDM-46, KDM-100	0,36	0,20-0,22	1000	35
D-75	0,65-0,70	0,25-0,30	975	48
SMD-14	0,65-0,75	0,60-0,65	1410	50
SMD-7	0,65-0,70	0,40-0,50	1100	42
D-54	0,50-0,55	0,20-0,25	975	38
D-54A	0,65-0,70	0,25-0,30	975	48
D-36,D-38	0,42	0,24-0,26	1620	35
D-40	0,80-0,83	0,58-0,62	1740	30

Avtomobil dvigatellarining nasoslarini ushbu sifati qovushqoqligi ma'lum bo'lgan moyni muayyan aylanishlar sonida, diametri va uzunligi kalibrlangan teshik orqali uzatish paytida hosil qilgan bosimi bilan aniqlanadi.

Masalan, GAZ-53A avtomobilining nasosi uzatadigan moy bosimini o'lehash uchun, moy diametri 1,5 mm va uzunligi 5 mm bo'lgan teshik orqali chiqariladi. Bunda nasos hosil qilgan bosim 250 ayl/min da kami bilan 0,09 MPa, 725 ayl/min da esa kami bilan 0,4 MPa bo'lishi lozim. Sinov kerosin (90%) va mashina moyi (10%) aralashmasida o'tkaziladi.

Nasoslar qovushqoqligi Engler bo'yicha 3-4°E bo'lgan moyda sinaladi. Qovushqoqlikning ushbu qiymati taxminan ishlab turgan dvigatel karteridagi moyning qovushqoqligiga mos keladi. Sinashda dizel moyiga dizel yonilg'isi aralashtirilib, ana shunday qovushqoqlikka ega bo'lgan moy hosil qilinadi. Moyning qovushqoqligi viskozimetr bilan o'lehamadi. Viskozimetr

bo'Imaganda zarur bo'lgan qovushqoqlikdagi aralashmani olish uchun DP-11 markali dizel moyi (qovushqoqligi 7, 89°E) bilan dizel yonilg'isini (qovushqoqligi 1,44°E) 1:1 nisbatda (massa bo'yicha) aralashtiriladi. Hosil bo'lgan aralashmaning qovushqoqligi 16 - 24° haroratda 3-4°E ni tashkil qiladi.

Sinash paytida nasos shovqinsiz va titroqsiz, ravon ishlashi lozim.

2.2. Moy filtrlarini ta'mirlash

Dvigatellarning moy filtrlarida quyidagi nosozliklari uchraydi: rotor bo'yinlari va vtulkalarining yeyilishi, forsunka teshiklarining tiqilib qolishi va sentrifuga rotorining moyni qabul qiluvchi trubkalarida himoya to'rlarining yeyilishi va rotorning aylanishlar chastotasining pasayishi; klapanlar, rezbalarning yeyilishi, filtr korpusida darzning paydo bo'lishi, qalpoqlarning deformatsiyalanishi; qistirmalarining shikastlanishi.

Qistirmalarining shikastlanishi filtr klapanlari rostlanishining buzilishiga va moyning sizishiga sabab bo'ladı.

Agar sentrifuga rotori va vtulkalar yeyilgan bo'lsa, o'q yeyilish izlari yo'qolgunga qadar jilvirlanadi, rotor korpusiga ta'mir o'lehamlari bo'yicha vtulka presslanadi. Rotor korpusi qiyin aylansa yoki tiqilib qolsa, vtulkalarni shaberlashga ruxsat etiladi. Vtulkalar presslangandan so'ng, ularga maxsus kombinatsiyalashgan razvyortka bilan ishlov beriladi. Korpus va qopqoqda darz bo'lsa, yoki sinsa, korpus va qopqoq almashtiriladi. Soplo teshiklari mis sim bilan tozalanadi va ularning o'tkazuvchanlik xususiyati karbyurator jikklyorlarini tarirovkalash asbobi yordamida tekshiriladi. Filtr korpusidagi darzlar bimetall elektrodlar bilan payvandlanadi. Klapan uyalarining va prujinalarining shikastlanishi moy nasosining saqlash klapanini ta'mirlagandagidek olib boriladi. Filtrning ezilgan qalpoqlari to'g'rilanadi, bo'ynidagi darzlar esa qattiq kavsharlar bilan kavsharlanadi.

Sentrifuganing elementlari yo'nigandan so'ng, uning o'tkazuvchi klapani rostlanadi, rotorning germetikligi va uning aylanishlar chastotasi tekshiriladi. Setrifuga nominal aylanishlar chastotasida, normal ish unumiga ega bo'lgan sentrifugaga qarshi


bosimda moy nasosi bilan birqalikda germetikligi va o'tkazuvchanlik xususiyati tekshiriladi.

Filtr korpusidagi darzlar bimetall elektrod bilan yoki kam uglerodli elektrod bilan kuydiruvchi valiklar uslubida payvandlab bartaraf etiladi.

Filtrlovchi elementning egilgan qopqog'i o'lchamlari va shakliga moslab yasalgan opravkaga o'rnatib to'g'rilanadi. Qopqoqning ezilgan qirrasiga elementning ichki tomonidan (ichki qopqoqdagi teshik orqali) metall sterjen o'rnatiladi va bolg'a bilan ohista urib, egilgan joyilarini to'g'rilanadi.


Moy filtrining filtrlovchi elementining tashqi qopqog'ini to'g'rilash uchun maxsus ilmoqdan foydalilanadi. Bu ilmoqning uchi kurakecha ko'rinishida bo'lib, to'g'ri burchak ostida bukib qo'yilgan. Ushbu buzikning uchi qopqoqlar orasiga o'rnatilib, tashqi qopqoq to'g'rilanadi.

Filtrlovchi element sirtining holati quyidagicha tekshiriladi: element tashqi qopqog'idagi teshik rezina yoki yog'och tijin bilan zinch berkitiladi va element dizel yonilg'isi solingan idishga (tijinini yuqori qaratib) tushiriladi. Yonilg'i elementining ichki bo'shlig'idan havoni siqib chiqaradi, havo filtrlovchi tasmasidagi tirkish orqali elementning butun aylanasi bo'ylab mayda pufakechalar tarzida chiqadi (2.2-rasm). Filtrlovchi sirtda hatto ko'zga ko'rinnas shikastlanishlar (tasmasi uzilgan, ayrim o'ramlari siljigan) bo'lsa, u yerdan havo tirkishlar orqali yirik pufakecha sifatida tashqariga chiqadi.



2.2-rasm. Filtrning filtrlovchi tekisligi holatini tekshirish

Filtrlovchi tasma o'ramlari orasidagi tirkishni kattalashtirishga olib keluvchi darz va ezilishlar payvandlab tiklanadi. Tasma uzilsa, uning uchlarini ikki qo'shni o'ram orasiga o'rnatib, tekis qisiladi, so'ng kavsharlab qo'yiladi. Flyus sifatida tanakordan foydalaniladi. Kavsharlangandan so'ng filtrlovchi element yaxshilab yuviladi. Filtrlovchi element sirtidagi kavsharlangan joylarning umumiy maydoni 10 sm^2 dan oshiq bo'lmasligi lozim.




2.3-rasm. Filtrlovchi elementlarning o'tka-zish qobiliyatini tiklash stendining sxemasi: 1-elektr elementi; 2-bak; 3-nasos; 4-element, 5-ishchi kamera

Filtrlovchi tasma o'ramlari bilan filtrlovchi stakan ariqchalari orasidagi tirkishda to'plangan cho'kindilar stendda (2.3-rasm) yaxshilab yuviladi. Stend baki 2 elektr elementi 1 bilan $80\text{-}90^\circ\text{C}$ haroratgacha isitilgan suv oqimi, nasos 3 hosil qiladigan $0,4\text{-}0,5 \text{ MPa}$ bosim bilan ishchi kamerasi 5 da joylangan element 4 ning sirtiga yo'naltiriladi. Ushbu element ishchi kamerasida uning sirti bo'ylab butun uzunligi bo'yicha ilgarilamma-qaytma harakatlanadi va davriy ravishda o'z o'qi atrofida aylanib turadi.

Filtrlovchi elementdagи cho'kindilarni yog'sizlantirish va ularni yumshatish uchun, elementni yuvishdan avval 2,5-3 saat davomida qaynoq ishqor eritmasisiga solib qo'yiladi.

Filtrlovchi elementning har birini o'tkazish qobiliyatini tekshiriladi, chunki bu uning yonilg'ini tozalash sifatini belgilovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Tekshirish paytida filtrlovchi elementning tashqi qopqog'idagi markaziy teshik rezina yoki yog' och tiqin bilan zinch qilib berkitiladi (tiqin ichki qopqoqdagi teshikni berkitib qo'ymasligi lozim). Ayrim dvigatellarning filtrlovchi elementi qopqog'ida, bundan tashqari, oltita diametri kichik bo'lgan teshik bo'lib, unga sovun surtib ko'rildi. Ushbu uslubda tayyorlangan tashqi filtrlovchi element dizel yonilg'isi quyilgan chelakka tushiriladi. Elementning uchi yonilg'i sathidan 2-3 mm yuqoriga chiqib turishi lozim. Ichki filtrlovchi element dizel yonilg'isiga silindrik sirtining yuqori qismigacha tushiriladi (2.4-rasm). Bunday tekshirishda yangi filtrlovchi elementning ichki bo'shlig'i 20°C haroratga ega bo'lgan dizel yonilg'isida ichki uchidan 30 mmdan pastroq sathgacha 15-20 s da to'lishi kerak.



2.4-rasm. *Filtrlovchi elementlarning o'tkazish qobiliyatini tekshirish*

Moy filtrlarini sinash va klapamlarni rostlash, odatda, moy nasoslari sinaladigan stendda olib boriladi, bu maqsadda moy o'tishi uchun ariqchalari va tashqi teshiklari bo'lgan maxsus o'tish plitalari qo'llaniladi. Bu plitalarga filtrning yo'lini berkituvchi opravkalar, tiqinlar qotiriladi. Qopqoq 5 o'mniga o'matilgan o'tish plitasiga (2.3-rasm) moy filtri o'matiladi.


Klapanni rostlash uchun filtr korpusining kanallari bo'yicha moy shunday yo'naltirilgan bo'lishi kerakki, u tekshirilayotgan klapanni o'chib, u orqali o'tib ketishi lozim. Moyning bosimi tekshiriladigan klapangacha bo'lgan bosim (2.3-rasmidagi dastlab manometr 8 bilan va undan so'ng esa manometr 6 bilan) o'chanadi hamda ularning ko'rsatkichlari farqi bo'yicha klapan ochiladigan bosim aniqlanadi.

Rostlash paytida ko'pincha klapan orqasida moy bosimi hosil qilinmaydi, bunda klapandan o'tgan moy bemalol bakka oqib tushadi. Agar klapandan so'ng bosim hosil qilinmasa, klapan ochiladigan bosim klapanigacha bo'lgan kanalga ulangan birgina manometrning ko'rsatishi bo'yicha aniqlanadi.

Klapanning ochilganligini undan so'nggi kanalidan kichik oqim tarzida chiqayotgan moy bo'yicha ham aniqlash mumkin.

2.5-rasmida dvigatel moy filtrining klapanlarini rostlash sxemasi keltirilgan. Filtr USIN stendining o'tish plitasi 2 ga o'matilgan. Nasos 1 tomonidan uzatiladigan moy qisman sentrifugaga va filtr qopqog'ining 4 ostiga yo'naladi. Moyni to'kish krani 14 ni berkitilib, filtr korpusi kanallaridagi, o'tkazish klapani 5 dan avval joylashgan kanallardagi dag'al tozalash filtri qopqog'i tagidagi moy bosimi ko'tariladi. Qayta o'tkazish klapani prujina 6 ning qarshiligini yengib ochilguniga qadar ko'tarilaveradi. Qayta o'tkazish klapanining ochilganligi tiqini chiqarilib olingan kanal 9 dan moy oqishiga qarab aniqlanadi. Klapan ochiladigan bosim manometr 7 bo'yicha aniqlanadi.

To'kish klapanini tekshirishda kanal 9 ga tiqin qotirilganda va kran 14 buralganda, qopqoq ostidagi bosim yanada ko'tarila boshlaydi. Qayta o'tkazish klapani orqali o'tgan moy magistral kanal 10 ga tushadi va unda bosim ko'tariladi. Bosim to'kish klapani 12 prujinasi 13 ning kuchini yengbunga qadar ko'tarilaveradi. Buning natijasida klapan ochiladi va o'tish plitasining to'kish teshigi 11 dan moy oqa boshlaydi. Klapan ochiladigan bosim manometr 3 bo'yicha aniqlanadi. Manometrlar 7 va 3 ning ko'rsatishlari orasidagi farq qayta o'tkazish klapani 5 ochiladigan bosimga teng ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin (manometr 7 klapangacha bo'lgan bosimni, manometr 3 esa klapandan keyingi bosimni ko'rsatadi).



2.5-rasm. D-54двигатели фильтринг кларапанларини текширish схемаси: 1-nasos; 2-o'tish plitasi; 3, 7-manometr; 4-filtr qopqog'i; 5-o'tkazish klapani; 6-prujina; 8-kran; 9-kanal; 10-magistral kanal; 11-to'kish teshigi; 12-to'kish klapani; 13-prujina; 14-kran

To'kish klapanini boshqa usulda ham tekshirish mumkin. Buning uchun filtrning qayta ulagichini qishki soydalanish vaziyatiga o'tkazish kisoya (sxema bo'yicha qayta ulagich 8 ni soat strelkasi yo'naliishiga teskarib bo'lgan yo'naliishda 90°ga buraladi). Bunda moy qopqoq ostidan chiqib, o'tkazish klapanini aylanib o'tadi va qayta ulagich orqali magistral kanal 10 ga borib, to'kish klapani tagida bosim hosil qiladi.

Filtr klapanlari texnik shartlarda belgilangan bosim bo'yicha rostlanadi. Buning uchun rostlash vintini qotirish yoki bo'shatish, hech bo'lmasa, klapan tijinlarining tagidagi rostlash shaybalarining sonini o'zgartirish kerak.

Klapanlarni rostlashda ularning germetikligi tekshiriladi. Agar klapanning germetikligi buzilmagan bo'lsa, undan sizib o'tgan moy klapandan keyingi kanaldan klapan ochilmay turib, undan ingichka oqim tarzida oqib chiqadi.

Agar klapan o'rindig'ining biroz yeyilishi tufayli moyni o'tkazib yuborsa, unga sharcha va sharchaning ustiga biror yumshoqroq material qo'yib, unga bolg'a bilan bir necha marta sekin-sekin uriladi. Uyada yeyilish miqdori anche katta bo'lsa, u parma bilan tegishli diametr gacha chuqurlashtiriladi yoki frezerланади.

Klapanlarning sezilarli darajada yeyilgan yoki shikastlangan sharchalari yaroqsiz hisoblanadi.

Stakan ko'rinishida yasalgan reduksion klapanlarning germetikligi buzilganda, klapanlar uyaga moslab ishqalanadi. Yeyilish kattaroq bo'lsa, uyaning cheti maxsus freza bilan frezerланади.


Reaktiv moy sentrifugasi rotoring ustki yoki pastki vtulkasi yeyilganda, ular almashtiriladi. Rotor forsunkalaridagi teshik dizel yonilg'isi yoki kerosinda yuviladi. Forsunkalarning teshiklarini gugurt cho'pi yoki yumshoq mis simda tozalash ham mumkin.

Sentrifuga rotoring germetikligi va qanday tezlikda aylanishi tekshiriladi. Tekshirish paytida normal qalpoq o'rniغا rotorni yuqoridañ ko'rib turishga imkon beruvchi texnologik qalpoq qo'yiladi (2.5-rasm).

Rotoring germetikligini tekshirish uchun stendni ishga tushirib, rotor aylanmasligi uchun barmoq bilan ushlab turiladi, sentrifugaga keltiriladigan moy bosimini esa 0,5-0,6 MPa gacha yetkaziladi. Rotor vtulkalarining o'q bo'yinlari bilan tutashgan joylaridan moyning bir oz sizishiga yo'l qo'yiladi.

Rotoring aylanishlar sonini rotor qopqog'iga alyuminiydan yasalgan maxsus nastavka (soxta markaz) mahkamlab, taxometr bilan yoki GOSNTIIda ishlab chiqilgan, rezonans hodisasisiga asoslangan tilli vibratsion taxometr (2.6-rasm) bilan o'lchash

mumkin. Moslamaning korpusi 4 rotor o'qi 3 ga qalpoq 2 mahkamlanadigan gayka o'rininga burab kiritiladi. Rotor 1 ishlab turganda tashqi baraban 5 ohista buraladi. Bunda tirak vint 8 elastik plastinka 7 ning chiqib turuvchi qismi uzunligi 1 ni o'zgartiradi. Buning natijasida plastinka uchlarining tebranish chastotasi ham o'zgaradi. Plastinka titray boshlagach, strelka 6 shkalada rotoring aylanishlar sonini ko'rsatadi (plastinka uchlarining tebranishi eng katta amplitudaga erishgunga qadar plastinka kattalashtiriladi). Rotor kamida 4500 ayl/min burchak tezlik bilan aylanishi lozim.




26-rasm. Tilchali vibratsion taxometri: 1-rotor; 2-qalpoq; 3-rotor o'qi; 4-korpus; 5-tashqi baraban; 6-strelka; 7-elastik plastinka; 8-tirak vint

Sentrifugaga moy berish to'xtatilgandan so'ng rotoring erkin aylanish vaqtiga qarab, uning aylanishlar soni to'g'risida aniq biror narsa deyish mumkin. Fekshirish uchun stend ulangandan so'ng sentrifugaga keladigan moy bosimi 0,6 MPa gacha yetkaziladi. Doimiy rejim o'rnatilgandan 2-3 min o'tgach, stend uziladi va ayni paytda sekundomer ishga tushiriladi. Rotoring erkin aylanishi kamida 30 s davom etishi lozim (moyning qovushqoqligi Engler bo'yicha 3-4° bo'lishi lozim).

2.3. Moy radiatorlarini ta'mirlash

Ko'p hollarda moy radiatori trubkalariga iflosliklar tiqilib qoladi va moy to'planadigan joylarda cho'kmalar yig'iladi, oqibatda radiatordaning o'tkazuvchanlik xususiyati pasayadi, moyning harorati ko'tariladi. Yuqori haroratda moyning qovushqoqligi pasayadi va moylash xususiyati yomonlashadi, bu esa, o'z navbatida, detallarning yeyilishini, moyning eskirishini tezlashtiradi. Moy radiatorini ta'mirlashdan oldin u kaustik sodaning 5-10% eritmasida 2-3 soat davomida qaynatiladi, so'ng issiq suvda yuviladi. Moy radiatorining trubkalaridagi cho'kmalar yuvish vositalari eritmasi bilan tozalanadi.



2.7-rasm. Moy nasosi va filtrni sinash USIN-3 stendining gidravlik sxemasi:
1-sinaladigan nasos; 2-o'tish gardishi;
3-kronshteyn; 4-patron; 5-qopqoq;
6, 8-manometrlar; 7-sinaladigan manometr

Trubkalar va radiatordaning moy to'planadigan joylaridan moyning sizishi kuzatilsa, uning shikastlangan qismlarini kavsharlab nuqsonlari bartaraf etiladi. Radiatorning ezilgan joylari to'g'rilanadi, uzilgan tasmasi almashtiriladi.

Radiator butun uzunligi bo'yicha jez kavshar bilan kavsharlab qo'yiladi, ta'mirlangandan so'ng uning germetikligi tekshiriladi.

Moy manometrlarini tekshirish. Traktor manometrlari etalon manometrlarga solishtirish yo'li bilan tekshiriladi. Sinaladigan manometr 7 (2.7-rasm) moy nasoslarini sinash uchun mo'ljallangan stendning maxsus shtutseriga burab kiritiladi va sinash

paytida uning ko'rsatishlari manometr 6 ning ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi, agar manometrning ko'rsatishlari stend tizimidagi bosimga mos kelsa, tekshirilgan manometr foydalanish uchun yaroqli hisoblanadi.

Manometrni maxsus gidravlik pressda ham sinash mumkin. Tekshiriladigan va etalon manometrlar press korpusidagi moy to'ldirilgan shtutserlarga burab kiritiladi. Korpusdagi moyni siqadigan porshen bilan ikkala manometrga ham o'tuvchi bosim hosil qilinadi. Bu esa manometrlarning ko'rsatishlarini taqqoslashga imkon beradi.

Nazorat savollari

1. Moy nasosini ta'mirlash jarayonini tushuntiring.
2. Moy nasosining yig'ish tartibi va unga qo'yiladigan texnik shartlar nimalardan iborat?
3. Moy nasosini xo'rDALASH va sinash qanday olib boriladi?
4. Moy filtrida qanday nuqsonlar uchraydi va ular qanday ta'mirlanadi?
5. Dvigatel moy filtrining klapanlarini rostlash jarayonini tushuntirib bering.
6. Reaktiv moy sentrifugasining nosozliklari va ularni ta'mirlash jarayoni.
7. Moy radiatorining nuqsonlari va ularni ta'mirlash jarayoni nimalardan iborat?
8. Moy manometrini tekshirish va ularni rostlash jarayoni qanday olib boriladi?

3- BOB. SOVITISH TIZIMINI TA'MIRLASH

Sovitish tizimi uzellariga xos bo'lgan nuqsonlar quyidagilardan iborat: suv nasosi va ventilyator detallarining yeyilishi va shikastlanishi, radiatorning shikastlanishi va undan suv oqishi, suv g'ilofi devorlarida, radiator baklarida va trubkalarida quyqanining yopishib qolishi, iflosanishi, radiator baklaridan va trubkalaridan sovitish suyuqligining sizishi, suv g'ilofi devorlarida darz paydo bo'lishi, termostatning shikastlanishi, ventilyator va suv nasosining ayrim detallarining yeyilishi. Ushbu nosozliklar dvigatelning issiqlik rejimi buzilishiga va uning qizib ketishiga sabab bo'ladi.

Suv nasosi va vintilyatorda ko'p uchraydigan nuqsonlar: korpus, vtulka valiklarning tutashuv joylarining yeyilishi, korpus va valiklarning podshipniklar o'tqaziladigan bo'yinlari yeyilishi, flaneslarning sinishi, detallarning darz ketishi, rezbaning yeyilishi va shikastlanishi.

Valiklarning vtulkalari, podshipniklari va qanotcha bilan tutashadigan joyining yeyilishi birikma hosil qiluvchi detalni o'lehash natijalariga muvofiq aniqlanadi. Ushbu birikmadagi yeyilishning me'yor darajasidan yuqori ekanligi to'g'risidagi ma'lumot valikni birlashtiriluvchi detalni tebrantirish yo'lli bilan baholanadi.

3.1. Sovitish tizimi uzellari va uskunalarini ta'mirlash

Ventilyator va suv nasosini ta'mirlash jarayoni o'tqazish joylarini ta'mirlash, zichloveli qistirmalarni almashtirishdan, darzlarni payvandlash yoki yelimlashdan, krestovinalar va parraklarni to'g'rakashdan, qotirish joylarini tortib qo'yishdan va statik muvozanatlashdan iborat. Ventilyatorni ta'mirlashda parraklarning shakli va nazarda tutilgan qiyshiqlik burchagi saqlab qolinishi kerak.

Termostatni ta'mirlash. Termostatning asosiy nuqsonlariga klapanning qiyshayishi, shtokning ajralib qolishi, taxlama elementida darzning paydo bo'lishi, osma plastinkaning ogitishi kiradi. Termostatdagi nosozliklarni uni issiq suvgaga botirib aniqlash mumkin. Soz termostatda klapan ochilishining boshlanishi va to'liq

ochilishi ma'lum haroratda sodir bo'ladi. Termostatdag'i nuqsonlar shtok yo'llini rostlash, detallarini bolg'alash va kavsharlash bilan bartaraf etiladi.

Suv nasosi va ventilyatorni ta'mirlash. KDM-46 rusumli dvigatel suv nasosining korpusi, shuningdek, nasosning darz ketgan kronshteyni va kronshteyn gardishi bimetall elektrod bilan payvandlab ta'mirlanadi.

Suv g'ilofini hosil qiluvchi bo'shliqlar payvandlangandan so'ng nasos korpusiga kerosin quyib germetiklikka sinaladi.

KDM-46, KDM-100 rusumli dvigatellar suv nasosi kronshteyning gardishi yoki kronshteyni payvandlangandan so'ng ularning chetlari tebranishi tekshirib ko'rildi. Bunda detallardagi tebranish 0,1 mm gacha ruxsat etiladi. Agar detallar orasidagi tebranish ruxsat etilgandan ortiq bo'lsa, vtulka yordamida joyiga moslanadi. Suv nasosi va ventilyator korpusi gardishining singan qismlari cho'yan sim bilan (gaz payvandlash usulida) yoki bimetall elektrod bilan ta'-mirlanadi. Payvandlashdan so'ng tutashuvchi tekisliklarning ravonligi tekshiriladi.

Suv nasosi va ventilyatorning yeyilgan (KDM rusumli dvigatel suv nasosining kronshteyni flanesi va kronshteyn valigi vtulkalari birikmalari yeyilganda) korpusiga tashqi diametri kattalashtirilgan vtulkalar presslab kirgiziladi.

Suv nasosi va ventilyator korpusida, shuningdek, ventilyator shkivining podshipniklar o'tqaziladigan joylarida yeyilish sodir bo'ladi. Bunday nuqsonlar po'lat halqalar (vtulkalar) o'rnatilgandan yoki payvandlangandan (suv nasosi va ventilyator korpusi) so'ng, nominal o'lehamgacha ishlov beriladi.

Ventilyator shkivdagi tasma kiydiriladigan ariqchalarining har bir tomonidan 1 mm gacha yeyilishi ruxsat etiladi. Buni aniqlash yangi shkiv ariqchasi profilida yasalgan andazasi va yeyilgan shkiv ariqchasi orasiga shchup o'rnatish yo'li bilan aniqlanadi.

Rezba esa avval ko'rib o'tilgan usullarning birortasi bilan tiklanadi. Dvigatellarning suv nasosiga va ventilyator korpusiga ventilyator shkivi qotirish gaykasining rezbsasi shikastlanganda, u cho'yan elektrad bilan gaz payvandlashdan so'ng unga nominal o'leham bo'yicha rezba kesiladi.

Suv nasosining parragi valigi o'rnatiladigan teshik yeyilganda, unga 4-6 mm ga kattalashtirilgan po'lat vtulka presslab kiritiladi. Ta'mir o'lchami chegarasidan kichik bo'lgan valiklarning bo'yni kattalashtirilganda parrak teshigi ta'mir o'lchamigacha razvyortkalanadi.

Qanotchaning yeyilgan parraklari gaz payvandlash usulida cho'yan elektrod bilan ta'mirlanadi, parrak chetiga esa nominal o'lchamga echa mexanik ishlov beriladi.

Ta'mirlashdan so'ng suv nasosining parragi statik muvozanathanadi.

Ventilyator qanotchasinining krestovinasida quyidagi nuqsonlar sodir bo'lishi mumkin: parrak bilan birgalikda qotirilgan birikmalarning bo'shab ketishi, krestovina va parraklarda qoldiq deformatsiyaning sodir bo'lishi, darz ketishi.


Parraklarning mustahkamligi buzilganda yoki ular shikastlanganda parrak qaytadan parchinlanadi. Parraklar almashtirilganda har bir krestovinaga parchinlanadigan alohiba parraklar og'irligi orasidagi farq 3-5 g dan (S-80 va S-100 rusumli traktorlarda 10 g dan) oshinasligi lozim. Parraklar ventilyator krestovinasiga puxta parchinlanishi, parchin mixlarining kallakkari me'yor darajasida yalpoqlanishi lozim.

Krestovina va parraklardagi teshiklari oval shaklida yeyilgan bo'lsa, ular kattalashtirilgan o'lchamiga yo'nilib, kattalashtirilgan diametrali parchin mixlar bilan parchinlanadi.

Parrak ta'mirlanganda ventilyator parraklarining shakli va aylanish tekisligiga nisbatan qiyalik burchagini me'yor darajasiga keltirish lozim. Turli rusumdagagi dvigatellar uchun parraklarning qiyalik burchagi $\alpha=30-35^\circ$ ni tashkil qiladi.

Parraklar bilan birga yig'ilgan krestovinaning to'g'ri o'rnatilganligi va muvozanatlanganligi ham tekshiriladi. Ventilyator parchinlangan parraklarning oldingi qirralari aylanish o'qiga perpendikulyar tekislikda yotishini ta'mirlash kerak. Buning aniqlik darjasasi turli rusumdagagi dvigatellar uchun 1-3 mm atrofida bo'lishi lozim. Parraklarning bir tekislikda yotishi plitada yoki moslamada (nazorat shifti bo'yicha) shehup bilan tekshiriladi. Parraklari yig'ilgan krestovinaning muvozanatlanganlik darjasini prizmalarida tekshiriladi (3.1-rasm). Bundagi muvozanatsizlik (disbalans) - 10


g·sm gacha (KDM-46, KDM-100 rusumli dvigatellar uchun -20 g·sm) bo'lishi ruxsat etiladi.



3.1-rasm. Ventilyator krestovinasini statik muvozanatlash

Parraklarni muvozanatlash uchun ularning uehlaridan yoki ichki qirralaridan metall yo'nishga ruxsat etiladi.

Yig'ilgan ventilyator prizmalarda yoki maxsus moslamada muvozanatlanadi (3.2-rasm). Buning uchun ventilyator 3 qotirlган valik 2 moslamadagi disk 1 ustiga qo'yiladi. Ventilyatorning muvozanatsizligi 30 g·sm gacha (KDM - 46 dvigatellari uchun 70 g·sm gacha) bo'lishi mumkin. Ventilyator shkivini muvozanatlash uchun, uning chetidan teshik parmalash ruxsat etiladi.



3.2-rasm. Ventilyatorni moslamada muvozanatlash: 1-disk; 2-valik; 3-ventilyator

Suv nasosi va ventilyator yig'ilgan holatda shkiv podshipniklarda bemalol aylanishi lozim. Shkivning orqa chetki sirti va nasos korpusi cheti orasidagi tirkish 1,5 mm dan kam bo'lmasligi kerak.

Salnikni joyiga o'matishdan avval unga grafit pastasi shimdirladi. Salnikning o'lehamini shunday tanlash kerakki, u joyiga o'matilgandan so'ng salnik gaykasi salnik vtulkasidagi yoki suv nasosi kronshteyni burchagidagi vint uzunligining yarnidan ortig'iga buralmasin.

Gayka oxirigacha qotirilgandan so'ng suv nasosi valigi vtulkalarida bemalol, ovoz chiqarmasdan aylanishi lozim.

Dvigatelning rusumiga bog'liq holda, suv nasosining valigi o'q bo'yicha 0,5-2 mm oraliqda siljishi mumkin.

3.2. Radiatorni ta'mirlash

Radiatorning asosiy nuqsonlari quyidagilardan iborat: trubkalarning egilishi va uzilib ketishi; trubkalarni tayanch plastinkalardan ajralib ketishi; sovitish plastinkalarining shikastlanishi; pastki va yuqorigi baklarning darz ketishi. Nosozliklarning ko'pchiligi tashqi ko'zdan kechirish jarayonida va siqilgan havo kiritilgan radiatorni suvli vannaga tushirish bilan aniqlanadi.

O'zagi qismlarga ajratilmaydigan radiatorning shikastlangan trubkalari tayanch plastinalardan maxsus kavsharlagich yoki kavsharlash lampasi yordamida ajratib olinadi. Sovitish plastinkalaridan trubkalar qizdirilgan nixrom sim bilan ajratib olinadi. Bunda nixrom sim 800 - 900°C haroratgacha qizdiriladi va trubkaga kiritiladi. Undan so'ng ajratilgan trubka kiritilgan nixrom sim bilan radiatordan chiqarib olinadi. Trubkani nixrom sim bilan ajratib olish uchun u payvandlash transformatorining ikkilamchi chulg'amiga ularadi (3.3-rasm). Trubka ichidagi sim havoga qaragan qismiga nisbatan kamroq qiziydi. Shuning uchun ham simdan ajralib chiqayotgan issiqqlikdan yaxshiroq foydalananish maqsadida simni o'zakka nisbatan siljitchish lozim.

Ta'mirlangan trubka germetiklikka sinaladi. Yangi yoki ta'mirlangan trubkalardan foydalanilganda ularni faqat tayanch plastinkalarga kavsharlash lozim. Shu sababli radiatorning sovitish xususiyati keskin pasayadi. Shuning uchun ham texnik shartlarga muvofiq trubkalar umumiy sonining 20 - 25% dan katta bo'limgan qismini almashtirishga ruxsat etiladi. Agar shikastlangan trubkalar

soni ko'proq bo'lsa, radiator o'zagi yaroqsiz hisoblanadi yoki qaytadan yig'iladi.



3.3-rasm. Radiatorning sovitish trubkasini nixrom sim yordamida chiqarib olish: 1-radiator trubkasi; 2-nixrom sim; 3-payvandlash transformatorining ikkilamchi chulg'ami

Radiatorning cho'yandan yasalgan yuqorigi va pastki bakchasiagi darzlar bimetall elektrod bilan payvandlanadi yoki epoksid smolasi asosidagi yelmlar bilan yelmlab ta'mirlanadi. Radiator ta'mirlangandan so'ng germetiklikka sinaladi.

Radiatorning shikastlangan qismlarini aniqlash. Ta'mirlanadigan radiator qirg'ich va cho'tkalar yordamida loy va changdan yaxshilab tozalanadi. Agar radiator o'zagi 0,1-0,2 MPa bosim ostida shlang yordamida yuvilsa, maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Radiatori qismlarga ajratishdan avval uning umumiyl holati tekshirilib ko'rildi va qanday ta'mirlash ishlarini amalga oshirish lozimligi amiqlanadi.

Fraktor radiatori stendda, suvda sinaladi. Bunda uning patrubkalari va quyish teshiklari qopqoq bilan berkitiladi. Qopqoqlarning biri orqali radiatorning iekki bo'shligi shlang yordamida nasos va manometr bilan tutashtiriladi. Radiatorga suv to'ldirilganda, unda 0,05-0,15 MPa bosim hosil qilinadi. Suvning radiator tomonidan so'riliishi yoki sizishi unda shikastlangan joyning mayjudligini ko'rsatadi.

Avtomobil radiatorlari ko'p hollarda siqilgan havo bilan tekshiriladi. Patrubka teshiklariga qopqoqlar tifib qo'yilgandan so'ng radiator suvli vannaga botiriladi va qopqoqlarning biri orqali

unga havo yuboriladi. Suvda havo pufakechalar paydo bo'lishi, unda shikastlangan joyning mavjudligini ko'rsatadi.

Radiatorni uzellarga ajratish va ta'mirlash. Traktor radiatorlarini qismlarga ajratishda, o'zakning tayanch plastinasi va stoykalarining yuqori va pastki baklarga mahkamlovchi boltlari bo'shatiladi. Dastlab radiatordan ventilyator g'ilosi va pardasi chiqarib olinadi.

S-80 rusumli traktor va avtomobil dvigatellarining radiatorlarini ajratish uchun kavsharlash lampasi yordamida undan kollektorlar (baklar) ajratib olinadi.

KD-35 va boshqa rusumdag'i traktorlar radiatorining bakini ajratish uchun radiatorga ulangan barcha trubalar yechib olinadi. bunda, dastlab, plastinkali tasma zichlovechi rezina halqaga taqalgunga qadar trubka yuqori bak tomoniga suriladi. Trubkaning ikkinchi uchi pastki bakning zichlovechi halqasidan chiqqandan so'ng u chiqarib olinadi, so'ng esa trubka yuqorigi bakdan chiqarib olinadi. Chiqarib olish paytida trubkani o'rtaidan ohista egish ham mumkin.

Radiatorning darz ketgan yuqori va pastki cho'yan baklari suv patrubkalari va ustunlari elektr payvand usulida bimetall yoki elektrodlar dastasi bilan, yoki kam uglerodli elektrodlar bilan qizdiruvchi valiklar uslubida ta'mirlanadi. Radiatorning darzlari baklari 2-4 mm qalinlikdagi po'lat yamoqlar qo'yib ta'mirlanadi. Yamoq bakka elektr payvandlash usulida yoki vintlar bilan o'rnatilishi mumkin. Qalinligi 0,5 mm gacha bo'lgan yamoqlarni BF-2 yelimi bilan yelimlab yopishtirib qo'ysa ham bo'ladi. Radiatorlarning shtamplab yasalgan baklari gaz payvandlash bilan ta'mirlanadi yoki qattiq kavshar bilan kavsharlanadi.

Radiator baklari payvandlangandan so'ng, tekshirish plitasida yoki tekshirish lineykasiga yordamida bakning tayanch plastinalariga tegib turgan sirtlarning tekisligi tekshiriladi. Notekritik ko'pi bilan 0,5 mm ni, shtamplab yasalgan baklar uchun esa butun uzunligi bo'yicha 1,5 mm gacha bo'lishi ruxsat etiladi.

Baklar va patrubkalarning payvand choklari germetikligi 0,2-0,3 MPa bosim ostida 3-5 min mobaynida suv yoki kerosinda tekshiriladi.

Radiatorning singan ustunlari po'lat qistirmalar bilan payvandlab ta'mirlanadi. Buning uchun avval ustunning ikkala

qismidan singan joyi qirrasi bo'ylab 4x45° o'lchamdagি faska ofinadi. Ustunga boltlar yordamida qalinligi 4-5 mm va uzunligi 200-300 mm bo'lgan yamoq o'rnatiladi. Qistirma elektr payvandlash bilan butun perimetri bo'yicha payvandlanadi, so'ng esa ustunning singan joyiga payvandlanadi.


Radiator o'zagini ta'mirlash va sinash. Radiatorlarni ta'mirlashda dastlab ular quyqadan tozalanadi. Quyqadan tozalashning eng qulay vositasi sifatida kaustik sodaning 10% lik eritmasidan foydalaniadi. Tozalashda eritmaning harorati 80-90°C, tozalash muddati esa 1,5-2 soatni tashkil qiladi. Quyqadan tozalashda trinatriyfosfatning 0,03%li eritmasidan ham keng foydalaniadi.

Yumshatilgan quyqa qatlami maxsus tozalagichlarda yuviladi. Radiator quyqadan tozalangandan so'ng, uning o'zagi qaynoq suvda yuviladi va eritma qoldiqlaridan tozalanadi.

Trubkalarning nuqsonli kavsharlangan joylarini aniqlash uchun o'zak KP-2002 stendida sinaladi (3.4-rasm). O'zak stend qutisiga o'rnatilganda uning chetlari (trubkalarning uchlari) ochiq qoladi, kamera ichida quti devorlari va o'zak trubkalarining tashqi sirtlari orasida berk bo'shliq hosil bo'ladi. Ushbu bo'shliqqa suv quyib, stend kamerasidagi trubkalardan suv sizishi bo'yicha nuqsonga ega bo'lgan trubka aniqlanadi.


Traktor radiatorining o'zagi shpilkalarda qotirilgan ikki po'lat plitadan iborat bo'lgan moslamada siqilgan havoda sinaladi. Plita va o'zak trubasi taxtachasining oralig'iغا rezina qistirmalar o'rnatiladi. Moslamaga o'rnatilgan o'zak suvli vannaga tushiriladi va unga siqilgan havo beriladi. Havo pufakehalarining mavjudligi bo'yicha o'zakning nuqsonli qismlari aniqlanadi.

Bunday moslama bo'limgan hollarda o'zakning har qaysi trubkasi alohida tekshiriladi. Suvli vannaga tushirilgan o'zak trubkasining bir uchi rezina tiqin yoki barmoq bilan berkitiladi, ikkinchi uchiga esa havo baydash uchun nasosining shlangi kiydiriladi. Bunda o'rama kiydiriladigan trubkali radiatorlarning ayrim trubkalari tekshiriladi. KP-2002 stendining suvli vannasiga rezina yostiqchali tayanch plastina o'rnatilgan bo'lib, uning ramasiga esa havo nasosi joylashtiriladi.




3.4-rasm. Radiator o'zaklarini sinash stendi

Nasos shlangining uchiga rezina qistirmali uchlik o'tqazilgan bo'lib, u trubkaga siqilgan havoni haydaydi. Trubkalardan chiqayotgan havo pufakehalar bo'yicha undagi nuqsonli joylar aniqlanadi.



3.5-rasm. Radiatorning tayanch plastinkasini tozalash

Trubkalarning tayanch plastinkalar bilan birikish joylarining germetikligi kavsharlab tiklanadi. Trubkaning kavsharlangan joyi freza (3.5-rasm) yoki shaber (oval shaklli trubkalar) bilan tozalanib, ustiga flyus qoplanadi. So'ng tayanch plastinkaga trubkaning chiqib turgan uchini perimetri bo'ylab kavsharlanadi (3.6-rasm).



3.6-rasm. Trubkalarni radiatording tayanch plastinkasini kavshartash

Shikastlangan va uchlari berkilib qolgan trubkalar yangisiga almashtiriladi. Trubkalarni o'zakdan chiqarish uchun ular sovituvchi plastinkalardan ko'chirib olinadi. Agar beshtadan ortiq trubka olinishiga to'g'ri kelsa, avval tayanch plastinka ajratib olinadi, so'ng trubkalar ana shu plastinkalardan chiqarib olinadi.


O'zakdan trubkani chiqarish uchun unga 800-850°C gacha qizdirilgan metall sterjen (shompol) kiritiladi. Kavshar ko'chirilgandan so'ng trubka shompol bilan birligida maxsus jag'li qisqich bilan tortib olinadi.

Trubkalarning kavsharini V.I. Klimenko va P.I. Serebryanskiy taysiya qilgan, issiq havoda ishlovchi apparatda ko'chirish ancha samarali va qulay hisoblanadi (3.7-rasm). O'zak 1 stolga qo'yilib, rolik 3 li aravacha 4 yo'naltirivchilar 2 ustida harakatlantiriladi. Aravachaning vinti 5 ga elektr pech 6 joylashtirilgan, 0,5-0,6 MPa bosim ostida siqilgan havo truba orqali elektr pechidagi zmeiyevikka beriladi. Unda havo 500-600°C gacha qiziydi va shtutser orqali kavshari ko'chiriladigan trubkaga beriladi.

Yangi trubkalar qo'yish uchun ularning uchlari qisqichda konus shakliga keltiriladi.

Trubkalar almashtirilgandan so'ng ularning chetlari yog'och bolg'ada tekislanadi. O'matilayotgan yangi trubkalarning uchlari almashtirilmagan trubkalarning uchlari bilan bir tekislikda yotishi lozim. Trubkalarni sovituvchi plastinalarga kavshartash uchun ular siqilgan havo (yoki qizdirilgan shompol) yordamida qizdiriladi.

Trubkalarning tayanch plastinadan chiqib turadigan uchlari ko'p hollarda ezildi, natijada ularning o'tkazish qobiliyati pasayadi. Bunday trubkalarni to'g'rilash talab etiladi.




3.7-rasm. Radiator trubkalarini kavshardan ko'chirib olish uchun qurilma; 1- o'zak; 2- yo'naltiruvchi; 3-rolik; 4- aravacha; 5-vint; 6- elektr pechi

Traktor radiatori o'zagining yaroqsiz qismi almashtiriladi. Buning uchun truba taxtachasi ajratib olinadi va o'zakning yaroqsiz qismi atrofida sovituvchi plastinalar qirqib olinadi. O'zakning yaroqsiz qismi ikkinchi truba taxtachasidan ajratiladi, uning o'miga yaroqli seksiya o'rnatiladi. Bu seksiya yaroqsiz o'zakdan qirqib olinadi. Seksiyadagi trubkalarning uchiga truba taxtachalari kiydiriladi va ularga trubkalar kavsharlab qo'yiladi.

Radiator o'zagining ezhilgan sovituvchi plastinalari po'lat taroq bilan to'g'rlanadi (3.8-rasm). Ta'mirlangan radiator 3-5 min mobaynida germetiklikka sinaladi.

Taram-taram o'tamli radiatording singan tirubkalari uzunligi kami bilan 30 mm li musta bilan ta'mirlanadi. Mustaning ichki sirti va trubka uchlarning tashqi sirti oqartiriladi, trubkalarning uchlari muftaga kirgiziladi va kavsharlab qo'yiladi.

Ayrim traktorlarning radiatori trubkalarini choklaridan ko'p hollarda suv sizadi. Chokni yamash uchun trubka shompolga kiydirilib va u bilan birga nakatkaланади. Chok berkitilgandan so'ng kavsharlanadi yoki butun trubka oqartiriladi. Qalay maxsus elektr pechda eritilib, shu pechning o'zida oqartirilgani ma'qul. Oqartirishdan avval trubkalarning tashqi sirtlari dumaloq metall cho'tkada tozalanadi. Tozalash paytida cho'tka 500-700 ayl/min burchak tezlikda aylanma harakat qiladi.



3.8-rasm. Radiatorning sovituvchi plastinalarini to'g'rilesh

Ta'mirlangan har bir trubkaning germetikligi KP-2002 stendda havo (yoki suv) da sinaladi.

Radiatori yig'ish. Traktor radiatorlarini yig'ish jarayonida yuqorigi yoki pastki bakni ajratish tekisliklariga qistirma qo'yiladi, uning ustiga o'zak o'rnatilib, radiator ustuniga qotiriladi va tayanch plastina plankalarga boltlar bilan mahkamlanadi, lekin bunda boltlar qattiq buralmasligi lozim. Ikkinci bakka ham xuddi shu tarzda radiator ustuni va tayanch plastinasi o'rnatiladi. Undan so'ng esa stoyka boltlari oxirigacha buraladi va plankalar tig'iz tortib qo'yiladi.

Taram-taram o'ramli radiatori yig'ishda yuqorigi va pastki bak stoykalari birlashtirilib, stoykadagi teshiklar va pastki bakdag'i radiatori mahkamlash uchun mo'ljallangan teshiklar bir-birlariga to'g'ri keltirilgandan so'nggina boltlari buraladi, so'ogra trubkalar o'rnatiladi.

Zichlovchi halqalarga qo'yishdan avval trubkalarning uchlari moylanadi. Trubkalaning taram-taram tasma kiydirilmagan yuqorigi uchiga yuqorigi bakning zichlovchi halqasi o'rnatiladi. Trubkalarning pastki uchi pastki bakning zichlovchi halqasiga

kiritiladi, so'ogra trubkaning pastki uchidagi taram-taram tasma zichlovchi halqaga taqalgunga qadar trubka shu tomonga suriladi.

Traktor radiatorini yig'ishda o'zakka yuqorigi va pastki kollektorlar o'rnatiladi va kollektorni kavsharlagich bilan qizdirib kollektorlar tayanch plastinalariga kavsharlab qo'yiladi. Ta'mirlangan radiatordning germetikligi tekshiriladi.

Ta'mirlangan radiatordni nazorat qilish. O'zak trubkalari ezilmagan bo'lishi lozim. Ikki qismidan iborat bo'lgan trubkalarni payvandlash ruxsat etiladi.

Taram-taram o'ramli trubkalarning zichlovchi rezina halqalarini shunday o'rnatish kerakki, ular panjara sirtidan 3-4 mm chiqib tursin. Trubkaning taram-taram tasmasi to'g'ri joylashtirilgan va butun uzunligi bo'ylab trubkaga to'g'ri kavsharlangan bo'lishi lozim.

Sovituvchi plastinalar tekis qilib to'g'rilanishi va biri ikkinchisidan bir xil oraliqda yotishi, bunda oraliqdagi og'ish 2 mm dan ortiq bo'lmasligi lozim. Sovituvchi plastinalar va trubkalar oralig'i toza bo'lishi talab etiladi. Trubkalar sovituvchi plastinalarga kavsharlab qo'yiladi. Trubkalar qisman (20 % gacha) almashtirilganda, ularni kavsharlamasdan qo'yish ham mumkin.

Nazorat trubkalarning yuqori uchlari suv quyish teshididan 15-18 mm pastda joylashtirilishi kerak. Bug'-havo klapanning bug' klapani 0,03 MPa dan yuqori bosimida, havo klapani esa 0,001-0,004 MPa siyraklanishda ochilishi lozim.

Bak va radiator o'zagi orasiga qo'yiladigan karton qistirmalar, shuningdek, suv harakathanuvchi trubkalarning rezbalı birikmaları, to'kish trubałarı va tıqintarning rezbalı birikmalarını o'rnatishdan avval surik yoki oq bo'yoq bilan moylanadi.

Traktorlarning yig'ilgan radiatorlarining germetikligi 0,05-0,15 MPa bosimida 3-5 min davomida sinaladi.

Radiatorlar maxsus stendlarda sinalgani maqsadga muvofiq, bunda radiator minutiga 80 martagacha titratish chastotasida kamida 10 min sinaladi.

3.3. Suv nasosini ta'mirlash

Sovitish tizimidan katta miqdordagi bug'ning ajralib chiqishi, drenaj teshididan suvning tomchilashi, suv nasosi atrofida

haddan tashqari shovqin va taqillashlar, uning buzilganligini va sovitish tizimi ishdan chiqqanligini ko'rsatadi.

Sovitish tizimi ishining samaradorligi undagi suyuqlik miqdori, suv nasosi devori va krilechatka parraklarining yeyilganlik darjasи, yuritma tasmasining tarangligiga va radiator o'zaklarining holatiga bog'liq.

Sovitish tizimi tutashmalarining germetikligi, havo klapani rostligining buzilishi, suv nasosi zichlovchilarining ishdan chiqishi natijasida sovituvchi suyuqlikning kamayishiga olib keladi.

Sovituvchi suyuqlikning miqdori kamayishi silindrлar kallagi detallarining qizib ketishiga, silindrлar gilzasи va forsunkalar stakan zichlamalarining ishdan chiqishiga, silindrлar kallagi qistirmasining kuyib ketishiga va boshqa nosozliklarga olib kelishi mumkin.

8.9-rasmida dizelning ishlatish jarayonida suv nasosining yaroqsiz holatga o'tgan tutashmalari ko'rsatilgan.

Valik podshipniklarida tirkishning paydo bo'lishi natijasida ventilyator parraklari radiator o'zagini shikastlashi mumkin.

Tashqi nazorat natijasida suv nasosi korpusida darzlar sodir bo'lganda u yangisiga yoki ta'mirlanganiga almashtiriladi.


Suv nasosida haddan tashqari shovqin va taqil-fashlarning bo'lishi uning podshipniklari chegaraviy miqdorgacha yeyilganlididan yoki buzilganlididan darak beradi.

Sovituvchi suyuqlikning drenaj teshiklaridan tomchilashi yoki yuritma shkividida moy izlarining paydo bo'lishi nasos valigining zichligi buzilganligini, uning manjeti ishdan chiqqanligini ko'rsatadi.

Sovitish tizimida bunday nuqsonlar paydo bo'lganda yeyilgan detallarni almashtirish uchun suv nasosi dizeldan yechib olinadi.

Nasosni ajratish uchun gupchakni qotirish gaykasi, so'ng esa parraklarni mahkamlash boltlari bo'shatiladi va nasos valigi ikki panjali ajratkich bilan siqib, podshipniklar bilan birgalikda chiqarib olinadi.

Agar podshipniklardagi valikning o'q bo'yicha siljishi 0,6 mm dan katta bo'lsa yoki valikka o'matilgan podshipnikning ichki halqalarining kuchsizlanishi kuzatilsa, u podshipnik bilan birgalikda almashtiriladi. Podshipniklardagi radial tirkish 0,1 mm dan katta bo'lgan hollarda podshipniklar almashtiriladi.



3.9- rasm. Suv nasosi: 1- gardish; 2- korpus; 3- zichlagich; 4- qanotchalar; 5- drenaj teshigi; 6- tayanch vtulkasi; 7, 9- zichlovchi manjetlar; 8- podshipnik; 10- valik; 11- ventilyator parraklari

Parraklardan yonaki zichlagichlar chiqarib olinadi va uning texnik holati tekshiriladi. Zichlagich shaybasidagi halqada chiziqlar va chuqurligi 0,5 mm dan ortiq bo'limgan yeyilish izlari ruxsat etiladi, bunda shaybaning qalnligi 2,5 mm dan kam bo'lmasligi kerak. Rezinalli manjetning yittilishi yoki valik bilan tutashish sirti (0,2 mm dan ortiq) yeyilganda u almashtiriladi.

Agar nasos korpusi tayanch vtulkasining yon yuzasida yeyilish izlari mavjud (halqa ariqehalari chuqurligi 0,5 mm dan

oshiq) bo'lsa, unda vtulka bosim ostida siqib chiqariladi va yangisiga almashtiriladi.

Nasosni yig'ishda rezinali manjetlar prujinalar bilan sharikli podshipniklar tomoniga o'rnatiladi. Gupchak gaykasi 16-19 N·m tortish momenti ostida qotiriladi.

Suv nasosi yig'ilgandan so'ng valik, krilchatka va ventilator parragi radiator o'zagiga qadalmasdan qo'l bilan yengil aylanishi lozim.

Nazorat savollari

1. Sovitish tizimi uzellariga xos bo'lgan nuqsonlar nimalardan iborat?
2. Ventilyator va suv nasosini ta'mirlash nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Termmostatning nuqsonlari nimalardan iborat va ular qanday tiklanadi?
4. Suv nasosi va ventilyatori qanday ta'mirlanadi?
5. Ventilyator krestovinasining statik balansirovkasini tushuntiring.
6. Radiatorning asosiy nuqsonlari nimalardan iborat?
7. Radiatorni ta'mirlash qanday olib boriladi?
8. Radiatorning shikastlangan qismlari qanday aniqlanadi?
9. Radiatorni uzellarga ajratish va ta'mirlash jarayonini tushuntiring.
10. Radiatorning o'zagi qanday ta'mirlanadi va sinaladi?
11. Radiatorni yig'ish jarayoni qanday olib boriladi?
12. Ta'mirlangan radiator qanday nazorat qilinadi?

4- BOB DVIGATELNI YIG'ISH VA SINASH

4.1. Dvigatelni yig'ish

Ta'mirlashdan so'ng dvigatelni yig'ish, uzellarni yig'ish va ularni umumiy yig'ishga bo'linadi. Umumiy yig'ish liniyasidan tashqaridagi maxsus postlarda quyidagi asosiy uzellar yig'iladi: porshen bilan shatun, silindrlar kallagi, tirsakli val bilan maxovik, nasos-forsunka, yuqori bosim yonilg'i nasosi bilan rostlagich, yonilg'i haydash nasosi, rul mexanizmi gidrokuchaytirgichining nasosi, moy nasosi, moy filtri, sentrifuga, suv nasosi.

Yig'ish ishlari sifatli bo'llishi uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

— yig'ishdan oldin barcha detallarni siqilgan havo bilan puflash, ishqalanuvchi yuzalarni tozalab artish, yuvish va moylash;

— rezbali birikmalarni (silindrlar kallagini, shatun qopqoqlarini, o'zak podshipniklarining qopqoqlarini va boshqalarni) yetarli bo'lgan momentda belgilangan tartibda qotirish;


— avval ishlatilgan shplintlar va shplintlovchi simlar, elastikligini yo'qotgan prujina shaybalar, qirralari yeyilgan yoki rezbasi shikastlangan shpilka va boltlar, rezbasi yeyilgan yoki ikkitadan ortiq o'rami uzilgan detallar, shikastlangan qistirmalarni ishlatmaslik;

— alohida uzellarni avtomatlar va avtomatik liniyalarni qo'llab yig'ish ishlarini maksimal darajada mexanizatsiyalashtirish.

Quyida ZIL-130 dvigatelinini yig'ish va sinash tartibini batafsil ko'rib chiqamiz.

Yig'ishdan oldin silindrlar bloki o'zak podshipniklarning qopqoqlari, taqsimlash vali vtulkalari, sovitish tiziminining kranlari va moylash tizimining tijinlari bilan butlanadi. Silindrlar blokini buriluvchi stendga, karter tekisligi yuqoriga qaratilgan holda mahkamlanadi. O'zak podshipniklarning qopqog'ini rezinali chetki zinchlagichlari o'matiladi. O'zak podshipniklarning ichqo'ymalari moylanadi, maxovik, ilashma, shesternya va tirak shaybalar bilan yig'ilgan tirsakli val o'z joyiga o'matiladi. Podshipniklar qopqog'i qo'yiladi va boltlar bilan mahkamlanadi. Boltlar dinamometrik kalit yordamida 110 – 130 N·m moment bilan uzil-kesil tortiladi. Bunda tirsakli valni aylantirib yuborish momenti 70 N·m dan katta

bo'lmasligi kerak. Tirsakli valning o'q bo'ylab siljishidagi tirqish shchup vositasida tekshiriladi.




4.1-rasm. Porshenning halqalarini siqish moslamasi: 1-silindr gilzasi; 2-moslama; 3-halqalar va shatun

Tirsakli val shesternysi bilan tirak podshipnigining old shaybasi orasidagi tirqish o'lchanadi. U 0,075 - 0,285 mm oralig'ida bo'lishi lozim. Silindrlar bloki stend yordamida old tomonini yuqoriga qaratib buriladi va shatun bilan birga yig'ilgan porshen silindrغا kiritiladi. Porshen halqalarini siqish uchun maxsus moslamadan foydalaniladi (4.1-rasm). Shatun boltlariga pastki qopqoqlar o'rnatiladi, dinamometrik kalit yordamida gaykalar 100 - 115 N·m moment bilan qotiriladi va ular shplintlab qo'yiladi. O'zak va shatun podshipniklari qotirilgandan so'ng tirsakli valning yengil aylanishi tekshiriladi. Aylantirib yuborish momenti 100 N·m dan katta bo'lmasligi kerak.

Taqsimlash vali shesternya va flanes bilan birga yig'ilgan holda blokka o'rnatiladi. Valni ehtiyojkorlik bilan o'rnatish lozim, chunki uning kulachoklari podshipniklar vtulkasini shikastlab qo'yishi mumkin. Shesternyalarini ilashmaga kiritishda belgililar mos tushishi zarur. Shundan keyin taqsimlash valining tirak flanesi blokka boltlar yordamida mahkamlanadi. Tirsakli valning uchiga moy qaytargich kiydiriladi, taqsimlash shesternyalarining salnik va boltlarini bir tekisda 20 - 30 N·m moment bilan tortib qo'yiladi. Taqsimloveli shesternyalar qopqog'iqa dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasini cheklowchi qurilma datchigi o'rnatiladi va mahkamlanadi. Tirsakli val shkivi shponkaga to'g'rilab, zichlab o'tkaziladi, to'xtatgich shayba qo'yib, xrapovik bilan qotiriladi. Nasosning moyso'rgichi o'rnatiladi va mahkamlanadi. Zichlovchi

qistirma qo'yib, moy karteri bolt bilan qotirib qo'yiladi. Hashmani ajratuvchi ayri karterga joylashtirilib, boltlar yordamida mahkamlanadi. Hashma karterining shchiti va qopqog'i o'matiladi hamda boltlar bilan qotiriladi, so'ng silindrlar bloki stendda old tomonini yuqoriga qaratib burib qo'yiladi.



4.2-rasm. ZIL-130двигателининг қисмларга ажратиш ва ўйғыш стенді. 1-рама; 2-планка; 3-подшипник; 4-сапфа; 5-колонка; 6-планка; 7-плита; 8-халқа; 9-то'хтатгич; 10-даста; 11-тақсимлаш крани; 12-тортқи; 13-педал; 14-пневматик силиндр; 15-пневмосилиндр штоки

Stendga yoki dastgohga silindrlar kallagi o'matiladi, klapanlar o'z joyiga qo'yiladi va klapan mexanizmi yig'iladi (4.2-rasm). Dastgohda ishlaganda maxsus ajratgichdan foydalilanildi. Undan so'ng silindrlar kallagini qistirmasi blokka qo'yiladi, kallak blok fiksatorlariga o'matiladi, blokdagi uyalarga turkichi va shtangalar joylashtiriladi, koromislolar yig'ilgan o'q o'matiladi, turkichi shtangasining uchbi koromislo bilan biriktiriladi va koromiso

o'qining stoykalari mahkamlanadi. Ikkinci silindr kallagi bo'yicha bajariladigan ishlar ham xuddi shunday ketma-ketlikda amalga oshiriladi. So'ng blok va silindrlar kallagi orasiga ziehlash qistirmalari qo'yiladi. Yig'ilgan holatdagi kiritish truboprovodi shpilkalarga o'rnatiladi va gaykalar bilan mahkamlanadi, chiqarish truboprovodi ham shpilkalar vositasida mahkamlab qo'yiladi. Moy filtrlari, karterni shamollatish filtri bilan birlgilikda moy quyish quvuri, moy nasosi, termostatli qisqa quvur, parrak va to'kish klapani yuritmasining tortqisi bilan suv nasosi, yonilg'i nasosi, karbyurator va havo filtri, yonilg'ini mayin tozalash filtri, rul boshqarmasining gidrokuchaygichi nasosi, kompressor, generator, startyor, uzgich-taqsimlagich, svechalar, elektr simlar o'rnatiladi.

4.2. Dvigatelni sinash

Yig'ilgandan so'ng dvigatel sinash stansiyasiga yuboriladi, u yerda chiniqtiriladi va sinovdan o'tkaziladi. Buning uchun turli xildagi stendlardan foydalaniлади.

Dvigatel stendda uch bosqichda sinaladi: sovuqligicha, qizdirib yuklanishsiz, qizdirib yuklanish ostida.

Har bir bosqichning o'zi ham ikki bosqichda bajariladi. Masalan, ZIL-130 dvigateli uchun sovuqligicha sinash avvalo, tirsaklı valning $400 - 600 \text{ min}^{-1}$ aylanishlar chastotasida 15 minut, so'ng $800-1000 \text{ min}^{-1}$ aylanishlar chastotasida 20 minut mobaynida o'tkaziladi.

Qizdirib yuklanishsiz sinashda tirsaklı val avval $1000-1200 \text{ min}^{-1}$ chastota bilan 20 minut mobaynida, so'ng $1500-2000 \text{ min}^{-1}$ chastotasida 15 minut mobaynida aylantiriladi. Qizdirib sinashning birinchi bosqichida $11 - 15 \text{ kVt}$ yuklanish hosil qilinadi va tirsaklı val 25 minut mobaynida $1600-2200 \text{ min}^{-1}$ chastota bilan aylantiriladi. Ikkinci bosqichda yuklanish $29 - 44 \text{ kVt}$ ga yetkaziladi, tirsaklı valning aylanish chastotasi $2500-2800 \text{ min}^{-1}$ ni, davomiyligi esa 25 minutni tashkil qiladi.

KamAZ-740 dizel dvigateli uchun sovuqligicha sinash beshta bosqichda, tirsaklı valning aylanishlar chastotasini 600 dan 1400 min^{-1} gacha o'zgartirib, 40 minut mobaynida amalga oshiriladi. Tirsaklı valni qizdirib yuklanishsiz sinash 1400 min^{-1} aylanishlar chastotasida, 10 minut mobaynida o'tkaziladi. Tirsaklı valni qizdirib

yuklanish ostida olti bosqichda aylanishlar chastotasini 1600dan 2600 min⁻¹ gacha, yuklanishni esa 22,1 dan 132,3 kVt gacha o'zgartirib sinaladi. Bunda chastota va yuklanish har 10 minutda o'zgartirib boriladi, oxirgi ikki bosqichda 5 minut davomida o'zgartirilmaydi. Bu dvigatellar uchun qizdirib yuklanish ostida sinashning umumiyligi 50 minutni tashkil qiladi. Umuman dvigatel 100 minut mobaynida sinaladi.

Agar dvigatelda silindrlar bloki, tirsakli vali taqsimlash vali, bitta yoki bir nechta porshen, silindr gilzasi, o'zak yoki shatun podshipniklaridagi ichqo'ymalarning yarmi, ikkitadan ortiq porshen halqlari almashtirilgan bo'lsa, u holda sinash takror o'tkaziladi (4.1-jadval).

4.1-jadval

Dvigateli qabul qilishdagi sinash rejimlari

Umumiy sinash davomiyligi - 30 minut

Nazorat operatsiyasi	Tirsakli valning aylanish chastotasi, min ⁻¹	Dvigatelga qo'yilgan yuklama, kVt	Sinash muddati, min
Dvigatel hamda asboblarining o'zgaruvchan yuklanishda ishlashini va moy, suv, yonilg'ining sizib chiqishini tekshirish	2200	120	2
	2400	150	2
	2600	180	10
Dvigatel quvvatini va yonilg'i sarfini tekshirish	2500	210 Yonilg'i sarfi 30 kg's dan oshmaganda	12
Salt ishlashda eng yuqori (maksimal) va eng past (minimal) aylanishlar chastotasini tekshirish	2900 dan ko'p emas 600 dan ko'p emas	--	4
		--	4

O'zak yoki shatun podshipniklaridagi ichqo'ymalarning yarmidan kamrog'i yoki bittadan porshen halqlari (silindrlar soni ikkitadan ko'p emas) almashtirilgan bo'lsa, dvigateli stendda sinash qizdirib sinash rejimida amalga oshiriladi, so'ng qabul qilish nazoratidan o'tkaziladi.

Asosiy ta'mirlashga belgilangan texnik shartlarda dvigatelni sinovdan o'tkazish ham ko'zda tutilgan. Sinov yig'ish sifatini va dvigatelni ishlatalish sharoitlariga tayyorligini tekshirish uchun imkon beradi. Sinov paytida taqillashlar, qadalishlar, suyuqlik sizishi, o'ta qizish, kuchli shovqin, titrash, quvvatning yo'qolishi va boshqa nuqsonlar bor-yo'qligi tekshiriladi.

Ta'mirlash sifatini baholash va nuqsonlarni aniqlashda tegishli asboblardan foydalanish lozim. Masalan, quvvat vattmetr yoki maxsus dinamometrlarda, shovqin va taqillashlar shovqin o'lehangichlarda, titrashlar vibrometrlarda o'lehanadi.

4.2-jadval

Dvigatelni takroriy sinash rejimlari
Umumiy tekshirish davomiyligi - 30 minut

Bosqich	Tirsakli valning aylanish chastotasi, min ⁻¹	Dvigatelga qo'yilgan yuklama, kVt	Tekshirish vaqt, min
1	1000	0	5
2	1800	66,2	10
3	2000	88,3	5
4	2200	110,3	5
5	2400	132,3	5

4.3. Dvigatelni xo'rda qilish

Dizelni xo'rda qilishdan maqsad, dizel va uning uzellari yig'ilganda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nuqsonlarni aniqlashdan hamda birikkan detallarning ishlab moslashishini ta'minlashdan iborat.

Xo'rda qilishdan avval dizel tirsakli valini aylantirib mexanizm detallarida ko'zda tutilmagan tegib o'tishlar yo'qligiga ishonch hosil qilish kerak, yurgizib yuborish dvigatchi yordamida 1 minut davomida salt aylantirilgandan so'ng uni issiq xo'rda qilishga kirishiladi.

Agar dizelni ta'mirlash traktordan yechib olinmasdan o'tkazilsa va silindr porshen guruhi detallarining bir-ikki komplektini, silindrlar bloki kallagini, klapan mexanizmini almashtirishdan iborat bo'lib, ta'mirlash shatun podshipniklari vkladishlarini almashtirish bilan tugallanadigan bo'lsa, unda «issiq»

xo'rda qilish tirsakli valning 1000, 1400 va 1800 min⁻¹ aylanishlar chastotasining har birida 5 minut davomida yuklamasiz o'tkaziladi.

Dizel tirsakli valining aylanishlar chastotasi taxospidometr bo'yicha kuzatib boriladi va bir paytning o'zida moylash va sovitish tizimlarining asboblarini ko'rsatishlari nazorat qilib boriladi.

Dizelni moylash tizimidagi moyning bosimi minimal aylanish chastotasida 0,08 MPa dan past bo'lmasligi, normal aylanish chastotasida esa 4,3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga mos kelishi lozim.

Dvigatelni xo'rda qilish jarayonida sovituvchi suyuqlikning harorati 75-95°C atrofida bo'llishi kerak.

Xo'rda qilishda kiritish trubalarining qotirilgan joylaridan havoning so'riliishi hamda chiqarish trubasi va silindrlar bloki kallagining qotirilgan joyidagi tutashmalarining puxtaligi tekshiriladi.

Xo'rda qilishning barcha sikllari tugagandan so'ng yonilg'ini to'liq uzatilishida dizel tirsakli valining maksimal aylanish chastotasida tekshiriladi.

4.3-jadval

Dizelni xo'rda qilish ko'rsatkichlari				Nominal aylanishlar chastotasida moy magistraldagi bosim, MPa
Dizelning rusumi	Tirsakli valning aylanish chastotasi, min ⁻¹	Maksimal (salt yurishda)	Minimal (salt yurishda)	
D-2411	2100	2140	600	0,1-0,15
SMD-14NG	1800	1950	600	0,2-0,3
SMD-18N	1800	1950	600	0,25-0,45
A-41	1750	1920	600	0,3
A-01	1600	1820	600	0,3
A-01M	1700	1920	600	0,3
SMD-60	2000	2080	800	0,12-0,19
SMD-66	1900	2080	800	0,3-0,5
SMD-86	2000	2080	800	0,3-0,5

Aylanishlar chastotasi ko'zda tutilgan chegaralardan chejiga chiqqanda yonilg'ini uzatish tortqisining uzunligi rostlanadi. Tirsakli valning maksimal aylanish chastotasida tekshirilgandan va rostlangandan so'ng dizel to'xtatiladi, bunda uni keskin to'xtatish

tavsiya qilinmaydi, ushbu sharoit asosan SMD-18N, SMD-66, SMD-86 va SMD-60 dizellariga tegishli, u to'xtatilgandan so'ng turbokompressor podshipniklariga moy uzatish to'xtaydi, uning rotori esa undan so'ng bir oz muddatda harakatda bo'ladi. Bu turbokompressor podshipniklarining yeyilishi natijasida muddatidan avval ishdan chiqishiga olib keladi.

Nazorat savollari

1. Fa'mirlashdan so'ng dvigatelni yig'ish jarayonlari qanday olib boriladi?
2. Dvigatelni sinash jarayonini tushuntiring.
3. Dvigateli qabul qilishda qanday sinash rejimlari mavjud?
4. Qaysi hollarda dvigateli takroriy sinash o'tkaziladi va uning rejimlari qanday?
5. Dvigateli xo'rda qilish qanday maqsadlarda olib boriladi?
6. Dizel qanday rejimlarda xo'rda qilinadi?

5- BOB. ELEKTR. JIHOZLARIGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

5.1. Akkumulyator batareyalariga texnik xizmat ko'rsatish

Akkumulyator batareyasiga mos keluvchi elektrolit quyladi va zaryadka qilinadi. Ushbu eletrolitning zichligi akkumulyator batareyasi ishlaydigan iqlim sharoitiga bog'liq (5.1-jadval).

5.1-jadval

Akkumulyator batareyasini ishlatish joyi va yilning fasli	15°C ga keltirilgan elektrolitning zichligi
Harorati -40°C bo'lgan chetki shimol mintaqalarda:	
Qishda	1,31
Yozda	1,27
Harorati qishda -40°C gacha bo'lgan shimoliy va markaziy mintaqalarda	1,29
Harorati qishda -30°C gacha bo'lgan shimoliy va markaziy mintaqalarda	1,27
Janubiy mintaqalarda qishda va yozda	1,25

Elektrolitning zichligi areometrda atrof-muhitning haroratiga bog'liq bo'lgan holda tekshiriladi. Elektrolitning harorat 15°C dan yuqori bo'lsa, elektrolitning zichligiga to'g'rilash koefitsienti qo'shiladi, 15°C past bo'lsa u ayiriladi (5.2-jadvalga qarang).

Elektrolitni tayyorlash uchun zichligi 1,83 bo'lgan akkumulyator sulfat kislotasi qo'llaniladi. Elektrolitni tayyorlashda distillangan suv o'mriga qor yoki yomg'ir suvidan foydalanish ham mumkin, ammo u temir tomdan tushmagan yoki temir idishlarda saqlanmagan bo'lishi lozim. Vodoprovod suvidan elektrolit tayyorlashda foydalanish mumkin emas. Elektrolitni tayyorlash jarayonida, kislotadan kuyishning oldini olish maqsadida kislotani suvg'a quyish kerak, lekin hech qachon kislotaga suvni quyish ruxsat etilmaydi. Elektrolitning zichligini unga suv quyligandan 1-2 soatdan keyin elektrolit bir jinsli bo'lgandan so'ng o'lehamadi.

Elektrolit tayyorlangandan so'ng uni 25°C dan yuqori bo'limgan haroratgacha sovitiladi va uni faqat shundan so'nggina akkumulyatorga quyish mumkin. Bitta batareyaga quyish uchun 3 l elektrolit talab etiladi.

5.2-jadval

Elektrolit harorati, $^{\circ}\text{C}$	Areometrning ko'rsatishiga tuzatish
+45	+0,02
+30	+0,01
+15	0
0	-0,01
-15	-0,02

Elektrolitning normal sathi saqlagich shitidan 12-15 mm baland bo'lishi lozim. Elektrolitning balandligi bo'yicha sathi ichki diametri 3-5 mm bo'lgan shisha trubka yordamida o'lehanadi. Buning uchun trubkani akkumulyatorning quyish bo'g'zigacha yetgunga qadar tushiriladi. Bunda shisha trubkaning yuqorigi uchi barmoq bilan yopilib chiqarib olinadi. Trubkadagi elektrolitning sathi trubkaga qo'yilgan ikki belgining o'rtasida, ehetidan 12-15 mm masofada bo'lishi lozim.

Akkumulyator plastinalariga elektrolit so'riliши учун elektrolit bilan to'ldirilgan batareyalar 4-6 saat davomida ushlab turiladi, so'ng esa zaryadlanadi. Batareyaning birinchi zaryadlanishi kuchi 3A ga teng bo'lgan o'zgarmas tok bilan amalga oshiriladi va keyingi zaryadlash esa 4 A tokda amalga oshiriladi. Yangi batareyani zaryadlash muddati 25-30 saatni tashkil qiladi. Batareyaning zaryadlanishi tugaganligini quyidagi belgilari bo'yicha aniqlash mumkin: elektrolitning zinchligini va kuchlanishini batareya qisqichlarida ortishining to'xtashi va elektrolitning «qaynashi».

Agar zaryadlash jarayonida elektrolitning harorati 45°C ga yetsa, zaryad tokini ikki baravar kamaytirish, yoki zaryadlashni to'xtatib, batareyaning sovitilishi talab etiladi. Zaryadlash tugagandan so'ng akkumulyator batareyasining elektroliti zinchligi tekshiriladi. Bunda elektrolitning zinchligi yuqori bo'lsa, distillangan

suv, zichligi past bo'lsa, zichligi 1,40 bo'lgan elektrolit quyiladi. Batareyadagi elektrolit zichligi u zaryadlangandan so'ng 30 minut o'tgandan keyin o'lchanadi, uning qiymati ± 0.01 dan ortiq farq qilmasligi lozim.

Traktordan foydalananish davrida elektrolitning sathbi va zichligi davriy ravishda mashina har 60 soatdan so'ng tekshirilib turiladi.

Agar nazorat qilish paytida elektrolit shtokning 10 mm dan kamini qoplasa, akkumulyatorga normal sathgacha distillangan suv quyilishi lozim.

Traktor har 240 soat ishlagandan so'ng akkumulyatordagi elektrolitning zichligi va uning zaryadlanganlik darajasi tekshiriladi (5.3-jadval).

5.3-jadval

To'liq zaryadlangan batareyaning elektroliti zichligi	Zaryadsizlangan batareya elektrolitining zichligi	
	25% ga zaryadsizlanganda	50% ga zaryadsizlanganda
1,31	1,27	1,23
1,29	1,25	1,21
1,27	1,23	1,19
1,24	1,20	1,16

Batareya elektrolitning zichligi bo'yicha zaryadsizlanish darajasini aniqlash uchun akkumulyator batareyasiga dastlab quyilgan elektrolitning zichligini bilish lozim. Agar zichligi nomalum bo'lsa, batareyaning zaryadsizlanish darajasini yuklash vilkasi voltmetrinining ko'rsatishi bo'yicha aniqlash mumkin (5.4-jadval).

Voltmetr ko'rsatishi lozim bo'lgan kuchlanish, tok kuchi bo'yicha yuklama 100 A bo'lganda 1,7 V dan kichik bo'lmasligi lozim, bunday kuchlanish akkumulyatorda 5 s davomida saqlanib turilishi lozim.

Agar batareya yozda 50% ga, qishda esa 75% ga zaryadsizlangan bo'lsa, uni zaryadlashga yuborish kerak.

Kuchlashnishlar farqi bir akkumulyator batareyasi bankalarida 0,2 V ortiq bo'lsa, u holda batareya ta'mirlanadi. Batareyaning sozligini uchqun chiqishiga qarab tekshirish man etiladi.

5.4-jadval

Voltmetrning ko'rsatishi, V	Akkumulyatorning zaryadsizlanish darajasi, %
1,7-1,8	To'liq zaryadlangan
1,6-1,7	25
1,5-1,6	50
1,4-1,5	75
1,3-1,4	100

Traktor 960 soat ishlagandan so'ng, mavsumiy texnik xizmat ko'rsatishda zaryadsizlanish-zaryadlanish siklida nazorat-mashq sikli o'tkazilishi lozim.

Nazorat-mashq sikli quyidagi tartibda olib boriladi. Batareya kuchi 4A bo'lgan tok bilan zaryadlanadi, bunda klemmalardagi kuchlanish, elektrolitning zichligi va harorati nazorat qilib turiladi. Zaryadlash 4 soat davomida akkumulyatordag'i kuchlanish va elektrolitning zichligi o'zgarmasligi kuzatilsa, u holda akkumulyatorni zaryadlash to'xtatiladi. Bir soat davomida kuchlanish ushlab turilganda zaryadlashni elektrolitning «qaynashiga» qadar davom ettiriladi. Sikni zaryadlash boshlanganidan so'ng 2 min dan kam bo'limgan vaqt ichida qaynagunga qadar qaytariladi. Zaryadlash tugagandan so'ng batareya tok bilan 10 soatlilik rejimda akkumulyatordag'i kuchlanish 1,7 V ga pasaygunga qadar zaryadsizlantiriladi. Zaryadsizlanishning soatlardagi muddatini 4 ga ko'paytirib, akkumulyatorning zaryadsizlanganda bergen amper-soatlardagi elektr miqdori aniqlanadi. Agar ushbu qiymat 22 Amper-soatdan kam bo'lsa, batareyaning sig'imi nominal qiymatidan 50% ga past hisoblanadi. Bunday hollarda batareyani ta'mirlashga yuborish lozim. Agar bu qiymat 22 Amper-soatdan katta bo'lsa, batareya zaryadlanadi va traktorga o'rnatiladi. Zaryadsizlanishning boshlanishida elektrolitning harorati 20-30°C chegarasida bo'lishi, zaryadlash

jarayonida esa 45°C dan ortiq bo'lmasligi kerak. Zaryadsizlanish jarayonida elektrolitning harorati 30°C dan farq qilsa, batareyaning haqiqiy sig'imi ni aniqlashda har 1°C haroratga 1% hisobidan to'g'rilash koeffitsienti nazarda tutiladi, agar harorat 30°C dan past bo'lsa, to'g'rilash koeffitsienti ayiriladi, yuqori bo'lsa, qo'shiladi.

5.2. G'ildirakli traktorlarning elektr jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish

5.2.1. Generatorga texnik xizmat ko'rsatish

Dvigatel yurgizib yuborilgandan so'ng, akkumulyator batareyasini zaryadlash uchun generatordan beradigan tokning qiymati ampermetr bo'yicha aniqlanadi. Shuni nazarda tutish kerakki, asosiy dvigatel yurgizib yuborilgandan so'ng ma'lum muddatdan so'ng zaryadlash tokining yo'qligi, har doim ham generatorning nosozligidan darak bermaydi, bu batareya soz va to'liq zaryadlanganligidan darak beradi.

Traktor har 240 soat ishlagandan so'ng, himoya tasmasi olinib, shchyotkalarning kollektorga yotish zichligi, shchyotkaga prujinaning bosimi va kollektor sirtining holati tekshiriladi. Dinamometr yordamida tekshiriladigan prujinaning normal bosimi $9-12.5$ N, eng kichik ruxsat etilgan bosim esa 8 N atrofida bo'lishi kerak. Balandligi 14 mm gacha yeyilgan shchyotkalarni almashtirish talab etiladi. Yangi shchyotkalar kollektor sirtiga mayda №6 (donadorligi 00) shishali charm bilan ishqalab moslashtiriladi. Charm tasma shchyotka va kollektor orasiga shunday qo'yiladiki, uning shisha qatlami shchyotka tomonga qaragan bo'lishi kerak. Tasma kollektorning aylanishiga qarshi tomonga shchyotka va kollektor o'rtafiga silliq siljtitilib, uning shchyotkaga to'liq tegishiga erishiladi. Tasma kollektorning 180° dan kam bo'Imagan aylanasini qamrashi lozim. Shchyotkalar ishqalab moslangandan so'ng generator siqilgan havo bilan purkaladi.

Kollektorning ishchi sirti toza bo'lishi lozim. Undagi iflosliklar benzinda namlangan lattada surtiladi. Uncha katta bo'Imagan kuyish izlari va notejis yeyilishlar dvigateli generatordan yechmasdan kollektor sirtini №6 - shisha charm bilan shlifovkalab bartaraf etiladi. Generatorga qo'yilgan kengligi

kollektor uzunligiga teng bo'lgan charm tasmasi kollektorni aylanasi bo'yicha 180° ga qamraydi va generator vali qo'lda aylantiriladi. Ishqalab moslashtirilgandan so'ng generatorning ichki qismidan va kollektor sirtidan shisha changi siqilgan havoda tozalanadi.

Kollektorda kattaroq miqdordagi yeyilish va uning sirtida g'adir-budurlik bo'lsa, generator kollektorning yeyilgan sirtini yo'nish uchun ustaxonaga yuboriladi. Nuqsonni bartaraf etish uchun yo'nishda metallning minimal qatlami olib tashlanadi. Kollektor yo'nilgandan so'ng metall keskich arrada plastinalari orasidagi izolyatsiya qatlami 0,8 mm chuqurlikka kesiladi va shisha charm bilan shlifovkalanadi. Yo'nishdan so'ng kollektorning val sapfasiga nisbatan tepishi 0,05 mm dan oshmasligi kerak.

5.2.2. Rele-regulyatorga texnik xizmat ko'rsatish

Traktor har 240 soat ishlagandan so'ng rele-regulyatorning ishi, ampermetrning ko'rsatishi va akkumulyator batareyasining ahvoli bo'yicha tekshiriladi. Ishlayotgan asosiy dvigatelda, o'chirilgan faralarda va zaryadlangan akkumulyator batareyasida, yurgizib yuborish dvigatelei o't olditilgandan bir necha minut o'tgandan so'ng ampermetr strelkasi uncha katta bo'limgan zaryad tokini ko'rsatishi yoki nol holatda to'xtashi kerak. Agar ampermetr uncha katta bo'limgan zaryad tokini ko'rsatsa, unda kuchlanish regulyatori kattaroq kuchlanishni ushlab turu olishi muonkin. Kuchlanish regulyatori va tok kuchini chegaralovchi nosoz ishlashining belgisi bo'lib, akkumulyator batareyasidagi elektrolitning «qaynashi» hisoblanadi. Rele-regulyatorni mavsumiy rostlash qurilmasi uchun yozda akkumulyator batareyasining normal zaryadlanishi 13,4-14,2 V chegarasida, qishda zaryadlanish kuchlanish 15,5 V bo'lgani maqsadga muvofiq. Rele-regulyatorning yoz sharoitida ishlashi uchun (harorat 5°C dan yuqori bo'lganda) rostlovchi vint taqalgunga (yoz holatiga) qadar qotiriladi, qish sharoitida ishlashi uchun (harorat 5°C dan past bo'lganda) rostlovchi vint (qishki holatga) taqalgunga qadar bo'shatiladi.

Rele regulyatorning asboblarini, mos keluvechi prujinalarning tarangligini rostlash gaykalar yordamida amalga oshiriladi. Prujinaning tarangligi ortganda teskari tok relesini ularash kuchlanishi;

regulyator bilan ushlab turiladigan kuchlanish; tokni chegaralovchi tomonidan belgilanadigan tok qiymati ortadi.

Agar rele-regulyatorni traktorda rostlashning iloji bo'lmasa, uni rostlash uchun maxsus ustaxonaga yuboriladi.

Rele-regulyator traktorga o'rnatilgandan so'ng uning qopqog'i olinmasdan tekshiriladi. Tekshirish uchun shkalasi 30 A (kam bo'limgan) ampermestr, shkalasi 0-30 V voltmetr (bo'limgasi 0,1-0,2 V), shkalasi 3000-5000 ayl/ min bo'lgan taxometr bo'lishi lozim.

Teskari tok relesi quyidagi tartibda tekshiriladi. Rele-regulyatorning B klemmasidan traktor ampermetriiga boruvchi sim uziladi, va bu sim hamda B klemma o'rtasiga nazorat ampermetri ulanadi. Rele-regulyatorning B klemmasi va massasi o'rtasiga nazorat voltmetri ulanadi. Dvigatel o't oldirilib tirsakli valning aylanishlar chastotasi sekin-asta oshirilib, nazorat voltmetri bo'yicha kuchlanish o'lehanadi, bunda teskari tok relesi tutashdiriladi. Agar rostlash to'g'ri bajarilgan bo'lsa, kontaktlar 11-12 V kuchlanishda tutashishlari lozim. Tirsakli valning aylanishlar chastotasini pasaytirib, nazorat ampermetri bo'yicha teskari tok miqdori aniqlanadi. Kontaktlar uzilganda teskari tokning qiymati 8 Amperdan katta bo'lmasligi kerak.

Tokni chegaralovchi nazorat ampermetri va voltmetri teskari tokni tekshirgandagidek ulab tekshiriladi. Dvigatel o't oldirilib, generatorning aylanishlar soni 3000-3300 ayl min gacha yetkaziladi. Dvigatel 1,5-2 min ishlagandan boshlab ampermetrining ko'rsatishi belgilab boriladi. Yoritish lampalarining barchasi yoqilganda va to'liq zaryadlanmagan batareyada tok 16 A dan katta bo'lmastigi lozim. Dvigatel 1,5-2 min ishlagandan so'ng akkumulyator batareyasi zaryadlanadi va zaryad toki 5 A dan pasayadi.

Kuchlanish regulyatori quyidagi tartibda tekshiriladi. Nazorat voltmetri rele-regulyatorning Ya klemmasi va massaga ulanadi, nazorat ampermetri esa teskari tok relesini tekshirgandagidek ulanadi. Dvigatel yurgiziladi va generatorning aylanishlar chastotasini 3000-3300 ayl/min gacha yetkaziladi. Kuchlanish nazorat voltmetri bilan o'lehanadi, o'lehangan kuchlanishning qiymati oxirigacha qotirilgan vintda 13,4-14,2 V to'liq bo'shatilgan vintda esa 14,1-15,5 V atrofida bo'lishi kerak.

5.2.3. Startyorga texnik xizmat ko'rsatish

Traktor har 240 soat ishlagandan so'ng startyorni dvigateldan ajratmasdan kollektor va shchyotkalarning ahvoli tekshiriladi. Startyorning kollektori va shchyotkalariga texnik xizmat ko'rsatish, generatorning kollektori va shchyotkalariga texnik xizmat ko'rsatish tartibida amalgalashiriladi.

Traktor har 960 soat ishlagandan keyin startyor traktordan yechib olingandan so'ng, u bo'laklarga ajratiladi, yeyilgan detallari almashtiriladi, shesternya va startyor validagi chetki shayba orasidagi tirkishi rostlanganligining to'g'riligi teshiriladi. Shesternya ulanganda, startyor richagi taqalgunga qadar surilgan bo'lsa, tirkish 1-4 mm atrosida bo'lishi kerak. Ushbu tirkish ulagich tugmachasining rostlovchi bolti yordamida o'rnatiladi. Agar tirkish kattalashgan bo'lsa, tayanch boltini qotirish, kam bo'lsa, bo'shatish kerak.

Startyor yig'ilgandan so'ng u salt yurishda tekshiriladi. Bunda iste'mol qilinadigan tok yakorning 5000 ayl:min aylanishlar chastotasida 45 A dan katta bo'lmasligi lozim.

Startyorni massa bilan ishonchli birlashtirish uchun uni dvigatelga o'rnatishdan avval startyor gardishi va maxovik karteriga startyor o'rnatish tekisligini yaxshilab tozalash talab etiladi. Gardish tagiga qistirma qo'yish yoki startyorni o'rnatish tekisligini bo'yash ruxsat etilmaydi.

5.2.4. Yoritish va yorug'lik signalizatsiyasi asboblariga texnik xizmat ko'rsatish

Yoritish va yorug'lik signalizatsiyasi asboblariga texnik xizmat ko'rsatish ularning sozligi, qotirish elementlarining puxtaligi va tozaligi ta'minlaganligini sistematik tekshirishdan iborat.

Agar traktorning yoritish yoki signal berish asboblaridan birortasi ishlamasqa, u holda ularning lampalarining va simlarining sozligini, simlarining klemmalarga qotirilish puxtaligini hamda eriydigan saqlagichni ushbu asbob zanjirida kuymaganligini tekshirish maqsadga muvofiq.


Kuygan lampani almashtirishda, fara yoki fonar korpusiga chang tushmasligi nazorat qilinadi. Shu maqsadda shikastlangan tarqatgichlarni darhol almashtirish talab etiladi.

Yo'lni normal yoritish va ish jarayonida xavfsizlikni ta'minlash uchun faralar normal rostlanishi lozim. Agar zaruriyat tug'ilsa oldingi faralarning yorug'lik yo'nalishini rostlash quyidagi tartibda olib boriladi:

- ekran oldida tekis, gorizontal maydonchani tanlash (ekran vazifasini istalgan tekis vertikal devor ham bajarishi mumkin);

- traktoring ekranidan oldingi fara tarqatgichlarigacha bo'lgan masofani 10 m ga o'rnatish. Bunda shinalardagi bosim tavsija etilgan me'yorlarga mos kelishi lozim;

5.1-rasmida ekranga belgi o'tkazish.



5.1-rasm. Faralarning yorug'lik bog'lamlarining yo'nalishini rostlashda yorug'lik dog'larining ekranda belgilanishi va joylashishi

Ekranda pol sathidan faralarning markazlaridan balandligi bo'yicha teng joylashgan N-N markaz chiziqlari o'tkaziladi. Traktoring bo'ylama simmetrik tekisligi ekrandagi chiziq bo'yicha kesishishi lozim.

Faralarni rostlash uzoqni yoritish bo'yicha, faralarni burib, bunda dastlab ularni kronshteynlarga qotirilganligi biroz bo'shatiladi. Har bir fara alohida rostlanadi. Faralarni rostlash

shundan iboratki yorug'lik dog'ining eng yordin qismining markazi X-X ni birlashtiruvchi gorizontal chiziq bilan o'ng faraning D-D vertikal chizig'i, chap faraning U-U vertikal chizig'i bilan kesishgunga qadar davom ettililadi.

Traktorga texnik xizmat ko'rsatishda fara reflektorlaridagi changni tozalash ehtiyoji tug'ilishi ham mumkin.

Reflektorni changdan tozalash uchun tarqatgichni (fara oynasini) chiqarish va reflektoring ichki sirtini toza suvda yuvib, toza fattada artish kerak. Yuvilgan reflektor xona haroratida, uning nur qaytaruvchi sirti bilan pastga qaratilib quritiladi.

Quritish paytida hosil bo'lgan izlar tozalanmasligi kerak. Reflektordagi changni mato yoki siqilgan havo purkab tozalash mumkin emas.

Orqa fonalarning plasmassalik tarqatgichlari egilishining oldini olish maqsadida traktorni 3 minutdan ortiq tormozlangan holda yondirilgan «stop-signal»da ushlab turish maqsadga muvofiq emas.

Agar traktorni malum muddat davomida tormozlangan holatda ushlab turishga zaruriyat tug'ilsa, «stop-signal» ning eriydigan saqlagichi chiqarib olinadi.

5.3. Kontakt-tranzistorli rele-rostlagichlarni sinash va rostlash

Ta'mirlanadigan kontakt-tranzistorli rele-rostlagichlar generatorlar bilan birgalikda maxsus stendda sinaladi va rostlanadi. Sinash boshlanishidan avval kuchlanish rostlagich va himoya relesining kontaktlari kapron matoni toza spirtda ho'llab artib tozalanadi. Bunda paxta-qog'oz va boshqa shunga o'xshash gazlamalardan foydalanishga ruxsat etilmaydi.

Shundan so'ng shchuplar to'plami yordamida yakor va o'zak, hamda rostlagich va himoya relesining yakori va halqasining kontaktlari orasidagi tirqish tekshiriladi.


Zarur bo'lsa, yakor va o'zak orasidagi tirqish, yakor harakati cheklagichi egib rostlanadi. Kontaktlar orasidagi tirqishni rostlash ularning tutib turgichlarini egib amalga oshiriladi.

Stendda tranzistorning sozligi va ular rostlanadigan kuchlanishi 5.2-rasmida ko'rsatilgan sxema asosida tekshiriladi.

himoya relesining ishlash tokini tekshirish sxemasi ham 5.2-rasmida keltirilgan.

Ishlamayotgan generatorda rele-rostlagichga kuchlanish massani uzgich R_1 orqali to'liq zaryadlangan o'n ikki voltli akkumulyatorlar batareyasidan beriladi. Bunda ampermetr A_1 2.5 dan 2.7 A gacha bo'lган tokni ko'rsatishi lozim. Unda tok generatorning uyg'otish chulg'ami orqali o'tadi. Kuchlanishning rostlagich kontaktlari qo'lida ularadi, undan esa tok yakorga o'tadi. Ampermetr ko'rsatayotgan tok keskin pasayadi, yakor qo'yib yuborilgandan so'ng, tok kuchi dastlabki holatiga qaytishi lozim. Agar tok o'zgarmasa, tranzistor nosoz hisoblanadi.

Soz tranzistorda rostlanadigan kuchlanish stendni yurgizib, ma'lum aylanishlar chastotasida va yuklama tokida aniqlanadi.



5.2-rasm. Tranzistor va rostlanadigan kuchlanishi tekshirish sxemasi: R_1 -massani uzgich; R_2 -zanjirni uzgich; A_1 , A_2 va V_1 -ampermetr va voltmetrlar; RR-rele-rostlagich; G-generator; QCh-uyg'otish chulg'ami; R_n -yiklash reostati; E-akkumulyatorlar batareyasi; Sh va B - rele-rostlagichdan chiqish


Masalan, G-285 generatorida va RR-385 rele-rostlagichida rotoring aylanishlar chastotasi 4100 ayl/min gacha yetkaziladi va yuklama reostati bilan 40 A tok yuklamasi o'rnatiladi. Bunda rostlagichning kuchlanishi 13,4-14,4 V chegarasida bo'llishi kerak. Agar kuchlanish texnik shartlarda ko'rsatilgan chegaraviy qiymatlarga to'g'ri kelmasa, kuchlanishni rostlash prujinasining tarangligini o'zgartirish lozim. Prujinaning bosish kuchlanishini

oshirish uchun, u taranglashtiriladi, kamaytirish uchun esa, bo'shatiladi. Shuni nazarda tutish kerakki, rostagich korpusi massaga nisbatan kuchlanishda bo'ladi, shuning uchun ham ular orasidagi qisqa tutashuv rele-rostlagichning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Himoya relesi quyidagicha tekshiriladi va rostanadi. Rubilnik P ulanib (5.3-rasm), reostat R_1 bilan uyg'otish chulg'ami zanjiridagi tok tekis oshiriladi. Kontaktlar ulanayotgan paytda ovoz chiqadi.

Himoya relesining ishlab ketish toki 20°C da $4\text{-}4.5 \text{ A}$ oralig'ida bo'lishi lozim. Agar ishlab ketish toki keltirilgan chegaradan farq qilsa, rele, kuchlanishni rostagich kabi, ya'ni rostlash prujinasining tarangligini oshirib rostanadi.

Rele-rostlagichni sinash paytda rele bloklaridan va rele-rostlagich yarim o'tkazgich elementlaridan qopqoqni olish mumkin emas, chunki bunda issiqlik o'tkazgich unga qotirilgan tranzistorni massaga qisqa tutashtirishi mumkin.



5.3-rasm. Himoya relesining ishlash tokinin tekshirish sxemasi: E-akkumulyatorlar batareyasi; R_1 -rostlash qarshiligi; P-rubilnik; A-ampermetr; RR-rele-rostlagich; E, B va K-emitter, baza va kollektor; Sh va B-rele-rostlagichdan chiqish.

5.4. Rele-rostlagichni nazorat stendida tekshirish

Rele-rostlagichning asosiy nuqsonlarini aniqlash uchun uni nazorat-sinash stendida tegishli generator bilan birga sinaladi. Rele-

rostlagichni sinashdan avval yakor va o'zak orasidagi hamda kontaktlar orasidagi tirqish 5.4-rasmdagi sxema bo'yicha tekshiriladi va rostlanadi.

Kuchlanishni rostlagich va tok cheklagichning yopiq kontaktlarida yakor va o'zak orasidagi tirqish tekshiriladi va rostlanadi. Tok cheklagich uzelidagi va kuchlanishni rostlagichdagi tirqish qo'zg'almas kontakt kronshteyni osmasini siljitim hisobiga rostlanadi. Teskari tok relesi kontaktlari orasidagi tirqish tekshiriladi va rostlanadi. Yakor va o'zak orasidagi tirqish shchup bilan kontaktlar ajratilgan holatda tekshiriladi, yakorning ko'tarilishi esa cheklagichni egib rostlanadi. Rostlangandan so'ng tirqishning qiymati texnik shartlarda ko'rsatilgan chegarada bo'lisi lozim.

Barcha tirqishlarni rostlab mavsumiy rostlash vinti «Leto» vaziyatiga taqalgunga qadar buraladi va rele-rostlagich stendda rostlanadi.

Stend yurgizilgandan so'ng, variator yordamida generator yakorining aylanishlar chastotasi o'rnatiladi, yuklama reostati bilan ma'lum yuklama beriladi. Shu holatning o'zida rostlagich tomonidan ushlab turilgan kuchlanish ham o'chanadi.


Agar kuchlanish texnik shartlarda keltirilgan qiymatlarga to'g'ri kelmasa, prujinaning tarangligi o'zgartiriladi. Prujinaning tarangligi qancha katta bo'lsa, ushlab turilgan kuchlanish ham shuncha katta bo'ladi yoki uning aksi kuzatiladi. Tok cheklagichni sinash ham kuchlanish rostlagichini sinash kabi olib boriladi.

Yuklama reostatning qarshiligi kamaytirilib, maksimal tok o'rnatiladi. Qarshilik yanada kamaytirilsa, tok o'zgarmas bo'lisi mumkin.

Agar tok texnik shart me'yollariga to'g'ri kelmasa, yakor va o'zak orasidagi tirqish to'g'rilanadi. Bunda tok cheklagich kontaktlari orasidagi tirqish diamagnit tayanchigacha 0,25-0,30 mm chegarasida bo'lisi ta'minlanishi lozim. Tokning qiymatini spiral prujinaning tarangligini o'zgartirish hisobiga o'zgartirish mumkin. Chegaralash tokini kamaytirish uchun prujina tarangligi bo'shatiladi yoki uning aksi bo'ladi. Teskari tok relesini tekshirish uchun almashlab-ulagich «Peremenniy» holatiga qo'yiladi, relening Ya klejimasi esa voltmetr uyasiga ularadi (rasmda punktir chiziq bilan ko'rsatilgan).

Teskari tok relesi ikki ko'rsatkich: ulanish kuchlanishi va teskari tok bo'yicha tekshiriladi.

Generator rotorining aylanishlar chastotasi tekis oshirilib, rele kontaktlari tutashadigan kuchlanish aniqlanadi. Kontaktlarning tutashishini voltmetr strelkasining kamayish tomonga siljshidan aniqlasa bo'ladi. Aylanishlar chastotasini kamaytira borib, kontaktlarning ajralish paytidagi eng katta toki aniqlanadi. Ulanish kuchlanishi spiral prujinaning tarangligi o'zgartirilib rostlanadi. Relening ulanish kuchlanishi ajralgan kontaktlardagi yakor va o'zak orasidagi tirkishga bog'liq. Tirkish ortganda relening ulanish kuchlanishi ortadi yoki kamayadi.



5.4-rasm. Rele-rostlagichni tekshirish va sinash sxemasi: TIR - teskari tok relesi; TCII - tok cheklagich; KR - kuchlanishni rostlagich; Yo - «Leto» holati; Q - «Zima» holati; H - chulg'am boshi; K - chulg'am oxiri; A, B₂, B₃ - yakor va o'zak o'rtasidagi tirkish; B₁ - kontaktlar orasidagi tirkish; UCH - uyg'otish chulg'ami; R - yuklama reostati; E - akkumulyatorlar batareyasi; B, Ya, Sh - batareya, yakor, shunt klemmalari

Teskari tok relesining ajratuvchi teskari tok kontaktlar orasidagi tirkishga bog'liq. Teskari tok rostlangandan so'ng, releni ularash kuchlanishining rostlanishi yana bir bor tekshiriladi. Rele-rostlagichni rostlash va sinash tugagandan so'ng uning qopqogiga rezina qistirma qo'yib yopiladi va muhrlanadi. Agar rele-rostlagich

ta'mirlashdan so'ng qishki sharoitda ishlasa, mavsumiy rostlashda kontakt vinti bo'shatiladi (tok cheklagich va teskari tok relesi qo'shimcha rostlanmaydi).

RR-350 rele-rostlagichli generator qurilmasining nosozliklari quyidagilardan iborat: kuchlanish rostlanmaydi, ya'ni generator kuchlanishining ortishi kuzatiladi va akkumulyatorlar batareyasi me'yordan ko'proq zaryadlanadi (ampermetr doimo katta zaryad tokini ko'rsatadi); kuchlanish generatori uyg'onmasligi oqibatida rostlanmaydi (ampermetr doimiy razryadni ko'rsatadi); rostlagich ishlaydi, ammo kuchlanish katta.

Emitter-kollektor o'tish joyida yoki emitter-baza tranzistoridagi izolyatsiyaning teshilishi hisobiga kuchlanish rostlanmaydi. Ishlamayotgan tranzistorni tekshirayotgan paytda o'tish joylaridagi qarshilikning nolga tengligini ko'rsatadi. Bunda P241 V tranzistorining o'tish joylaridagi teshilish ehtimoli ancha past, uzilishlar P302 tranzistori elektrodlari zanjirida, stabilitron zanjirida sodir bo'lishi mumkin.

Ikkinchisi nuqson sodir bo'lishining asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi: kuch uzatuvchi tranzistor T3 elektrod zanjirida, D2 va D3 dioddulari zanjirida uzilish mavjudligi; rostlagich yoki generator shtepselli ajratgichi kontaktlarining buzilganligi. T2 tranzistori elektrodlari zanjirining uzilishi, T1 tranzistori o'tish joylarining teshilishi. D1 stabilitronda esa teshilishning sodir bo'lish ehtimoli kamroq.

Fermorezistor zanjirining uzilishi natijasida rostlanuvchi kuchlanish oshib ketishi mumkin.

Agar rele-rostlagichda nosozliklar kuzatilsa, u soz G-250 generatorda 3000 ayl/min aylanishlar chastotasida, 14 A tok kuchiда stendda tekshiriladi.

Soz rele-rostlagichning musbat chiqishi V_3 va rostlagich massasi orasidagi kuchlanish 13,6-14,3 V ni tashkil etishi lozim.

5.5. Gusemitsalik traktorlarning elektr jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish

Elektr jihozlari tizimiga (akkumulyator batareyasidan tashqari) texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida nazorat, rostlash operatsiyalari o'tkazishdan iborat.

Agar dizelning tirsakli valining nominal aylanishlar chastotasida ampermetr zaryadsizlanish tokini ko'rsatsa, uyg'otish chulg'ami oziqlantirish zanjirining simlari uzilganligini, generatorning siqqichini rele-regulyatorining Sh siqqichi bilan birlashtiruvchi «massa» simi tutashganligi (himoya relesini ishlab ketganligi) ni, rele-rostlagichning rostlanganligi buzilishini ko'rsatadi.

Bundan tashqari ushbu nosozlik tarmoqlararo tutashuv yoki uyg'otish chulg'ami tarmoqlari uzilganligini, stator chulg'amida korpus bilan tutashuv borligi, rostlagichning teskari va to'g'ri qutblik diodlari teshilganligi natijasida sodir bo'ladi.

Ampermetrda kuzatiladigan katta zaryad toki rele-regulyatorning rostlanganligi buzilganligidan yoki uning kuchlanish regulyator kontaktlarining ifloslanganligidan, tranzistorlarning teshilganligidan darak beradi.

Katta zaryad toki hosil bo'lishiga plastinalarda qisqa tutashuv bo'lganda akkumulyator batareyasining ichki qarshilikning kamayishi natijasida sodir bo'ladigan nosozlik ta'sirini ko'rsatish mumkin.

Generatorda shovqin va taqillashning mavjudligi generator yuritmasi shkivining qotirish gaykalarining qotirilganligi bo'shaganligini, rotor valining egilganligini, sharikli podshipniklarning buzilganligini yoki o'tirish joylarining buzilganligini ko'rsatadi, buning natijasida rotor statorga tegib qoladi.

Dastlab G-306 yoki G-309 generatorini traktordan ajratib olmasdan KI-1093 asbobdan foydalaniib, nosozliklarni aniqlash mumkin. Buning uchun asbob 5,5 a- rasmdagi sxemada ko'rsatilgandek ulanadi, dizel yurgiziladi elektr energiyasini iste'mol qiluvchilarni ulab va asbobning reostati yordamida 23,5 A (G-309-28 A generatori uchun) tok bo'yicha yuklama o'rnatiladi. Kuchlanish klemmasida 13,2 V bo'lishi lozim.

13,3701, 13,53701 generatorlari uchun tok bo'yicha yuklama 36 A bo'lganda kuchlanish 13,5-14 V bo'lishi kerak.

Agar kuchlanish 15 V dan ortib ketsa, kuchlanishning integral regulyatori almashtiriladi.

Agar generatordagi kuchlanish ko'rsatilgan nominal qiymatlardan past bo'lsa, yoki kuchlanish bo'lmasa, generatorni tekshirish davom ettiriladi. Dastlab generatorning uyg'otish zanjiri nazorat qilinadi. Asbob 5.5 b- rasmdagi sxema bo'yicha ulanadi. dizel yurgizilmasdan avval traktorning «massasi» ulanadi va uyg'otish zanjiridagi tok o'lehanadi (uning qiymati 3,6-4 V atrofida bo'lishi kerak). Tokning qiymati pasayishi chulg'am chiqishlarining kavshari buzilganligini ko'rsatadi, ortishi esa chulg'amda tarmoqlararo tutashuv yoki uning «massa» ga tutashuvi borligini ko'rsatadi, tokning yo'qligi esa g'altak chulg'ami zanjirining uzilganligini ko'rsatadi.

13.3701 generatorining uyg'otish g'altagini tekshirish uchun, qisman bo'laklarga ajratish amalga oshiriladi: integral regulyatorning qopqog'i olinadi va unga keluvchi simlar uziladi. Undan so'ng to'g'rilaqichning qopqog'i olinadi va stator fazalarining chiqishlari, to'g'rilaqichning uyg'otish chulg'aming chiqishi uziladi.

Akkumulyator batareyasining «+» klemmasi bilan birlashtiriladi, asbobning «massa» klemmasi bilan ulangan simning erkin uchi uyg'otish g'altagi chiqishlarining birortasiga tekkiziladi. Asbobning strelkasi nolda turishi lozim. Strelkaning holati undan boshqacha bo'lishi g'altakning «massa» ga tutashuvi borligini ko'rsatadi.

Agar generatorning uyg'otish chulg'ami soz bo'lsa, generatorning holatini tekshirish davom ettiriladi.

G-306, G-309 generatorlarining to'g'rilaqichlarini tekshirish uchun asbob 5.5 d- rasmdagi sxemada ko'rsatilgandek ulanadi. Traktorning «massasi» ulanganda strelka nolda turishi lozim. Strelkaning undan chetga chiqishi quyidagi nosozliklar borligini ko'rsatadi:


V chiqish («+») ning izolyatsiyasi «massa» ga teshilgan;

to'g'rilaqichning issiqlik chiqaruvchisining izolyatsiyasi teshilgan;

bir yoki bir necha dioddarda tutashuv sodir bo'lgan;

uyg'otish g'altagining (13.3701, 15.3701 generatorlar) chulg'ami «massa» ga ulanib qolgan.

Agar asbob 5.5 e- rasmdagi sxema bo'yicha ulangan bo'lsa, G-306 generatorining statori faza chulg'amining uzilganligini yoki «massa» ga ulanib qolganligini ko'rsatadi. Asbobning strelkasi nolda turgan bo'lshi kerak. Strelkaning noldan chetga chiqishi faza chulg'amlarining «massa» chulg'amiga tutashib qolganligini ko'rsatadi.



15.5-rasm. Voltampermetr yordamida generatorni nazorat qilish: a-G306; b-G309; d-13.3701; A-nominal tokni berish sxemasi; B-uyg'otish zanjirini tekshirish sxemasi; D-to'g'rilagichni tekshirish sxemasi; E- G306, 309 generatorlari statorining g'altagini tekshirish sxemasi


13.3701 va 15.3701 generatorlarning faza chulg'amlari zanjirining holatini tekshirish uchun, u (yuqorida ko'rsatilgandek) qisman bo'laklarga ajratiladi. Akkumulyator batareyasining «» klemmasi faza chulg'amlarining chiqishlaridan biriga ulanadi, batareyaning «+» klemmasi esa asbobning klemmasiga ulanadi. Asbobning «» («massa») klemmasi bilan birlashtirilgan simming erkin uchi navbatma-navbat chulg'amlarning faza chiqishlariga

tekkiziladi. Strelka burilishi lozim. Uning nol holati faza chulg' ami zanjirida uzilish borligini ko'rsatadi.

Faza chulg'amlarining «massa» ga ulanib qolishini aniqlash uchun akkumulyator batareyasining «-» stator paketiga, batareyaning «+» klemmasi asbob klemmasiga ulanadi. Simni asbobning «-» klemmasi bilan ulangan erkin uchi navbatma-navbat faza chulg'amlari uchiga tekkitildi. Strelkaning burilishi chulg'amning «massa» ga tutashganligini ko'rsatadi. To'g'rilaqich diodlarning holatini tekshirish uchun, generator traktordan ajratiladi va A12-21 yoki A12-32 nazorat lampasiga ulanadi.

5.6. a-rasmidagi sxemadan foydalanilganda lampa yonmasligi lozim. Lampaning yonishi to'g'rilaqichda quyidagi nosozliklardan biri sodir bo'lganligini ko'rsatadi:

- har bir qutblilikda bir yoki bir necha ventillarda qisqa tutashuv mavjudligi;
- to'g'rilaqichning issiqlikni chiqarib yuborgich va korpus o'rtaisdagi issiqlik izolyatsiyasining teshilganligi;
- «+» chiqishning generator korpusiga tutashuvi.



5.6-rasm. Diodlarni tekshirishda nazorat lampasini ulash: a, b, d - to'g'rilaqich diodlarining holatini tekshirish sxemasi; 1-nazorat lampasi; 2-generator; 3-akkumulyator batareyasi

5.6. b-rasmida ko'rsatilgan sxema bo'yicha ulanganda lampaning yonishi, to'g'ri qutblk ventillarning birortasida yoki bir nechtaasida qisqa tutashuv borligini ko'rsatadi.

Generatorga 5.6. d-rasmdagi sxema bo'yicha ulanganda lampa yonmasligi kerak. Lampaning yonishi teskari qutbli ventillarda yoki stator chulg'amida generator korpusiga qisqa tutashuv borligini ko'rsatadi.

Nazorat lampasidan foydalanib 13.3701 va 15.3701 generatorlarining kuchlanishining integral regulyatorini tekshirish mumkin. Buning uchun akkumulyator batareyasining «-» klemmasini generator to'g'rilaqichining qopqog'iga, batareyaning «+» klemmasini navbatma-navbat regulyatorning «B» va «Sh» klemmasiga ulanadi. Lampaning yonishi regulyatorning sozligini ko'rsatadi. «B» chiqishning tutashuv maydonchasini ostqo'yma yordamida izolyatsiyalab, batareyaning «+» ga lampa orqali regulyatorning «Sh» klemmasiga ulanadi. Lampaning yonishi regulyatorning nosozligini ko'rsatadi. Batareyaning «-» ni «Sh» klemmasiga ulanganda, «+» nazorat lampasi orqali regulyatorning «M» klemmasiga ulanganda lampa yonmasligi lozim.

Nazorat savollari

1. 15°C ga keltirilgan elektrolitning zichligi atrof-muhit haroratiga qarab qanday o'zgaradi?
2. Areometrning ko'rsatishida tuzatishning qiymati atrof-muhit haroratiga qanday bog'langan?
3. Akkumulyator batareyasining zaryadlash jarayonini tushuntirib bering.
4. Traktordan foydalanish davrida elektrolitning zichligi qanday o'zgaradi?
5. Akkumulyatorning zaryadsizlanish darajasi uning kuchlanishi o'zgarishiga qanday bog'liq?
6. Akkumulyator batareyasining zaryadsizlanish-zaryadlanish siklidagi nazorat-mashqining mohiyati nimalardan iborat?
7. Traktor generatoriga texnik xizmat ko'rsatish qanday jarayonlarni o'z ichiga oлади?
8. Rele-regulyatorga texnik xizmat ko'rsatishda qanday ishlarni bajarish ko'zda tutiladi?
9. Startyorga texnik xizmat ko'rsatish qanday olib boriladi?

10. Yoritish va yorug'lik signalizatsiyasi asboblariga texnik xizmat ko'rsatish jarayonini tushuntirib bering.
11. Kontakt-tranzistorli rele-rostlagichlarni sinash va rostlash qanday olib boriladi?
12. Himoya relesi qanday tekshiriladi va rostlanadi?
13. Rele-rostlagichni nazorat stendida tekshirish jarayonini tushuntirib bering.
14. Giusenitsalik traktor elektr jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish davrida qanday nuqsonlar uchraydi?
15. Ishlatish davrida generatorlarda qanday nuqsonlarni kuzatish mumkin?

6 - BOB. ELEKTR JIHOZLARINI JORIV TA'MIRLASH

6.1. Generatorni ta'mirlash

Asosiy nosozliklari va to'xtowlari. Dizelning tirsakli valini nominal aylanishlar chastotasida, ampermetr zaryadsizlanish tokini ko'rsatsa, bu generator tasmasining tarangligi pastligini yoki oziqlantirish zanjiri uyg'otish chulg'amining uzilganligini, ulovchi simlarining siqqichlari oksidlanganligini, rele-rostlagichning Sh siqqichi simining generator siqqichi bilan «massa» ga qisqa tutashuvi (himoya relesini ishlab ketishi), rele-rostlagich rostlanganligining buzilganligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari ushbu nosozlik tarmoqlar o'tasidagi qisqa tutashuv yoki uyg'otish chulg'amining tarmoqlari uzilishi, stator chulg'amining korpus bilan tutashuvi, to'g'rilaqichning teskari yoki to'g'ri qutblik diodlari teshilishi natijasida sodir bo'lishi mumkin.

«Кировец» traktorlarining generatorlarida ushbu nosozlik shehyotka tutgichlarning prujinalari singanda, tutashuv halqalari ifloslanganda yoki ulardan uyg'otish g'altagi simlarining kavsharlangan joyidan uzilishi, selenli to'g'rilaqichning shaybalarini eskirishi natijasida sodir bo'lishi mumkin.

Ampermetrda kuzatiladigan katta zaryadlash toki rele-rostlagich rostlanganligining buzilganligini yoki uning kuchlanishi rostlagichini kontaktlarining ifloslanganligini, tranzistorning teshilganligini yoki tarmoqlarining uzilganligini ko'rsatadi.

Zaryad tokining katta bo'lishiga plastinalarning qisqa tutashuvidan sodir bo'lgan akkumulyator batareyasi nosozligi ta'sir ko'rsatishi mumkin, buning natijasida akkumulyatorning ichki qarshiligi kamayadi.

Generatordagi showqin va taqillashlar generator yuritmasining shkivi qotirish gaykalarini qotirish bikirligi sustlanganligini, rotor valining egilganligini, sharikli podshipniklarning buzilishi yoki ularning o'tqazish joylarining yeyilganligini ko'rsatadi, buning natijasida rotor statorga tegadigan bo'lib qoladi.

G-306, G-309 xildagi generatorlarning sozligini dastlab, ishlaydigan dizelda kuchlanishi 12 V bo'lgan nazorat lampasi yordamida tekshirish mumkin. Dastlab uyg'otish chulg'amining

holati tekshiriladi, buning uchun barcha simlar generatordan uziladi va traktorning «massasi» ga ulanadi. Nazorat lampasining bir simi generatordan uzilgan simning uchi (yoki akkumulyator batareyasining «plyus») ga ulanadi, ikkinchi sim esa generatorning Sh chiqishiga tekkiziladi. Lampaning yarim cho'g'lanib yonishi, uyg'otish chulg'amida shikastlanish yoki nosozlik yo'qligini ko'rsatadi. Lampaning yorqin yonishi generator korpusidagi chulg'amlarda tutashuv borligini ko'rsatadi.

To'g'rilaqich va generator statorining chulg'amlari muayyan ketma-ketlikda o'tkaziladi. buning uchun nazorat lampasi generatorning chiqishi va undan uzilgan sim o'rtasiga ulanadi. Unda lampa yonmasligi lozim. Lampaning yonishi bir yoki bir necha diodlarda qisqa tutashuv borligini yoki issiqlikni chiqargich va to'g'rilaqich korpusi o'rtasidagi izolyatsiyaning teshilganidan darak beradi. Agar nazorat lampasi yonmasa, uni o'chirmasdan generator (G-360 generator) o'zgaruvchan tokining biror chiqishini «massasi» ga ulanadi. Bunda lampa yonmasligi lozim. Lampaning yonishi to'g'ri qutblilikda bir yoki bir necha diodlarning teshilganligini ko'rsatadi.

Teskari qutblilikdagi diodlarni tekshirish uchun nazorat lampasi generator chiqishidan uzilgan va o'zgaruvchan tokning chiqishlaridan birining simiga ulanadi. Yuqorida ko'rsatilgandek tokning qarama-qarshi yo'nalishda oqishi ta'minlanadi. Lampa yonmasligi kerak. Lampaning yonishi teskari qutblilik diodlarining teshilganligi (qisqa tutashuv) ni stator korpusi yoki chulg'amlarda qisqa tutashuv mavjudligini ko'rsatadi.

Undan so'ng 12 V kuchlanishli nazorat lampasida to'g'rilaqichni issiqlikni chiqarib yuboruvchi korpusining izolyatsiyasining holati va generatorning to'g'ri va teskari qutblidi diodlari tekshiriladi. Nazorat lampasining mansiy shchupi to'g'rilaqichning musbat chiqishiga ulanganda lampa yonsa, musbat shchupini navbatma-navbat to'g'rilaqichning fazalari chiqishlariga ulanganda lampa yonmasa, to'g'ri qutbga ega bo'lgan diodlar soz hisoblanadi.

Generatorda yuqorida ko'rsatilgan nosozliklardan istalgan sodir bo'lsa, u holda generator ta'mirlanadi.


13.3701 va 15.3701 generatorlari uyg'otish g'altagining holati nazorat lampalari yordamida tekshiriladi. Buning uchun kuchlanish integral rostlovchisi (KIR) ning qopqog'i olinadi va B va Sh klemmalardan chiquvchi simlar uziladi. Nazorat lampasi akkumulyatorning musbat qutbidan generatorning B klemmasiga ulanadi. Lampaning yonishi issiqlik chiqaruvchi va to'g'rilagich korpusi orasidagi izolyatsiyaning teshilganligini, to'g'ri va teskari qutblik ventillarning birortasida teshilish borligini, uyg'otish g'altagida qisqa tutashuv borligini ko'rsatadi. Buni regulyatorning Sh klemmasidan uzilgan nazorat lampasining yonishi ham ko'rsatadi.

Generatorning texnik holati ko'rsatkichlarini qo'lda olib yuriladigan KI-1093 GOSNTI (voltampermestr) da tekshiriladi, u to'g'ridan-to'g'ri traktordan olmasdan agregatlariga ulanadi.

G-306 o'zgaruvchan tok generatorini yarimo'tkazgichli to'g'rilagich bilan tekshirish uchun uyg'otish chulg'ami tomonidan iste'mol qilinadigan tok va yuklamaning nominal tokida uzatish kuchlanish aniqlanadi. Uyg'otish tokini tekshirish uchun voltampermestr quyidagi sxema bo'yicha ulanadi (6.1-rasm). Dizel yurgizilmasdan traktoring «massasi» ulanadi va ampermestr bo'yicha uyg'otish chulg'ami tomonidan iste'mol qilinadigan tokning qiymati aniqlanadi, u 3 A dan katta bo'lmasligi lozim. Berish kuchlanishini aniqlash uchun generatorning «plyus» klemmasi uziladi va izolyatsiyalanadi. Voltampermetrning chiqish klemmalari generatorga sxemada ko'rsatilgandek ulanadi. Traktoring «massasi» ulanadi, dizel yurgiziladi va «massa» uziladi. Generatorga yuklamani voltampermetrning reostati bilan hosil qilinadi. Aylanishlar chastotasi ohista oshirib boriladi, bir paytning o'zida yuklash reostatining dastasi o'ngga suriladi. Dizel tirsakli valning maksimal aylanishlar chastotasida, generatorga 23.5 A yuklama hosil qilinadi (kuchlanish 14 V dan kichik bo'lmasligi lozim). Agar generator kuchlanish bermasa, u ta'mirlanadi.

Kuchlanishning integral rostlovchisi (KIR) ga ega bo'lgan 13.3701, 15.3701 generatorlarda voltampermestr bilan B klemmasidagi kuchlanish o'lehanadi. Agar barcha elektr energiyasi iste'molechilar ulanganda, kuchlanish 15 V dan yuqoriq bo'lsa, KIR almashtiriladi. Agar akkumulyator batareyasi uzilganda


(«massa» uzilganda) kuchlanish keskin pasaysa, generator mosoz hisoblanadi, uni ta'mirlash talab qilinadi. Normal kuchlanish 13,2-15,0 V bo'lishi lozim.



6.1-rasm.
Generatorni tekshirishda voltampermetrni ularash sxemasi

306, 309 generatorlarni bo'laklarga ajratish qopqoqlarni va shkivni ajratishdan boshlanadi. Tortib turuvchi boltlarning gaykalari bo'shatiladi (6.2-rasmiga qarang) va panel 8 klemmalari bo'shatilib, orqa qopqoq olinadi. Undan so'ng kaftga yog'och bolg'a bilan urib, oldingi qopqoq 7 olinadi.


Uyg'otish g'altagi o'rnatilgan korpusdagi podshipnik presslab chiqarilayotganda, g'altak flanesiga po'lat halqa qotirib qo'yiladi. Podshipnikni chiqarib olish uchun, ajratgichning kaftlarini halqaga ilashtiriladi. Halqani qotirish boltlari shunday uzunlikka ega bo'lishi kerakki, ular uyg'otish g'altagini shikastlamasin. Detallarning texnik ekspertizasi o'tkaziladi. Generator statoring fazali g'altakkari izolyatsiyasi o'zgaruvchan 220 V tokdagi holati 5 s davomida tekshiriladi, buning uchun signal lampasidan foydalilaniladi. Bunda to'g'rilagich chulg'amdan uzilgan bo'lishi lozim (o'zgaruvchan tokning klemmalik panelini bo'laklarga ajratish). Lampa yonsa (izolyatsiya teshilgan bo'lsa), stator almashtiriladi.



6.2-rasm. G 285 o'zgaruvchan tok generatori; 1-kontakt halqasi;
2-tok olivchi; 3-rotor; 4-uyg'otish g'altagi; 5-stator; 6-stator
chulg'ami; 7-oldingi qopqoq

So'ng statorning g'altaklaridagi chulg'amning tarmoqlararo tutashuvi tekshiriladi. Bu nosozlik generator yuklamasining pasayishiga olib keladi. Bunda generator biroz kuchlanish hosil qilishi mumkin, biroq birorta iste'molechi ulansa, kuchlanish keskin pasayadi va nolga yaqinlashadi. Tarmoqlararo tutashuvda tarmoqlarning qarshiligi pasayadi va ular orqali o'tuvechi tok sezilarli darajada ortadi. Tarmoqlarning izolyatsiyasi buzilishi yoki butunlay yonib ketishi mumkin. Stator chulg'amlari tarmoqlararo tutashuvi PDO-1 (KI-969) defektoskopi yordamida o'lehanadi, u shunday ornatalishi kerakki, statorning serdechnigi tishlari oralig'idagi ariqcha defektoskop serdechniklarining havo tirkishida joylashsin. Agar generator statorida qisqa tutashuvli tarmoqlar bo'lsa, defektoskopning lampasi yonadi. Shunday nosozlikni statorning faza

chulg'amlari qarshiligidini o'lchab ham aniqlash mumkin. Qaysi chulg'amda qarshilik kam bo'lsa, unda tarmoqlararo tutashuv borligini ko'rsatadi. Uyg'otish chulg'amning izolyatsiyasi holati nazorat qilinib, so'ng uning qarshiliqi o'lchanadi. Agar chulg'am simining izolyatsiyasi kuygan bo'lsa yoki chulg'amning qarshiliqi $3,6 \pm 0,15$ Ω ga farq qilsa, u almashtiriladi.



6.3-rasm. G-306 o'zgaruvchan tok generatori: 1-kontakt halqasi; 2-tok oluvchi; 3-rotor; 4-uyg'otish g'altagi; 5-stator; 6-stator chulg'ami; 7-oldingi qopqoq; 8-klemma paneli; 9-orqa qopqoq

To'g'rilaqichning issiqlikni chiqarib yuboruvchi korpusi izolyatsiyasining holati va diodlarning sozligi tekshiriladi, agar nazorat lampasining manfiy shchupini to'g'rilaqichning musbat

chiqishiga, imusbat shchupni navbatma-navbat to'g'rilaqich fazalarining chiqishiga ulanganda lampa yonadi, qutblilik o'zgarsa yonmaydi, unda to'g'ri qutblik diodlari soz hisoblanadi. Teskari qutblik diodlari ham shu tartibda tekshiriladi, biroq bunda shchuplar to'g'rilaqich korpusiga va uning fazalari chiqishiga ulanadi.

Agar rotor valining o'q bo'yicha siljishi 0,2 mm dan ortiq bo'lса, podshipniklar almashtiriladi. Generator yig'ilgandan so'ng o'q bo'yicha siljish 0,15-0,2 mm chegarasida bo'lishi kerak va rotor qo'lda stator g'altagiga tegmasdan aylanishi lozim.

Kuchlanishning integral rostlovchisi (KIR) bo'lgan generatorlarni bo'laklarga ajratishda dastlab qopqoq 10 (6.3-rasmga qarang) va to'g'rilaqich qopqog'i olinadi. Statorning chulg'amlari chiqishini fazani yig'uvehi boltlardan chiqarib olinadi va uyg'otish g'altagi chiqishlari to'g'rilaqich blokidan uziladi. Undan so'ng to'g'rilaqich ajratib olinadi va ajratgich yordamida qanotli shkv tortib chiqariladi. Oldingi qopqoqdan uyg'otish g'altagi uziladi. Stator chulg'aming butunligi nazorat lampasi yordamida tekshiriladi, uyg'otish g'altagi yuqorida keltirilgandek chiqarib olinadi. Undan so'ng to'g'rilaqichning sozligi nazorat lampasi yordamida tekshiriladi. Buning uchun akkumulyator batareyasining «minus» klemmasi generatoring korpusiga, «plus» klemmasi esa nazorat lampasi orqali to'g'rilaqichning qutb chiqishiga ulanadi.

Lampa yonnasligi lozim. Lampaning yonishi to'g'rilaqich korpusi orasidagi izolyatsiya teshilganligini ko'rsatadi yoki to'g'ri yoki teskari qutblik diodlardan birortasining buralganligini ko'rsatadi.

Generatorlarni sinash K1-968 GOSNII yoki 532-M nazorat-sinash stendlarida amalga oshiriladi. Dastlab generator rotorining boshlang'ich (minimal) aylanishlar chastotasi nazorat qilinadi, bunda u yuklamasiz nominal kuchlanishni hosil qiladi. Uyg'otish chulg'ami akkumulyator batareyasidan oziqlanadi. Generator rotorining aylanishlar chastotasi sekin-asta shu darajagacha ko'tariladiki. Stendning voltmetri bo'yicha kuchlanishi 6.1-jadvalning ma'lumotlariga to'g'ri kelsin. Stendning taxometri bo'yicha generator rotorining minimal aylanishlar chastotasi aniqlanadi, uning qiymati 6.1-jadvalda ko'rsatilgan ruxsat etilgan qiymatlardan katta bo'lmasligi lozim.

6.1-jadval

Generatorlarning asosiy ko'rsatkichlari

Generator	Yuklamasiz		Yuklama bilan		
	Aylanishlar chastotasi, min ⁻¹	Kuchla -nish, V	Aylanishlar chastotasi, min ⁻¹	Yuk- lama, A	Kuchla -nish, V
G-306					13,2- 14,0
13.3701	1500	14,0	3600±100	23,5	
G-309					13,2- 14,0
15.3701	1200	14,0	4500±500	70	
G-285 to'g'rila- gich bilan komple- ktida					12,5- 13,0
	1400	12,5	3200±120	80±5	

G-285 generatorlarida rotoring nominal aylanishlar chastotasida fazalardagi o'zgaruvchan tokning kuchlanishi tekshiriladi. Fazalardagi o'zgaruvchan tok kuchlanish yuklama toki 40A bo'lganda 17-18,5 V bo'lishi lozim. Bundan tashqari fazalar o'rtaсидаги kuchlanish farqi ham tekshiriladi, u 0,5 V dan katta bo'lmasligi lozim.

Selenli to'g'rilaгichni tekshirish to'g'rilanadigan tok zanjiridagi qarshilikni aniqlashdan iborat. Buning uchun simlar to'g'rilaгich qisqichlaridan uziladi va to'g'ri yo'nalishdagi qarshilik tekshiriladi. Uning qiymati nolga yaqin, teskari yo'nalishda esa 1 kOm dan kattaroq bo'lishi lozim. To'g'rilaгichning selen shaybalarida teshilishi ko'п hollarda generatoring kuchlanishi oshganda va to'g'rilaгichni massa bilan hosil qilgan kontaktning «minus» qisqichi buzilishi hamda shaybalarning mexanik shikastlanishi natijasida ham sodir bo'lishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan to'g'rilaгich eskiradi, buning natijasida to'g'rilaangan tok

zanjirida qarshilik ortadi. Bu nosozlik to'g'ri tok o'tganda to'g'rilaqichdag'i kuchlanishning pasayishini ko'paytiradi hamda teskari tokning ortishiga va akkumulyator batareyasining zaryadsizlanishiga olib keladi.

6.2. Rele-regulyatorni ta'mirlash

Rele-regulyator akkumulyator batariyalarini normal zaryadlash rejimini ushlab turish va iste'molchilarining normal ishlashini ta'minlash uchun xizmat qiladi.


O'zgaruvchan tok traktor generatorlari kontakt-tranzistorli rele-regulyator bilan birgalikda ishlaydi, u vibratsion bir bosqichli kuchlanish regulyatoridan, tranzistorlardagi kuchaytirgichlardan va himoya relesidan iborat.

Yig'ilgan rele-regulyatorning nosozliklari traktorda tekshiriladi. Dizel yurgizilib sim bo'lakehasi bilan rele-regulyatorning Sh va B klemma siqqichlari ulanadi. Ampermetr bilan ko'rsatiladigan zaryad toki keskin oshganda siqqichlarda uchqunlanish bo'lmasa, nosozlik generatordan qidiriladi. Agar siqqichlarda kuchli yoy sodir bo'lib, sim bo'lakehasi tez qizisa, uyg'otish chulg'ami zanjirida «massaga» tutashuv borligini ko'rsatadi. Agar ampermetr zaryad tokining keskin ko'tarilishini ko'rsatsa, unda rele-regulyator nosoz; unda himoya relesi ishlab ketadi. Ushbu nosozlikni himoya relesining prujinasi tarangligini oshirib, bartaraf etiladi.

Zaryad tokining yo'qligi yoki uning qiymatining pastligi, kuchlanish akkumulyator batareyasidan pastligi, u kuchlanish regulyatorining sozlanganlik darajasini ko'rsatadi. Ushbu nosozlik oson aniqlanadi, buning uchun rele-regulyatorning qopqog'i olinib, kuchlanish regulyatorining prujinasi qisqa muddatga tortilishi kerak.

Rele-regulyatorni tekshirish uchun uni KI-1093 ning voltampermetriga ulanadi (6.4 a- rasm). Rele-regulyatordagi umumiyl yuklama akkumulyatorlarning batareyalari yuklamasi va voltampermetr reostati bilan hosil qilinadigan yuklamalarning yig'indisidan iborat. Rele-regulyatorni tekshirishdan avval uning mavsumiy rostlash qayta ulagichining holatiga ishonech hosil qilish kerak, u «aero» holatiga buralgan bo'lishi kerak. Agar dizel ishlamagan bo'lsa, u yurgizilib, 8-10 minut davomida generatorni

isitish uchun ishlataladi, traktor «massa» sini uzmasdan 6,2-jadvalning ma'lumotlariga asoslanib reostatning dastasi bilan yuklama o'rnatiladi. Kuchlanishning qiymati 13,3-14,0 V atrofida bo'lishi lozim. Agar u ushibu chegaraga yetmasa, unda rele-regulyator qopqog'i olingan holda rostlanadi. Shu narsaga ahamiyat berish kerakki, kuchlanish regulyatori korpusi va prujinalar rele-regulyatorning korpusiga nisbatan kuchlanish ostida bo'lishi, hatto ularning o'rtaida qisqa muddatli tutashuv sodir bo'lganda ham rele-regulyator ishdan chiqadi.



6.4-rasm. Rele-regulyator tekshirilganda voltampermetri ni ularshi xesmasi: a - kuchlanish regulyatorini tekshirish; b - ko'p o'ramli himoya relesini tekshirish; c - bir o'ramli himoya relesini tekshirish

Rele-regulyatordagi kuchlanish izolyatsiyalangan sterjenli vilkali ochgich yordamida prujinaning tarangligi o'zgartirib rostlanadi. Agar bunday rostlash ham talab etilgan kuchlanish rejimini bermasa, yakor va serdechnik o'rtaсидаги тирқиш ростланади, тирқишининг қиymati kontaktlar tutashganda 1,2-1,3 mm bo'lishi lozim.

Kuchlanish regulyator kontaktlari orasidagi tirkish 0,2-0,3 mm bo'lishi kerak. Uni o'zgartirish yakorchaning va serdechnik yo'lining chegaralovchisini egish, kontakt ushlab turgichlarni siljitim bilan o'zgartiriladi.

Agar prujinaning tarangligi o'zgartirilganda rostlanadigan kuchlanish o'zgarsa, unda rele-regulyator ta'mirlanadi.

Bir paytning o'zida RR-385 rele-regulyatorining himoya relesini ishlab ketish sharoiti ham tekshiriladi. Bunda KI-1093 asbobi 6.4 b- rasmidagi ko'rsatilgan sxema bo'yicha ularadi. Reostat yordamida uyg'otish chulg'amidagi tok silliq oshirib boriladi, uni asbobning ampermetri bilan o'lehab boriladi. Himoya relesining ishlab ketishi tashqi nazorat bilan aniqlanadi, bunda ovoz chiqishi bilan sodir bo'ladicidan kontaktlarning tutashuvi bo'yicha aniqlanadi. Himoya relesining ishlab ketish toki 20°C da 4,0-4,5 A atrofida bo'lishi lozim. RR-362 bir o'ramli rele-regulyatorning himoya relesi B va Sh siqqichlarga 6,5-6,7 V atrofida kuchlanish berilganda ishlab ketadi (6.4 d- rasm).

6.2-jadval

Rele-regulyatorlarning asosiy ko'rsatkichlari

Generator	Rele-regulyator	Nominal aylanishlar chastotasi, min ⁻¹	Nominal yuklama, A	Kuchlanish, V yozda	Kuchlanish, V qishda
G-306	RR-362B	2600 ⁺⁵⁰	13 - 15	13,2-	14,0-
				14,0	15,2
G-309	RR-385	3600 ⁺¹⁰⁰	10	13,2-	14,0-
				14,0	15,2
G-285	RR-385	4100	40	13,4-	14,4-
				14,4	15,2

Agar ishlab ketish toki yoki kuchlanishi ko'rsatilgan chegaralardan ortib ketsa, himoya relesi kuchlanish regulyatori kabi (prujinaning tarangligini o'zgartirish bilan) rostlanadi.

Generator va rele-regulyator normal ishlaganda dizel yurgizib yuborilgandan so'ng dastlab ampermetrning strelkasi zaryad tokini ko'rsatadi, biroz vaqt o'tgandan so'ng nof holatiga qaytadi. Biroq RR-362, RR-385 kontakt-tranzistorli rele-rostlagichlardan foydalanish jarayonida ularning rostlanganligi buziladi. Ayrim hollarda ularning ishining buzilishi kuchlanish regulyatori kontaktlarining ifloslanishi bilan bog'langan. Bu holda

kontaktlarning tutashish paytida tranzistor yopilmasdan qoladi va generatorning uyg'otish chulg'amidan doimo katta tok yuradi, bu esa elektr tarmog'idagi kuchlanishning keskin oshishiga olib keladi. Zaryad toki haddan tashqari katta bo'lib, uning qiymati to'liq zaryadlangan akkumulyatornikiga nisbatan ham yuqori bo'ladi, bu esa elektrolitning qaynashiga olib keladi. Shuning uchun ham vaqtiga bilan kuchlanish regulyatori relesining holati nazorat qilib boriladi va ularni iflosliklardan va oksidlardan tozalab turiladi. Kontaktlar orqali uncha katta bo'limgan tok o'tganligi sababli ularni tozalashda nadfillardan, shisha charmlardan va boshqalardan foydalanish tavsiya etilmaydi. Kontaktlarni tozalash uchun odatda benzinda yoki spirtda ho'llangan kapron tasmasidan foydalaniladi. Agar kontaktlar tozalangandan so'ng kuchlanish rostlanmasa va katta qiymatli bo'lsa, ishlamayotgan dizelda va batareya ulangan holda («massa» ulangan holda bo'ladi) tranzistorning sozligi tekshiriladi. Rele-regulyatorning qopqog'i olinib, 12 V li lampa rele-regulyatorning Sh qisgichi va regulyator korpusi orqali ulanadi. Kuchlanish regulyatorining yakori va himoya relesi navbatma-navbat bosilib, ularning kontaktlari tutashtiriladi. Tranzistor soz bo'lsa, unda lampa o'chadi. Agar kontaktlar tutashtirilganda lampa o'chmasa, u tranzistorning teshilganligini ko'rsatadi. Regulyator esa ta'mirlanadi.

Traktorning elektr tarmoqlarida kuchlanishning katta bo'lishi kuchlanish regulyatorining chulg'amlarida uzilish borligini ko'rsatadi.

Bo'laklarga ajratishdan avval tele-regulyator yaxshilab changdan, iflosliklardan tozalanadi va siqilgan havo purkaladi. Detallarni nazorat qilish, asboblar yordamida tekshirish natijalari bo'yicha rele-regulyatorni bo'laklarga ajratishga ehtiyoji aniqlanadi. Birinchi navbatda 1-127 tranzistorining holati tekshiriladi, buning uchun ularning chiqish uchlaridan simlarni kavshardan ajratib olinadi. Agar testor yoki ommetr bilan o'lehanganda uning istalgan uchlari orasidagi qarshilik noldan katta bo'lib, 500 kOm dan oshmasa, tranzistor soz, agar qarshilik nolga teng yoki cheksiz bo'lsa, u nosoz hisoblanadi.

Ommetr yordamida D242 va D202 diodlarining holati tekshiriladi, buning uchun ularni sxemadan kavsharlarni bo'shatib

ajratib olinadi. Agar asbob diodlarga to'g'ri yo'nalishda ulanganda qarshilik 100-200 kOm bo'llib, teskari yo'nalishda esa 100 kOm atrofida bo'lса, diodlar soz hisoblanadi.

O'chuvchi diodning sozligini, unga ketma-ket ulangan qarshilikning holati bo'yicha tasavvur qilish mumkin. Diod teshilgan bo'lса, qarshilik kuyadi, yoki uning serdechnigi egiladi. Ajratgich diodning sozligi himoya relesining ishlab ketishi bo'yicha tekshiriladi. Diod nosoz bo'lса va kuchlanish regulyatori kontaktlari tutashib qolsa, himoya relesi o'z-o'zidan ishlab ketadi.

Himoya relesi g'altaklari chulg'amlarining sozligi, ularning qarshiligi o'lehab aniqlanadi, buning uchun dastlab chulg'amming boshlanishidan dioidlarning uchlari kavshardan ajratiladi. Kuchlanish regulyatori chulg'amlarining va bir o'ramli himoya relesining qarshiligi 16,1-17,9 Om bo'lishi kerak.

Kontakt-tranzistorli rele-regulyatorlar ta'mirlangandan so'ng va traktorlarning elektr sxemasida birga ishlagan generatorlar komplektida sinaladi va yakuniy rostlanadi.

Sinashdan avval kuchlanish regulyatori va himoya relesining kontaktlari toza spirtda ho'llangan kapron tasmada qurigunga qadar artiladi. G'altak serdechnigi va yakori orasidagi tirqish shchup bilan aniqlanadi va zaruriyat bo'lса rostlanadi. Mavsumiy rostlashni qayta ulagich «nero» holatiga o'rnatiladi, rele-regulyatorning o'zi esa traktordagi mos holatiga o'rnatiladi.

Ishlamayotgan generatorda kuchlanish rele-regulyatorga stendning akkumulyator batareyasidan uzatiladi. Bunda stendning ampermetri 2,7-3,0 A razryad tokini ko'rsatishi lozim, u generatorning uyg'otish chulg'ami orqali o'tadi. Kuchlanish regulyatori kontaktlarini yakorga bosish bilan tutashtirilib, ampermetrning ko'rsatishi kuzatiladi. Bunda tok kuchi keskin kamayishi lozim, yakor qo'yib yuborilgandan so'ng esa dastlabki qiymatni egallashi kerak. Agar tokning qiymati o'zgarmasa, tranzistor soz hisoblanadi. Soz tranzistorda stend yurgiziladi va bir paytning o'zida yuklama reostati bilan sxemada 6.2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib nominal yuklama hosil qilinadi.

Stendning voltmetri bo'yicha aniqlanadigan kuchlanish 6.2-jadval ma'lumotlariga mos kelishi lozim. Rostlanadigan

kuchlanishni oshirish uchun prujinaning tarangligi oshiriladi, pasaytirish uchun esa susaytiriladi.

Rele-regulyatorlarning himoya relesini ishlab ketishini tekshirish uchun Sh siqqich stendning «massasi» ga, B siqqich esa Sh ning chiqishiga ulanadi. Rele-regulyatorning Sh va B siqqichlari voltmetrning chiqishlariga ulanadi. Rostlovchi reostat yordamida (KI-968 stendning chap panelida joylashgan) kuchlanish 7-8 V gacha ko'tariladi. Himoya relesining ishlab ketishi tashqi nazorat bilan aniqlanadi. Releni rostlash prujinasining tarangligini o'zgartirish hisobiga amalga oshiriladi.


Kuchlanishning integral regulyatori (KIR) Ya112B profilaktika ishlarini o'tkazishni talab qilmaydi. Integral regulyatorli 15.3701 generator sinalganda stendda yuklama 40 A lik reostat bilan 4500 min⁻¹ yakorning aylanishlar chastotasida hosil qilinadi, bunda generatordagi kuchlanish voltmetr bo'yicha o'lchanadi. Uning qiymatlari 15 V dan ortiqroqni tashkil qildi.

6.3. Startyorlarni ta'mirlash

Startyor to'rt qutbli ketma-ket uyg'onadigan o'zgarmas tok elektr dvigateli hisoblanadi. Startyor tomonidan iste'mol qilinadigan tok akkumulyator batareyasining, elektr zanjirining qarshiligiga va yakorning aylanishlar chastotasiga bog'liq. Masalan, «Кировец» traktorining startyori ST-103 24 V (6.5, a-rasm) nominal kuchlanishda va 1200 min⁻¹ valning aylanishlar chastotasida 7 kW quvvat hosil qiladi. Yakor va stator chulg'amining o'tkazgichlarining katta kesimga va nisbatan kichik uzunlikka ega bo'llishi natijasida startyor juda kichik qarshilikka ega. Shuning uchun ham uni ularash paytida hamda yakorning to'liq tormozlanishida, yurgizib yuborish toki katta qiymatlarga yetadi (1200-1500 A gacha), bu esa o'z navbatida dizelning tirsakli vali aylantirilishini osonlashtiradi, yakorning salt yurish toki 90-110 A gacha pasayadi. Startyorlar prinsiplari bo'yicha yakka sxemaga ega, uni uch qismga bo'llish mumkin: elektrodvigatel, elektromagnit rele va ildiruvchi mexanizm.

Startyorlar bir-birlaridan oziqlanish kuchlanishi, salt yurishda va to'liq tormozlash rejimidagi iste'mol qiladigan toki,

quvvati, gabarit o'chamlari, massasi va konstruktiv xususiyatlari bo'yicha farq qiladi.



6.5-rasm. a - ST-103 startyori; b - ST-352D startyori; 1 - shchyotka; 2 - kontakt bolti; 3 - kontakt disk; 4 - elektromagnit relesi; 5 - ildirgich mehanizm; 6 - stator chulg'ami; 7 - rotor; 8 - stator boshmog'i; 9 - kollektor

Masalan, ST-352D startyori yoki o'zaro almashuvechan bo'lgan ST-352B startyori YuMZ-61, va T-150K traktorlarining yurgizib yuboruvchi dvigatellariga o'matiladi. Biroq ST-326B startyori ST-352D startyordan quvvati va yonaki kollektori mavjudligi bilan farq qiladi. ST-103 startyori boshqa startyorlardan shesternyalari o'z-o'zidan ajraladigan prujinali ilish mexanizmining tuzilishi bilan farq qiladi.

Gildirakli traktorlarga o'matiladigan startyorlarning xarakteristikasi 6.3-jadvalda keltirilgan.

Startyorning nosozliklari. Dizel tirsaklı valining sekin aylanishi, akkumulyator batareyalarining zaryadsizlanishi, batareya kabellarining siqqichlari yoki keltiruvchi simlar uchliklarining oksidlanishi natijasi hisoblanadi.

Batareya siqqichlari oksidlanguanda, uning sirtida oq rangdagi qo'rg'oshin oksidi hosil bo'ladi, u tok o'tkazmaydi, kuchlanishning pasayishi sodir bo'ladi, bu startyorni ishlash sharoitiga va dizelni yurgizib yuborishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Stator yoki yakorning chulg'amlarida tarmoqlaroaro tutashuv bo'lsa, kollektor va shchyotkalarining illoslanishi yoki moylanib qolishi startyorning ishiga va quvvatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Startyorning elektromagnit relesini val aylanmasdan davriy ravishda ulanishi va uzilishi startyorga beriladigan kuchlashning yetarli emasligini ko'rsatadi. Agar startyor ishlab, dizelning vali aylanmasa, bu ildirish mexanizmining nosozligini (o'zish muftasi roliklarining shataksirashini) ko'rsatadi.

Startyor ulanganda uning g'ijillashi ildirish mexanizmi va elektromagnit relesi rostlangantligining buzilganligini ko'rsatadi.

Ushbu holda startyor yakorining aylana boshlashi ildirish mexanizmi shesternyasi dizelning maxovigi gardishi bilan ilashmaga kirishdan vaqtliroq sodir bo'ladi.

Startyor yakori aylanmasdan ildirish mexanizmining elektromagnit relesining ishlab ketishi relening kontaktlari kuyganligini ko'rsatadi.

Agar kontaktlar kuygan bo'lsa (bu nuqson relening ko'proq tarqalgan nuqsoni hisoblanadi), tok startyorning chulg'amiga kelmaydi yoki kelsa ham uning qiymati juda kichik bo'ladi.

Bu nosozlikni bartaraf etish uchun rele 4 ning (6.5 b- rasmga qarang) qopqog'i olinadi, kontakt boltlari 2 bo'shatiladi va kontakt disk'i 3 chiqarib olinadi. Uning kontakt boltlariga nisbatan boshqa tomoni bilan o'rnatiladi, kontakt disk'i 180° buriladi, yoki metallning kuygan izlari ketgunga qadar egov bilan tozalanadi. Dizelning tirsakli vali aylantirilganda startyorda begona shovqin yoki g'ijillashi eshitilib tekshiriladi.

Ushbu belgi yakorning sirpanish podshipniklarining vtulkalarining yeyilganligi yoki yakor valining egilishi natijasida startoring boshmoqlariga tegishini ko'rsatadi.

Dizel yurgizilgandan so'ng startyording ajralmasligi RS502(RS%23) yurgizish relesi kontaktlarini yoki ildirish mexanizmining elektromagnit relesining kontaktlari kuyganligidan darak beradi.

Startyorlarni traktordan ajratmasdan KI-1093 olib yuriluvchi voltmetr yordamida tekshiriladi. Buning uchun uni 6.7-rasmda ko'rsatilgandek ularash lozim. Startyording akkumulyator batareyasini «plyusi» bilan tekshirish uchun startyorga boruvchi sim chiqarib olinadi, batareyani plyus chiqishiga voltampermestr komplektiga kiruvchi olinadigan shunt Sh kiygizilib, u asbobga ulanadi.


Traktor yuqori uzatmaga ulanadi («Кировец» traktorlaridan tashqari) va u puxta tormozlanadi. Yonilg'ini uzatish to'xtatilganiga ishonch bosil qilib, startyor 5-10 s yurgiziladi, voltmetr va ampermetrning ko'rsatishi kuzatiladi. Ularning qiymatlari 6.3-jadval ma'lumotlari bilan solishtiriladi. Tekshirishda kuchlanishning qiymatlari past bo'lsa, akkumulyator batareyasining zaryadsizlanganligini yoki uning nosozligini ko'rsatadi. Startyor tomonidan iste'mol qilinadigan tokning kamligi, uning tashqi zanjiridan o'tuvchi qarshiliklarning (elektromagnit rele kontaktlar guruhi, chiqish klemmalari) ko'pligi to'g'risida ma'lumot beradi.

Startyor tomonidan iste'mol qilinadigan tokning kattaligi yakor yoki startyor chulg'amlarining tarmoqlararo tutashuvi borligini ko'rsatadi, yakor vali podshipniklarida moyning bo'lmasligi yoki uning quyuqlashib qolishi va b.


Agar tekshirilganda yakor aylansa, bu ildirish mexanizmida nosozlik borligini ko'rsatadi. Startyorda barcha hollarda nosozlik aniqlansa, uni ta'mirlasa bo'ladi.

Startyorlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Ko'rsatkich	Traktor			Traktorlarning yurgizib yuborish dvigatellari	
		«Кировец»	MTZ-80, YuMZ-6, T-40	T-25, T-16M	T- 150K, YuMZ- 6L	MTZ- 80L
S1-103	ST-212	ST-222	ST- 352D	ST- 362B		
Salt yurish rejimi:						
Yakorning aylanish chastotasidan kichik emas, min ¹	5500	5000	5000	5000	5000	
Iste'mol qilinadigan tokdan katta emas, A	110	120	120	50	65	
Kuchlanish, V	24	11,5	11	12	12	
Fo'liq tormozlash rejimi:						
Iste'mol qilinadigan tokdan katta emas, A	800-1000	1450	950	250	250	
Kuchlanishdan kam emas, V	7,0	7,0	9,0	8,5	9,0	
Maksimal tormozlovlchi moment, N·m	60	60	40	5	5	
Quvvat, kVt	7,0	3,5	2,0	1,8	2,1	



6.6-rasm. Blokirovka relesini tekshirishda voltampermetrni ildash sxemasi: 1-blokirovka relesi; 2-akkumulyator batareyasi; 3-voltampermetr



6.7-rasm. Startyorni tekshirishda voltampermetrni ildash sxemasi: 1-startyor; 2-akkumulyator batareyasi

«Кировец» тракторларининг ST-103 стартори дизельning тирсакливалини то'лиқ тормозлаш режимида сингандага максус мослама-пластина юрдамида stopорланади. Яйилган деталларни алмастирish маqsадида стартор техник экспертиза учун бо'лакларга ажратилиди. Дастлаб ташкин назорат билан электромагнит реlesining чиқиш сиққичларини, kontakt disk sirtlarining ishechi sirtlarini, rele va kollektor shchyotkalarining kontakt boltlarini, yuritma shesternyalarining holati aniqlanadi. Kontakt diskining va boltlarning ishechi sirtlari egov bilan tozalanadi, undan so'ng abrazivli charm bilan shlisovkalanadi. Shchyotkani shchyotka tutgichda qo'zg'aluvchanligi tekshiriladi va ularning balandligi o'lichevadidi. Shchyotkalarining balandligi 10 mm dan kam bo'lmasligi lozim.

Shchyotkalar shchyotka tutgichda, prujinalarning siquvchi uchlari shchyotkaning o'rtaida erkin qo'zg'aliishi lozim.

Yakor tokarlik dastgohining markaziga o'rnatilib serdechnikning tepishi tekshiriladi. Uning qiymati 6.4-jadvalda ko'rsatilgan qiymatlardan katta bo'lmasligi lozim. Yakor kollektori sirtida yeyilish izlari bo'lganda, uni UKB-R-105 yoki tokarlik dastgohida yo'nildi. Yo'nigandan so'ng esa kollektorning lamellari orasidagi izolyatsiya 0,5-0,8 mm ga (chuqurlashtiriladi) frezerlanadi. Kollektorning yo'nigandan keyingi minimal diametri 6.4-jadvalda keltirilgan ruxsat etilgan qiymatlardan kichik bo'lmasligi lozim.

ST-362 startyori uchun chetki kollektorning qalinligi 2,5 mm dan kichik bo'lmasligi lozim.

Shesternya tishlarining chetlaridagi o'yiqchalari (2 mm dan ortiq bo'lsa) egovda tozalanadi.

6.4-jadval

Startyor detallarining asosiy o'chamlari

Ko'rsatkich	Startyor			
	ST-103	ST-212	ST-352 ST-362	ST-222
Yakor kollektoring ruxsat etilgan (minimal) diametri, mm	57,6	53,7	30,0	44,7
Vkladish o'tiradigan val sirtining diametri, mm:				
Oldingi qopqoqniki	19,0	13,9	9,94	12,4
Orqa qopqoqniki	18,1	13,9	9,94	13,9
Oraliq diskniki	28,1	20,85	-	18,9
Vkladish teshiklarining diametri, mm:				
Oldingi qopqoqniki	19,65	14,1	10,2	12,6
Orqa qopqoqniki	18,15	14,1	10,2	14,1
Oraliq diskniki	28,60	21,5	-	19,3
Yakor serdechnigining radial tepishi, mm	0,2	0,17	0,11	0,17

Agar startyor traktorda sinalganda, yuritma shesternyasi sirpansa, ildirish mexanizmi yig'ilganda, ilashtirish mexanizmi yig'ilgan holda almashtiriladi. Startyorning chulg'amlarida tarmoqlararo tutashuv bo'lsa, u olib yuriladigan KI-959 defektoskopi bilan tekshiriladi. Startyorning chulg'ami «Kopniye» ga tutashuviga 220V lik

nazorat lampasi yordamida tekshiriladi. Yakor chulg'aming tarmoqlararo tutashuvi yoki «Kopnyc» ga tutashuvi, chulg'amning uzilishi E-202 (PPYa-533) asbobida tekshiriladi.

Startyor yig'ilganda vkladish o'rnatiladigan shlitsalik qism va yakor bo'yni SIA TIM-201 yoki mashina moyi bilan moylanadi.

Maxsus shayba bilan o'rnatiladigan yakor vali va qopqoqning cheti orasidagi o'q bo'yicha siljish rostlanadi, uning qiymati 0,15-0,20 mm atrofida bo'lishi kerak.

Zaruriyat tug'ilsa, yuritma shesternyasi va tayanch halqasi orasidagi tirqish rostlanadi. Tekshirish uchun nazorat lampasining bir uchi rele chulg'aming chiqish klemmasiga birlashtiriladi, ikkinchi uchi esa akkumulyator batareyasining «plyus» klemmasini birlashtiruvechi kontakt boltiga ulanadi. Yuritma shesternyasini nazorat lampa yongunga qadar qo'lda suriladi (relening kontaktlari ulangan bo'ladi), shesternya va tayanch shaybasi orasidagi tirqish o'chanadi. Uning qiymati 2,0-4,0 mm atrofida bo'lishi lozim.

Startyorlar yig'ilgan holda KI-968 yoki 532M nazorat-sinash stendlarida sinaladi. Stendlar startyorning tormoz momentini o'chanish uchun maxsus qurilmaga ega. KI-968 stendi mezdalik manometrik qurilmaga ega, uning diafragmasiga startyorning yuritma shesternyasidan qurilmaning tishli richagi orqali keltirilgan kuch ta'sir qiladi.

Dastlab startyorni salt yurish rejimida, so'ng esa to'liq tormozlash rejimida sinaladi. Startyornarning sinash ma'lumotlari 6.4-jadval qiymatlariaga mos kelishi lozim.

Elektrostartyorli yurgizib yuborish tizimiga ega bo'lgan MTZ-80 traktorlarining elektr sxemasida RB-1 blokirovka relesi nazaarda tutilgan, u dizel yurgizib yuborilgandan so'ng startyor qayta ulanishining oldini oladi. Blokirovka relesi startyorning boshqarish relesi zanjiriga qo'shilgan va u tirsakli valning $700\text{-}1000 \text{ min}^{-1}$ aylanishlar chastotasidan boshlab o'zgaruvchan kuchlanish beruvechi generatordan ishlaydi. Asbob shehitidagi yonuychi nazorat lampasi startyorni boshqarish zanjiriga ulanganligini ko'rsatadi. Dizel yurgizib yuborilgandan so'ng blokirovka relesi ishlab ketadi va nazorat lampasi o'chadi.

Agar dizel yurgizib yuborilgandan so'ng shchitdag'i nazorat lampasi o'chmasa, u RB-1 blokirovka relesining nosozligini ko'rsatadi.

Startyor detallarining, maxovik gardishi simmasligi uchun, relening ishlashi davriy ravishda tekshirib boriladi. Tekshirishdan avval reledan simlar uzilib, ularni KI-1093 voltampermetrga ulanadi (6.6-rasm).

Dizel yurgizilmasdan avval, traktorning «massasi» ulanadi, voltampermetrn'i nazorat qilib, reostat bilan sekin rele siqqichlaridagi kuchlanish uning kontaktlari ishlab ketgunga (uzilgunga) qadar oshirilib boriladi. Asboblar shchitidagi nazorat lampasi o'chadi. Relening ishlab ketish kuchlanishi 10 V dan katta bo'lmasligi lozim. 10 V da ishlab ketish davri yakor va g'altak serdechnigi o'rtaсидagi tirkish 0,35-0,45 mm spiral prujinaning tarangligi hisobiga rostlanadi.


6.4. Tok yuruvchi qismlar va asboblarni ta'mirlash

Past kuchlanishda (48 V gacha) ishlovchi izolyatsiya va asboblar chastotasi 50 Gs va kuchlanishi 220 V bo'lgan o'zgaruvchan tokda tekshiriladi. O'zgaruvchan tok generatorlari, startyorlar, cho'g'lanish svechalari, faralar, nazorat-o'lechov asboblari, yoritkichlarning uzgichlari bunday asboblar jumlasiga kiradi. Izolyatsiya KI-968 stendida sinaladi.

O'lechamlari va o'z-o'zidan induksiyalanuvchi kuchlanishi 300-400 V bo'lgan, elektr yurituvchi kuch (FYuK) hosil bo'tadigan asboblarning (rele-rostlagichli doimiy tok generatori, yondirish tizimi past kuchlanish zanjiri, elektr signali zanjiri va burilishni ko'rsatkichlar) izolyatsiya detallari izolyatsiyasining elektr mustahkamligi kuchlanishi 550 V bo'lgan o'zgaruvchan tokda tekshiriladi. Bu kuchlanishda ishlovchi tok manbai bo'lмаган hollarda, sinov 380 V kuchlanishda otib boriladi, sinash sxemasi 6.8-rasmida keltirilgan.

Naybatma-naybat tekshiriladigan chulg'amga yoki qismaga har birining nominal kuchlanishi 220 V bo'lgan ikkita lampa ulanadi. Izolyatsiyani kuchlanish bilan tekshiradigan asbobning

sinash davomiyligi asbobning turiga qarab 2 sekunddan 1 minutgacha o'zgaradi.




6.8-rasm. Izolyatsiyaning mustahkamligini kuchlanishi 380 V bo'lgan o'zgaruvchan tokda sinash.

Kondensatorning izolyatsiyasini tekshirish. Kuchlanishi 220 V bo'lgan o'zgaruvchan tok tarmog'iga ketma-ket ulangan cho'g'lanish lampasi kondensatorni sinashning eng oson usuli hisoblanadi. Kondensator chulg'amingiz izolyatsiyasi soz bo'lsa, lampa yonadi. Zanjir uzilayotgan paytda uchqunlanishi lozim. Uchqunlanishning yo'qligi kondensatorning uzilganligini, lampaning yonishi kondensator izolyatsiyasining buzilganligini ko'rsatadi. Kondensator izolyatsiyasini neon lampa yordamida ham tekshirish mumkin (6.9-rasm).


Kondensator kuchlanishi 300-500 V bo'lgan o'zgarmas tok manbaiga neon lampasi va qo'shimcha qarshilik bilan ketma-ket ulanadi. Agar ahyon-ahyonda uchqunlanish sodir bo'la, kondensator soz hisoblanadi. Kondensatorning sig'imi qancha katta bo'lsa, uchqunlanish shunchalik yorug' bo'ladi, uchqunlanish tez-tez sodir bo'lsa, uning izolyatsiyasining sifati shunchalik yomon

hisoblanadi. Lampaning doimo xira yonishi tokning yo'qotilishidan darak beradi, lampaning yorug'i yonishi kondensatorning izolyatsiyasi buzilgantligini bildiradi.

Kondensator izolyatsiyasining kuchlanishi 380 V bo'lgan o'zgaruvchan tokda sinash uchun 6.10-rasmida keltirilgan sxemadan foydalilaniladi. Izolyatsiyasi buzilgan bo'lsa, voltmetr tok manbaining kuchlanishini ko'rsatadi, agar kondensator ichida uzilish bo'lsa, voltmetr nolni ko'rsatadi.



6.9-rasm. Kondensator izolyatsiyasini neon lampa vordamida tekshirish: 1-rubilnik; 2-ko'shimcha qarshilik; 3-neon lampa; 4-tekshiriladigan kondensator



6.10-rasm. Kondensator izolyatsiyasini voltmetr yordamida tekshirish: 1-rubilnik; 2-voltmetr; 3-tekshiriladigan kondensator

Kondensatorlar KI-968 stendida etalon kondensator o'rniiga, elektr zanjiriga sinaladigan kondensatorni ulab sinaladi. Izolyatsiya detallarining katta kuchlanishli uzgich-taqsimlagich yoki magneto zanjiridagi elektr mustahkamligi KI-968 stendida 16000-20000 V kuchlanishda tekshiriladi.

Akkumulyatorlar baktari oraliq devorlarining elektr o'tkazuvchanligini sinash ahamiyatga molik hisoblanadi. Sinash uchun akkumulyatorlar bakiga elektrolitning kuchsizlangan eritmasi oraliq devorlari tepasidan 15-20 mm past qilib quyiladi. Bunda oraliq devorlarning elektrolitdan chiqib turgan qismi bak to'lg'izilgandan so'nq quruqligicha qolishi lozim.


100-120 V kuchlanishga ega bo'lgan tok manbaga ulangan elektrodlar elektrolitga tushirilganda, akkumulyatorning ikki qo'shni bakiga ulangan voltmetning strelikasi burilishi mumkin. Voltmetr strelikasining burilishi akkumulyatorning oraliq devorlarida darz

mavjudligidan darak beradi. Akkumulyator bakining tashqi devorlari ham shunday ketma-ketlikda sinaladi, bunda bak elektrolit bilan to'ldirilgan idishga tushiriladi.

Akkumulyator tok o'tkazuvchi qismlarining aktiv qarshiligidini aniqlash. Bu operatsiyani nuqsonlari bo'yicha saralash, masalan, tarmoqlar orasidagi qisqa tutashuvlar, simlarning uzilishini aniqlash, yangi chulg'amlar va qarshiliklarning o'ramini hosil qilish kabi bajarish mumkin.

Aktiv qarshilikni ommetr bilan aniqlash, qarshilikni aniqlashning eng oson usuli hisoblanadi. Bunda qarshilikni ommetr bilan o'lehab, so'rov nomasi ma'lumotlari bilan solishtiriladi. Agar tekshirilayotgan chulg'amning qarshiliği me'yordan ancha kichik yoki nolga yaqin bo'lsa, tarmoqlararo qisqa tutashuv borligidan darak beradi. Chulg'am qarshiliği uncha katta bo'lsa, ommetrning o'lehash aniqligi yetarli bo'lmaydi.

Tok o'tkazuvchi qismning qarshiliği solishtirish usulida 6.11-rasmida ko'rsatilgan sxema asosida voltmetr bilan aniqlanishi mumkin. Buning uchun voltmetrga ketma-ket sxemada ko'rsatilgandek qiymati ma'lum bo'lgan nazorat qarshiliği R_k ulanadi.



6.11-rasm. Tok o'tkazuvchi qismning qarshiligidini voltmetr yordamida solishtirish usuli bilan aniqlash sxemasi: R_k -nazorat qarshiliği; R_x -tok yurgizuvchi qismning qarshiliği.


Tok o'tganda voltmetr bilan tok o'tkazuvchi qism qismalaridagi U_s va qarshiliklardagi U_k kuchlanishning pasayishi o'lehanadi, chunki kuchlanishning pasayishi qarshilikka proporsional o'zgaradi.

6.5. Nazorat-o'lefov asboblarini ta'mirlash va rostlash

Fraktorlarga o'rnatilgan nazorat-o'lefov asboblarida quyidagi nosozliklar uchraydi: elektr simlarining uzilishi; datchik va ko'rsatkich orasidagi zanjorda tutashuvlarning buzilishi; asboblarning o'zidagi ichki shikastlanishlar.

Asboblarning texnik holati etalon asboblar bilan solishtirib yoki tekshirilayotgan issiqlik va masofadan boshqariladigan elektromagnit asboblar tomonidan iste'mol qilinadigan tok qiymatini o'lehash yo'li bilan tekshiriladi. Etalon sifatida xarakteristikalarini texnik shartlarga javob beradigan tekshirilgan va rostlangan datchiklar va qabul qilgichlardan foydalaniлади. Priyomnik etalon datchik bilan komplekt holda, aksincha, datchik etalon yoki tekshirilgan priyomnik bilan komplekt holda tekshiriladi.

Moy bosimining elektr impulsli ko'rsatkichini tekshirish va rostlash. Moy bosimi ko'rsatkichi GARO-531 asbobida tekshiriladi. Dastlab qabul qilgich tekshiriladi. Buning uchun uni 1 va 11 uyalarga va markaziy qayta ulagichga ulanadi (6.12-rasm).



6.12-rasm. Harorat va bosimi ko'rsatuvchi asboblarni tekshirish sxemasi: 1-akkumulyatorlar batareyasi; 2-GARO-531 asbob; 3-sinaladigan qabul qilgich.

Qayta ulagich ikkinchi holatga o'matiladi. Yuklash reostatining dastasi bilan sinalayotgan qabul qilgich zanjiridagi tok sekin-asta oshirib boriladi va qabul qilgichning strelkasi nolni ko'rsatishiga erishiladi. So'ng mikroampermetrni ulash tugmachasi bosilib, tokning qiymati aniqlanadi. Natijada texnik shartlarda ko'rsatilgan qiymatlar bilan solishtiriladi.

Qabul qilgich zanjiridagi tok qiymati yana oshganda asbobning turiga qarab uning strelkasi 0,5 MPa yoki 0,6 MPa ga mos keladigan holatga o'matiladi.

Qabul qilgichning asosiy nosozliklari quyidagilardan iborat: rostlashning buzilishi; bimetall plastina chulg'aming uzilishi yoki kuyishi. Chulg'amdag'i simning uzilishi nazorat lampasi yordamida aniqlanadi. Chulg'amdag'i tutashuv ommetr yordamida aniqlanadi. Soz chulg'am 36-41 Om ga teng bo'lган qarshilikka ega bo'lishi kerak. Kuygan chulg'am almashtiriladi va zanjirdagi uzilish yoki bimetall plastinaning tutashuvi bartaraf etiladi. Shikastlangan chulg'am chiqarib olingandan so'ng bimetall plastinaga yangi chulg'am qo'lda o'raladi. Chulg'am materiali sifatida konstantan simi olinadi. Chulg'am qisman shikastlanganda, qabul qilgich chulg'ami bilan ketma-ket ulangan qo'shimecha chulg'am o'raladi. Ikkala holda ham simning uzunligi shunday bo'lishi kerakki, unda qarshilik me'yoriy qiymatga ega bo'lsin. Qabul qilgichdagi nosozlik bartaraf etilgandan so'ng, uning datechigi tekshiriladi va rostlanadi.

Datechiklarning nosozliklari va ularning belgilari. Dvigatelda gorizontal joylashgan manometr datechigi tekshirilganda uning asbobda to'g'ri joylashganligiga ahamiyat berish lozim. Datechik quyidagiicha tekshiriladi. Uni nasosning oraliq muftasi (6.13-rasm) va markaziy qayta ulagich dastasiga ulanib, I holatga qo'yiladi. Asboblar datechigi I va II uyalarga ulanadi. Havo nasosi dastasi bilan tekshirilayotgan datechik sistemasida 0 va 0,5 MPa havo bosimi hosil qilinadi va asbob manometri bilan nazorat qilinadi. Agar mikroampermetrning ko'rsatish tugmasi bosilganda, ko'rsatilgan bosimlarda 8-15 mKA va 120-140 mKA ga to'g'ri kelmasa, datechik rostlanadi.


Datechikni rostlashdan avval uning kojuxidagi qalay bilan kaysharlangan teshik bigiz yordamida tozalanadi. Maxsus otvyortka bilan rostlovchi sektor buraladi va kontakt plastinalar orasida zarur

tirqish o'rnatiladi. Sektorni soat strelkasi bo'yicha burib kontaktlar orasidagi tirqish kattalashtiriladi va ko'rsatkichning strelkasi nol tomonga suriladi. Havo nasosi bilan tizimda datchik zanjirining 120-140 μA tokida 0,5 MPa havo bosimi hosil qilinadi. Almashtiriladigan qarshilikni tanlash yo'li bilan datchik zanjiridagi tok rostlanadi. Datchik kojuxi maxsus moslamadan olinib, qarshilik chulg'amiga parallel ulanib qo'yiladi.

Tashqi ko'zdan kechirib bimetall plastinaning yaroqliligi, sozligi va kontaktlarning tozaligi tekshiriladi.

Datchikning nosozliklarini aniqlash. Kuygan yoki itloslangan kontaktlar asta-sekin nadfil bilan tozalanadi. Agar kontaktlar kavsharlari ajralgan yoki kuygan bo'lsa, bimetall plastinali tomon 90-100°C ga surib qo'yiladi va yangi kumush yoki kadmiyli kumush qotishmasi mavjud bo'lgan kontaktlar kavsharlanadi. So'ng plastinali kronshteyn joyiga o'rnatiladi va kavsharlangan kontaktlar tozalanadi.

Kuygan va izolyatsiyasi kuygan chulg'am yangisiga almashtiriladi. Uning qarshiligi 8-11 Ohm ga teng bo'ladijan qilib o'raladi.



6.13-rasm. Bosimni ko'rsatuvchi datchiklarni tekshirish: 1-akkumulyatorlar batareyasi; 2-GARO-531 asbobi; 3-tekshiriladigan datchik

Nuqsonlar bartaraf etilgandan so'ng kojux yopiladi, datchik yuqorida ko'satilgandek qayta rostlanadi. Rostlangandan so'ng, kojux dastaki pressda yoki shtampli parallel tiskilarda razvalsovkalanadi.

Avariya holatidagi bosim signalizatorini tekshirish va rostlash uchun u GARO-531 asbobiga o'matiladi va signal lampasiga ulanadi.

Elektr-issiqlik impulsli termometrlar quyidagicha tekshiriladi va rostlanadi: rostlashning buzilishi; qabul qilgich va datchik chulg'amlarining bimetall plastinkalarga tutashuvi; kontaktlarning kuyishi yoki kavsharlardan ajralib ketishi; qabul qilgich qizdirish chulg'amlarining ishdan chiqishi; datchikning ishdan chiqishi. Ulardan tashqari asbob germetikligi buzilishi va 185°C dan yuqori haroratda asbob ballonlarining gayka-shtutser bilan tutashtiruvchi kavsharlari erib ketishi mumkin. Agar gayka va ballon presslangan bo'sha, asbob germetikligicha qoladi, ammo harorat 200-250°C dan oshiganda bimetall plastina chulg'aming shoyi izolyatsiyasi kuyishi oqibatida ishdan chiqadi.

Qabul qilgichni tekshirish va rostlash. To'g'ri rostlangan qabul qilgich GARO-531 asbobiga o'matilganda uning chulg'amidagi tok ma'lum qiymatga etganda 80°C ni ko'rsatishi lozim.

Agar qabul qilgichning ko'rsatishi texnik shartlarga mos kelmasa, maxsus kalit bilan sektorlardan biri shunday burilishi kerakki, unda strelka 100°C da to'xtasin. So'ng ikkinchi sektorni burib, strelka 40°C ga to'g'rilanadi. Agar qabul qilgichni rostlab bo'lmasa, uni qismlarga ajratib ta'mirlash lozim.

Chulg'am almashtirilib, uzilish va massaga ulanib qolishni bartaraf etib qabul qilgich ta'mirlanadi.


Shikastlangan chulg'am bimetall plastinkadan chiqarib olimadi va yangisi qo'lda o'raladi. Chulg'am materiali sifatida diametri 0,1 mm bo'lgan simdan foydalaniladi. Simning uzunligini qarshiligi 36-40 Om bo'ladigan qilib tanlanadi. Ta'mirlangandan so'ng qabul qilgich ikki sektordan foydalaniб qaytadan rostlanadi.

Impulsli harorat datchiklarini ta'mirlash sxemasi 6.14-rasmida keltirilgan. Datchik isitkich bilan birga 2/3 qism suv bilan to'lg'izilgan stakanga joylashtiriladi. Qayta ulagich birinchi holatga o'matiladi. Suvning harorati 100°C ga yetishi bilan sinaladigan datchik / va // uyalarga ulanadi. Tugmalarni bosib mikroampermetr ulanadi. Agar uning ko'rsatishi texnik shartlarga to'g'ri kelmasa, datchik qismlarga ajratiladi va ta'mirlanadi.

Datechiklarni ta'mirlash. Datechik qismlarga ajralganda u kavshardan, ballon esa korpusdan ajratib olinadi. Datechik mexanizmini tashqarisi ko'zdan kechirilib uning bimetall plastinalarining chulg'amlari, kontaktlarining sozligi va tozaligi aniqlanadi.

Kontaktlar odatda yopiq holatda bo'ladi. Ular ajratilib, kuygan kontaktlar nadfil bilan ohista tozalanadi. Agar kontaktlar yeyilgan yoki kavshardan ajralgan bo'lsa, qaytadan kumush yoki kumush kadmiy qotishmasi bilan kavsharlanadi. Kavsharlangandan so'ng kontaktlarning zinch tegib turishi ta'minlanadi. Kuygan chulg'amlar diametri 0,12 mm bo'lgan konstantan simdan yasalgan yangi chulg'amga almashtiriladi. Simming uzunligi shunday bo'lishi kerakki, u 13-15 Om qarshilikni ta'minlasin.

Datechik balloonini tekshirish uchun, kavsharlanmasdan avval, korpusni shu ko'rinishda suvli stakanga qo'yiladi. Qolgan operatsiyalar yuqorida ko'rsatilgandek amalga oshiriladi. Agar mikroampermetrning strelkasi shikalaning nazorat uchastkasi qarshisida to'xtamasa, datechik termostatdan chiqarib olinadi, sozlash vinti burab qo'yiladi.



6.14-rasm Elektr issiqlik impulsli termometrlar datechiklarini GARO-531 asbobida tekshirish sxemasi: 1-akkumulyatorlar batareyasi; 2-datechik; 3-stakan; 4-isitkich.

Avariya harorati signalizatorining datechigini tekshirish. Avariya harorati signalizatorining datechigi ham issiqlik elektr

impulsli termometrinинг datchigi kabi tekshiriladi. Uning farqi shundan iboratki, bunda suv harorati qabul qilgich klemmalariga kuchlanishi 12 V bo'lgan nazorat lampasi ulanadi. Avariya harorati signalizatori datchigini bachea qopqog'i teshigidan shunday tushirish kerakki, ballonning barcha yuzasi suyuqlik bilan ho'llansin. Stend ikki qutbli rubilnik bilan akkumulyatorlar batareyasining signalizatori zanjiriga ulanadi va uning yordamida nazorat lampasi yonadigan harorat aniqlanadi. Agar lampa yonadigan suyuqlik harorati, talab etilgan haroratga to'g'ri kelmasa, datchik qismlarga ajratiladi, bimetall plastina chiqarib olinadi va rostlanadi.

Elektromagnit yonilg'i sathining ko'rsatkichini tekshirish, ta'mirlash va rostlash. Yonilg'i sathini ko'rsatkich GARO-531 asbobida tekshiriladi. Ayni paytda qabul qilgich va datchik ham tekshiriladi.

Asbobning asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat: qabul qilgich va datchik orasidagi sim uzilgan va tutashishi buzilgan; chap yoki o'ng elektromagnitning chulg'ami uzilgan; datchik reostati chulg'ami uzilgan; polzunok bilan reostat chulg'ami orasidagi tutashuv yomon; qabul qilgich yoki datchikning rostlanishi buzilgan.

Birinchi nuqsonda chap elektromagnit qabul qilgichi chulg'amidagi tok keskin pasayadi. asbobning strelkasi, bakdag'i yonilg'ining miqdoriga bog'liq bo'limgan holda «Ноийи бак» ni ko'rsatadi.

Elektromagnit chulg'amlarining birida uzilish bo'lsa, qabul qilgichning strelkasi doimo shkalaning nol bo'lagida turadi.

Datchik reostati chulg'ami u兹lsa, quyidagilar kuzatiladi. Agar uzilish joyi polzunokdan o'ngda joylashgan bo'lsa, qabul qilgich bakda normal miqdorda yonilg'i borligini ko'rsatadi, uzilgan joyi chapda joylashgan bo'lsa, qabul qilgich strelkasi to'liq bakka mos keluvchi holatda bo'ladi.

Polzunok va reostat chulg'ami orasidagi tutashuv yomon bo'lsa, qabul qilgich strelkasi butun shkala chegarasida tebranib turadi.


Qabul qilgich yoki datchikning ko'rsatishining rostlanishi buzilganda, qabul qilgich holati bakdag'i yonilg'i sathining haqiqiy sathiga to'g'ri kelmaydi.

Yonilg'i sathini ko'rsatkichlarda aniqlangan va bartaraf etilgan nosozliklar quyidagilardan iborat. Qabul qilgich va datchik GARO-531 asbobida tekshiriladi.

Qabul qilgichni tekshirish uchun almashlab ulagich holat 4 ga o'rnatiladi (6.15-rasm). Klemma B ni uya II ga, qabul qilgich qisqichi R uya I ga, korpus esa mikroampermetrning yaprog'iga ulanadi.

Qabul qilgich tekshirilayotganda, almashlab ulagichini P holatga o'tkazib ulanganda asbobning etalon qarshiliklariga umsha katta yuklama tushmaydi. Strelkaning burilishi normal bo'lsa, qabul qilgich boshqa holatlarda tekshiriladi.


Agar qabul qilgich strelkasi shkalaning nol bo'llimida turmasa, rostlovehi vint biroz bo'shatilib, chap o'zak g'altagi bilan birga o'q bo'yicha surilib, strelka kerakli joyga o'rnatiladi. Qabul qilgich strelkasi qabul qilgich shkalalari bo'llimi P ga to'g'ri kelmasa, vint biroz bo'shatilib, o'ng o'zakning g'altagi bilan birlgilikda o'q bo'yicha siljitiib, strelka P bo'llimlarga mos tushishiga erishiladi. Bunda o'ng g'altak qutb uchligini biroz egishga ham ruxsat etiladi. Agar yonilg'i sathini ko'rsatuvchi asbob qabul qilgichning to'g'ri ko'rsatishini rostlash yo'li bilan ta'minlab bo'llmasa, chulg'amini almashtirish yo'li bilan ta'mirlanadi.



6.15-rasm. Yonilg'i ni ko'rsatuvchi qabul qilgichlarni tekshirish sxemasi: 1-akkumulyatorlar batareyasi; 2-qabul qilgich; 3-asbob; 4-qayta ulagichning holati.

Yonilg'i sathini ko'rsatuvchi datchikni tekshirish uchun uni GARO-531 asbobining prujinasiga ish holatida qotiriladi (6.16-rasm), bunda richag gradus shkalasiga taqab o'rnatiladi. Undan so'ng datchik asbob uyalariga ulanadi, bunda almashlab ulagich 3 holatga o'rnatiladi. tugmachani bosib va nolga o'rnatish reostati dastasini aylantirib, mikroampermetr strelkasi 200 mKA ga o'rnatiladi. Shundan so'ng tugma bo'shatilib, almashlab ulagich richagi «ИЗМ» holatiga o'tkaziladi. Tugmacha bosilib, qalqovich richaginining datchigi navbatma-navbat 0, 1/4, 1/2, P holatlariga o'rnatiladi va natijalar mikroampermetr texnik ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

Ehtiyoj tug'ilsa, datchik qopqog'i olinib, reostat polzuni qotirmasining vinti biroz bo'shatiladi va ular zanjir tokining texnik ma'lumotlarga mos kelishini ta'minlovchi holatga o'rnatiladi. Ochilgan datchik qopqog'ida qalqovich richagini navbatma-navbat O va P holatlarga o'rnatish va nazorat ommetr bilan polzunlarga ulanadigan chulg'am qarshiligini nazorat ommetr bilan o'lchash mumkin. Reostat qarshiligi datchikning O va P holatida mos ravishda 1-3 va 56-60 Ohm atrofida bo'llishi lozim. Agar reostatning qarshilik qiymati ko'rsatilgan chegaralardan chiqib ketsa, polzunlarni qotirish vintlari biroz bo'shatilib, zanjir uchastkasi qarshiligining yetarli bo'llishini ta'minlovchi boshqa holatga o'rnatiladi.




6.16-rasm. Yonilg'inining sathini ko'rsatuvchi datchikni tekshirish sxemasi: 1-akkumulyatorlar batareyasi; 2-datchik; 3-almashlab ulagich holati; 4-asbob.

Datchik reostati chulg'ami 0,2 mm diametrli nixrom simga almashtiriladi. Bunda chulg'amning umumiy qarshiligi 60 Ohm ga teng bo'lishi lozim.

Kavsharlashda reostat chulg'aming ikkinchi uchi massa bilan polzundan chiqayotgan mis simga ularishining puxtaligiga ahamiyat berish lozim. Bu benzin va benzin bug'ining alanga olishining oldini oluvchi uchqun paydo bo'lishini bartaraf etadi. Polzun va reostat chulg'ami vintlari orasidagi tutashuvnvi yaxshilash uchun kontakt plastinalarni reostat chulg'amiga siqish kerak. Ko'p yeyilgan va deformatsiyalangan polzunlar yangisiga almashtiriladi.

Ampermetrni tekshirish va rostlash. Ampermetrning asosiy nosozligi tokni noto'g'ri ko'rsatishi hisoblanadi. Buni doimiy magnitning magnitlanish darajasi buzilganda kuzatish mumkin. Ampermetr GARO-531 (6.17-rasm) asbobida tekshirilganda, u akkumulyatorlar batareyasi tekshiriladigan ampermetr yuklama reostati elektr zanjirining tashqi shuntiga ketma-ket ularadi, uning chiqish uchlari esa asbob uyalariga ularadi. Bosh almashlab ulagich 5 holatga o'rnatiladi. Bunda yuklama reostati o'rniiga isituvchi asbobdan foydalaniлади.




6.17-rasm. Ampermetrni tekshirish sxemasi: 1-akkumulyatorlar batareyasi; 2-ampermetr; 3-asbob; 4-rostlash reostati.

Ampermetrning ko'rsatishi +20°C haroratda, o'lehashning yugori chegarasida 15% xatolikka yo'l qo'yilishi mumkin. Shuning uchun ham ulardan elektr asboblarini tekshirishda qo'llash tavsiya etilmaydi. Agar tekshirishlar natijasi ruxsat etilgan xatoliklar chegarasidan chetga chiqsa, u quyidagicha rostlanadi. Asbobdagi doimiy magnit korpusi bilan to'yinguncha apparatda magnitlanadi.

Rostlanadigan ampermetr yuqorida keltirilgan usulda uning to'g'ri ko'rsatishini tekshirish uchun elektr zanjiriga ulanadi. So'ng ampermetr magnitining qisman magnitsizlanrilishi 533 modeldagi PPYYa asbobida olib boriladi. Bunda apparat magnit maydoniga qisqa vaqt tekis kiritib olinadi va tekshirilayotgan ampermetrning ko'rsatishi etalon ampermetrning ko'rsatishiga mos kelishi tekshiriladi. Magnitsizlanish kuchli va rostlangan ampermetrning ko'rsatishi talabga mos kelmasa, to'yinguncha qaytadan magnitlanadi va rostlash operatsiyalari takrorlanadi. Ampermetrning tok o'tkazuvchi izolyatsiyasi korpusga nisbatan bir minut davomida 220 V kuchlanishda teshilishga bardosh berishi lozim.

6.6. Induksion spidometrlarni tekshirish va rostlash

Bunday spidometrlarda quyidagi nosozliklar uehraydi: prujina 8 (6.18-rasm) tarangligi kamayadi, natijada asbobning ko'rsatishi ortadi; prujina uziladi, strelka 9 aylanma harakat qiladi yoki u eng chekka holatga taqalguncha buriladi; podshipniklardagi strelka o'qining yeyilishi, bu strelkan tebranishga va o'chanayotgan miqdorni kam ko'rsatishga olib keladi; magnit 4 magnitsizlanadi, u ham asbobning ko'rsatishini pasaytiradi.



6.18-rasm. Spidometrnning sxemasi: 1-yuritma valigi; 2-fitol; 3-zaglushka; 4-magnit; 5-magnit shunti; 6-g'altak; 7-magnit ekran; 8-spiral; 9-strelka; 10-maxsus ri-chag; 11 va 12-schyotchikning yuritma valigi.

Spidometr ko'rsatishining aniqligi stendda tekshiriladi, ularda yuritma valining aylanishlar chastotasini tekis o'zgartirish mumkin. Bunda tekshirilayotgan spidometrning ko'rsatishi, stendda nazorat spidometriga nisbatan solishtiriladi. Agar uning ko'rsatishi ruxsat etilgan xatoliklar chegarasidan chiqib ketsa, spidometrlar rostlanadi. Spidometrning tezlik uzelini rostlash ikki operatsiyaning bajarilishi bilan bog'liq: magnit 4 ning magnitlanish darajasini o'zgartirish; richag 10 ning holatini to'g'ri tanlash, bunda prujina 8 ning boshlang'ich tarangligi rostlanadi.

Spidometr 80 yoki 100 km/soat tezlikda rostlanadi. Bunda magnit sekin-asta magnitsizlanib, spidometrning ko'rsatishi pasayib boradi va texnik shartlarda keltirilgan ko'rsatishga mos kelmasdan qoladi.

Magnitsizlantirish maxsus apparatda yoki 553 modelidagi PPY-a asbobida olib boriladi. Unda yuritma valining aylanish tezligi 20 km/soatgacha pasaytiriladi. Agar rostlanadigan va etalon spidometrning ko'rsatishi mos kelmasa, richag 10 ni aylantirib, spiral prujinaning boshlang'ich holati o'zgartiriladi.

Rostlash spidometrning ko'rsatishi stendning yuritma vali aylanish tezligiga mos kelgunga qadar davom ettiriladi.

6.7. Yurgizib yuborish dvigatelining magnetosini ta'mirlash

Magneto yurgizib yuborish dvigatellarinining tizimida qo'llaniladi.

Magneto yuqori kuchlanishli tok ishlab chiqaruvchi sodda elektromashina hisoblanadi. U ichida magnit rotorii aylanuvchi korpusdan, transformatorдан va tokni uzib turuvchi mexanizmdan tuzilgan.


Dvigateli yurgizib yuborishdagi qiyinchiliklar, dvigatelning uзilish bilan ishlashi magneto yoki yondirish svechalarining nosozligidan darak beradi.

Yondirish svechasida uchqun hosil bo'lmasligiga magneto rotorining magnitsizlanganligini, tokni uzib turuvchi mexanizm kontaktlarining kuyishi yoki moylanib qolishini, transformator chulg'amlarining tarmoqlararo qisqa tutashuvi mayjudligini, magnetoning yuqori kuchlanishli tarmog'i darz ketlanligini, tokning

«massaga» ketishini, yondirish svechalari izolyatorlarining buzilganligini ko'rsatadi.

Magnetoning uzgichi kontaktlari tozalangandan va ularagi tizqish rostlangandan so'ng yurgizib yuborish dvigatelining tirsakli vali aylanrilganda, chiqarib olingan svechada uchqun hosil bo'lishi kuzatilmasa, magneto chiqarib olinib, uning detallarining holati tekshiriladi.

Magnetoni bo'laklarga ajratish uchun gayka 3 bo'shatilib (6.19-rasmiga qarang), musta presslab chiqariladi. Undan so'ng korpusning qopqog'i 5 chiqarib olinadi va undan rotor 12, podshipniklar 11 va 13 bilan yig'ilgan holda, transformator 7 ning qotirish boltlari bo'shatilib uni korpusdan chiqarib olinadi.



6.19-rasm. 124B1 magnetosi: 1-rostlovchi eksentrik; 2- uzbislagich richagi; 3-gayka; 4-mufta; 5-korpus qopqog'i; 6-korpus; 7-transformator; 8-yuqori kuchlanishli chiqish; 9-kulachok; 10-kondensator; 11, 13-sharikli podshipniklar; 12-rotor

Dastlab rotoring holati tekshiriladi. Podshipniklar o'tirish joylari 11,99 mm o'lehamgacha, yoki val kulachogining bo'yni 8,47 mm dan kichik bo'lgan diametr gacha yeyilgan bolsa, rotor almashtiriladi. Agar ko'rsatib o'tilgan joylarda yeyilish ko'rsatilgan o'lehamlar chegarasidan chetga chiqmasa, MD-4 magnitometr bilan rotoring magnitlanganlik darajasi tekshiriladi. Agar rotoring

magnitlanganligi 220 mкV dan kichik bo'lsa, uni NA-5-VIM asbobida magnitlash lozim.

Transformator chulg'amlarining butunligi tester yoki 12 Vlik nazorat lampalari yordamida aniqlanadi, transformator izolyatsiyasining buzilganligini tekshirish KI-968 nazorat-sinash stendida aniqlanadi.

Agar uzbek kontatlari nazorat qilinganda, ularning balandligi 0,6 mm dan kam bo'lsa, unda uzbek richagi yoki tutashish ustuni yig'ilgan holda almashtirildi.

Kontaktlari kuyganda, egov-nadfil bilan yoki donadorligi 140-170 bo'lgan shlisovka charmida tozalangandan so'ng benzinga ho'llangan kapron yoki kigiz tasmasida ishqalab tozalanadi. Kontakt richaglari prujinasidagi bosim 3,9 N dan kam bo'lmasligi lozim.

Uzbek kontaktlari orasidagi tirkish 0,25-0,35 mm atrofida bo'lishi talab etiladi.

Magneto yig'ilgandan so'ng u nazorat-sinash stendida sinaladi. Sinash magneto rotorini 2400 min^{-1} aylanishlar chastotasida 2-3 min davomida olib boriladi. Bunda korpusning qizishi, podshipniklarda shovqin-suron bo'lishi kabilar bo'lmasligi lozim.

Magnetoni rotorning 300 dan 4500 min^{-1} aylanishlar chastotasida va uchqun oraligi 7 mm bo'lganda stendning zaryadsizlanishi 4 min davomida sodir bo'lganda uchqun hosil bo'lشining to'xtovsizligiga sinaladi.

Magnetoning yuqori voltli izolyatsiyasini tekshirish rotorning $2400-3000 \text{ min}^{-1}$ aylanishlar chastotasida va 15 s davomida uchqun oraligi 9-11 mm da tekshiriladi.


Ta'mirlangan magnetoni yurgizib yuborish dvigateliga о'rnatishda, yondirish svechasi silindrlar kallagidan chiqarib olinib, svecha teshigiga o'lehash sterjeni porshenga taqalgunga qadar о'rnatib, tirsakli val soat strelkasiga qarshi aylantiriladi. Porshen yuqori о'lik nuqtasidan 5,8 mm pastga о'rnatiladi, uning bu holati val krivoshipining yuqorigi о'lik nuqtagacha 27° da bo'lgan holatiga to'g'ri keladi. Undan so'ng magneto rotorini qo'lda aylantirib uzbekning kontaktini uzilishi boshlanishi о'rnatiladi va birlashtiriluvchi mustani yurgizib yuborish dvigateli yuritmasining shesternyasi ariqchasi kiritiladi, magneto yurgizib yuborish dvigateliga qotiriladi.

6.8. Elektr simlarini ta'mirlash

Elektr simlarida quyidagi nosozliklari uchraydi: sim tarmoqlari va uchlarning (nakonechniklari) shikastlanishi, tutashuv qismlari, qisqich va izolyatsiyasining buzilishi. Simlardagi bunday nosozliklар, sim uzilganda tok uzatilishining batamom to'xtashi, qisman qoniqarsiz qotirish yoki birikmani kavsharlash paytida tutashmalarning oksidlanishi hisobiga qarshilikning ortib ketishi oqibatida yuzaga keladi. Simlar izolyatsiyasining buzilishi simlarining qisqa tutashuviga va tokning yo'qotilishiga sabab bo'ladi.

Simlarning uzilgan joylari nazorat lampasi yordamida aniqlanadi. Elektr jihozlarining sxemasidan ishlamayotgan iste'molehiga borish yo'li aniqlanadi va elektr zanjirining shuchastkasi tekshiriladi. Lampaning qisqichi massaga ulanadi, shchup yordamida ishlamayotgan asbobdan tok manbaigacha bo'lgan oraliqda navbatma-navbat tekkizib ko'rildi. Nazorat lampasining yonishi uzilishning tekshirilayotgan qismlar yaqinida ekanligini ko'rsatadi. Tekshirilayotgan uchastkani shuntlash bilan simning uzilgan joyini aniqlash mumkin. Uzilgan simlar kavsharlab ta'mirlanadi.

Qarshiligi katta bo'lgan tutashmalarning nosozliklari voltmetr yordamida aniqlanadi (6.20-rasm).



6.20-rasm. Qistirmalarning qarshiligini aniqlash: a va b voltmetri ulash sxemasi.

Qismlardagi kuchlanishning pasayishini *a* variant bo'yicha tekshirilganda ikki marta o'lchash natijalari solishtirib aniqlanadi, *b* variantda esa voltmetr kuchlanish pasayishining haqiqiy qiymatini ko'rsatadi. Kuchlanish pasayishini aniqroq o'lchash uchun, *b* variantda shkalasi 0-2 V bo'lgan voltmetr qo'llaniladi.

Qisqa tutashuv joylari nazorat lampasi yordamida aniqlanadi. U akkumulyator batareyasining klemmałari orasiga ularadi va o'tkazgich bilan ajratib qo'yiladi. Dastlab zanjirda tok manbaidan ajratgichlargacha qisqa tutashuv borligi tekshiriladi. Buning uchun ular «Uzilgan» («Выключено») holatiga qo'yiladi. Lampaning yonishi tekshirilayotgan zanjirda qisqa tutashuv borligini ko'rsatadi. Undan so'ng zanjirning har bir uchastkasi ajratgichdan navbatma-navbat tok manbai yo'nalishida ajratiladi. Agar nazorat lampasi yonmasa, iste'molehi zanjirda qisqa tutashuv borligidan darak beradi. Zanjirda qisqa tutashuv bo'lgan iste'molechini aniqlash uchun iste'molchilar navbatma-navbat ularadi. Agar iste'molchi ishlamaganda nazorat lampasi yonsa, bu tekshirilayotgan zanjirda nosozlik borligini ko'rsatadi.

Qisqa tutashuv izolyatsiyasi shikastlangan sim qismini massadan ajratib, izolyatsion tasma bilan o'rab qo'yish kerak.

Sim o'rnatilgandan so'ng zanjirdagi kuchlanishning pasayishi tekshiriladi. Uning qiymati 0,5-0,6 V dan oshmasligi lozim.

Startyor simida kuchlanishning pasayishi har 100 A ga 0,12-0,20 V gacha bo'lishiga ruxsat etiladi.

Nazorat savollari

1. Ishlatish davrida generatorda qanday nosozliklar va to'xtovlar sodir bo'lishi mumkin?
2. Ampermetrda kuzatiladigan katta zaryadlash toki generatorda qanday nosozlik borligini ko'rsatadi?
3. Generatordagi shovqin va taqillashlar qanday sabablarga ko'ra sodir bo'ladi?
4. Ishlatish sharoitida generatorlarning sozligi qanday tekshiriladi?
5. Generatorda teskari qutblikdagi diodlar qanday tekshiriladi?
6. Generatorlarining uyg'otish g'altagini holatini tekshirish jarayonini tushuntirib bering?
7. O'zgaruvchan tok generatorini yarim o'tkazgichli to'g'riligich bilan tekshirish qanday olib boriladi?

8. Generator statorining g'altak chulg'amlaridagi tarmoqlararo tutashuv sodir bo'lishi qanday tekshiriladi?
9. Generator to'g'rilaqichi diodlarning sozligi qanday tekshiriladi?
10. Qaysi holda generator rotor valining podshipniklari almashtiriladi?
11. Generator statorining chulg'ami butunligi qanday nazorat qilinadi?
12. Generatorlarni sinash tartibini tushuntirib bering.
13. Selenli to'g'rilaqichni tekshirish qanday olib boriladi?
14. Rele-regulyatorni ta'mirlash tartibini tushuntiring.
15. Rele-regulyatorining himoya relesining ishlab ketishi qanday tekshiriladi?
16. Rele-regulyatorning normal ishlashi qanday nazorat qilinadi?
17. Diodlarining holati qanday tekshiriladi?
18. Rele-regulyatorlar ta'mirlangandan so'ng qanday sinaladi?
19. Startyorlarni traktorlardan foydalanish davrida qanday ta'mirlanadi?
20. Startyorning nosozliklari nimalardan iborat?
21. Startyor yakori aylanmasdan ildirish mexanizmining elektromagnit relesining ishlab ketishi qanday sabablarga ko'ra sodir bo'ladi?
22. Dizel yurgizilgandan so'ng startyorning ajralmasligi qaysi sababga ko'ra sodir bo'ladi?
23. Qanday sabablarga ko'ra startyor tomonidan iste'mol qilinadigan tok kattalashadi?
24. Traktoring tok yuruvchi qismlarini va asboblarini ta'mirlash jarayonlarini tushuntirib bering.
25. Kondensatorning izolyatsiyasi qanday tekshiriladi?
26. Akkumulyatorlar baklari oraliq devorlarining elektr o'tkazuvchanligini sinash qanday olib boriladi?
27. Akkumulyatorning tok o'tkazuvchi qismlari aktiv qarshiligini aniqlash tartibini tushuntiring.
28. Moy bosimining elektr impulsli ko'rsatkichini tekshirish va rostlash qanday olib boriladi?

29. Datchiklarning nosozliklari va ularning belgilari nimalardan iborat?

30. Qabul qilgichni tekshirish, rostlash va ta'mirlash qanday olib boriladi?

31. Avariya harorati signalizatorining datchigini tekshirish jarayonini tushuntiring.

32. Elektromagnit yonilg'i sathining ko'rsatkichini tekshirish, ta'mirlash va rostlash qanday olib boriladi?

33. Ampermetrni tekshirish va rostlash qanday olib boriladi?

34. Induksion spidometrlarni tekshirish va rostlash jarayonini tushuntiring.

35. Yurgizib yuborish dvigatelining magnetosini ta'mirlash qanday olib boriladi?

36. Elektr simlarini ta'mirlash qanday olib boriladi?

7- BOB. ELEKTR JIHOZLARINING AGREGAT VA ASBOBLARINI KAPITAL TA'MIRLASH

Elektr jihozlari detallarining nosozliklari mexanik va elektr xarakterga ega. Mexanik nosozliklar avval keltirilgan texnologik usullar bilan ta'mirlanadi. Elektr jihozlarda uchraydigan o'ziga xos yoki tez-tez uchrab turadigan nosozliklarni ta'mirlash texnologiyasini ko'rib chiqamiz.

7.1. Elektr jihozlari detallarini yuvish va tozalash

Detallarni yuvish va tozalash sifati ko'p jihatdan ta'mirlangan buyumning sifatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Ifoslangan detallarni tozalash uchun sintetik yuvuvchi vositalarning suvdagi eritmalarini keng qo'llaniladi, ularning tasnifi 7.1-jadvalda keltirilgan.

Quyida elektr jihozlarining detallarini ta'mirlashda qo'llaniladigan yuvuvchi mashinaning tuzilishi ko'rib chiqilgan.

7.1-jadval

Yuvivchi vositalarning nomi	Qo'llash usuli	Miqdori 11 suvda, g/dm ³	H Harorati, °C
ML-51	Oqim bilan	15-30	70-85
ML-52	Vannada, oqim bilan	26-30	85-100
I abomid- 101	Oqim bilan	10-20	70-85
I abomid- 203	Vannada	15-30	70-85
MS-5	Oqim bilan	25-35	85-100
MS-6	Oqim bilan	10-25	70-85
MS-8	Oqim bilan Vannada	10-20 20-30	70-85 85-100

Yuvish mashinasida bajariladigan ishlar taysisi

1. Yuvish kamerasi besh bo'linnali: 1-bo'linnmada quyidagi tarkibli eritma qo'llaniladi: kalsiyli soda 6-12 g/l; natriy uch fosfati

15-25 g/l; suyuq shisha 0,8-1 g/l, ushbu tarkib o'rniga keyingi paytlarda 30 g/l «Labomid-101» qo'llanilmoqda. Yuvuvchi eritmaning harorati 80-85°C; 2-bo'linmada eritma qoldiqlarini sizdirish; 3-bo'linmada 70-80°C isitilgan suvda chayib olish; 4-bo'linmada detal sirtidagi suv qoldiqlarini sizdirish; 5-100°C haroratgacha qizitilgan havo bilan quritish.

2. Diametri 3,5 mm bo'lgan 50 ta soplolar orqali yuvuvchi suyuqlikni berish.

3. Diametri 3,5 mm bo'lgan 36 soplolardan chayib olish uchun suv berish.

4. Hajmi 5,5 m³ bo'lgan yuqorida joylashgan yuvuvchi suyuqlik rezervuari.

5. Hajmi 2,58 m³ bo'lgan yuqorida joylashgan detalni chayish uchun suv rezervuari.

6. Rezervuardan ZKM-6 nasosi bilan yuvuvchi suyuqlikni uzatish.

7. Rezervuardan soplolarga chayib oluvchi suvni uzatish.

8. Ishlatilgan yuvuvchi suyuqlikni yuvish kamerasi tagligidan rezervuarga 2,5NF nasosi bilan qaytarish.

9. Ishlatilgan chayqab olish suvini yuvish kamerasi tagligidan rezervuarga 2KM-6a nasosi bilan qaytarish.

10. To'lgan rezervuarning saqlagichi qalqovichli xilda bo'lib, VK-111 oxirgi o'chirgichiga ega.

11. Chayqab oluvchi suyuqlikni yuqorigi rezervuarlarda gidrosiklon va tindirish bilan tozalash.

12. Agregat va detallarni yuvishga osma transportyor bilan uzatish.

13. Yuqorigi rezervuarlardagi suyuqliklarni bug' registrlari bilan isitish.

Yuvish mashinasining tuzilishini ko'rib chiqamiz. Yuvish mashinasi asosiy to'rt uzel-, yuvish kamerasi, yuvuvchi eritma rezervuari, suv rezervuari va nasos qurilmasidan iborat. Qurilma besh bo'linmadan iborat bo'lib, ular bir-birlaridan kapron pardalar bilan ajratilgan.

Qurilmaning birinchi bo'linmasida detallar soplordan otlib chiqayotgan eritma oqimi bilan yuviladi. Yuvuvchi suyuqlik eritmasi 0,5 MPa ga yaqin bosim bilan 50 ta kapron soplolardan uzatiladi.

ular uzatish trubkalari bilan sharnirli birikkan bo'lib, uning yordamida otilib chiqayotgan suyuqlik oqimining eng maqbul yo'nalishini tanlash mumkin.

Yuvish mashinasining ikkinchi bo'limida yuvuvchi eritmaning qoldiqlari yuvilgan detallardan oqib tushadi. Bunda ikkala bo'linma umumiyl taglikka ega. Taglikning eng past qismiga gardish payvandlab qo'yilgan bo'lib, unga truboprovod ulanib, u 2,5 NF nasosiga boradi.

Uchinchi bo'linmada eritma izlari issiq suvda yuviladi. Bunda issiq suv 36 kapron soplolar orqali beriladi. Ushbu soplolarning tuzilishi, yuvish jarayonida qo'llaniladigan soplolar bilan bir xil.

To'rtinchi bo'linmada agregatlar sirtidagi qoldiq issiq suvning oqib tushishi sodir bo'ladi.

Uchinchi va to'rtinchi bo'linmalar, birinchi ikki bo'linmadagidek umumiyl taglikka ega. Ikkala taglik ham suyuqlikning oqishi va to'planishi uchun qulay bo'lgan shaklga ega. Taglikning eng pastki qismiga gardish payvandlab qo'yilgan, unga 2KM-6a nasosiga boruvchi truboprovod ulangan.

Beshinchi bo'linmada yuvilgan agregatlar harorati 100°C bo'lgan issiq havo bilan quritiladi. Qurituvchi issiq havoni tekis tarqatish maqsadida, u kaloriferlar orqali shipga uzatiladi. Tekis tarqatish shipi ugoloklar va qalinligi 1 mm bo'lgan listdan parallelepiped shaklda payvandlanib yasalgan. Uning pastki qismida o'chhami 200x50 mm bo'lgan teshik kesilgan. Havoni tekis tarqatish shipi bo'linmaning yuqori qismiga boltlar bilan qotirilgan. Bo'linma yon qismining pastiga ventilyatorga chiqish uchun patrubka yasalgan. Yuvish kamerasi barcha tomonidan penoplast bilan issiqlikdan izolyatsiya qilingan. U tashqi tomonidan qalinligi 1,6 mm bo'lgan po'lat list bilan qoplangan.

Yuvish kamerasining karkasi shveller 5 dan, ugoloklar 2, 5 dan va qalinligi 4 mm bo'lgan listdan payvandlab yasalgan. Bo'linmalarni bir-birlaridan ajratib turuvchi pardalari kapron ipdan tayyorlanadi va boltlar bilan kamera korpusiga qotiriladi.

Kameraning uchinchi bo'linmasida mashinaga xizmat ko'rsatish va soplolarni tozalash uchun ikki dona ajraladigan qopqoq mavjud. Ushbu qopqoqlar ham issiqlikdan izolyatsiya qilingan.

Yuvuvchi eritma uchun rezervuar, yuvuvchi kameraning birinchi va ikkinchi bo'linmalarining tepasida joylashgan. U tayanch ramasiga o'rnatiladi.

Rezervuar murakkab shaklga ega bo'lgan konstruksiya bo'lib, uning tepasi uchta qopqoq yordamida yopilgan. Uning barcha tomonlari penoplast bilan issiqlikdan izolyatsiya qilingan, tashqi tomonidan esa qalinligi 1.6 mm bo'lgan po'lat list bilan qoplangan. Rezervuar karkasi 5 va 10 sonli shvellerlar, 3, 2, 5 sonli ugoloklar va qalinligi 4 mm bo'lgan listdan payvandlanib yasalgan. Rezervuar ikki bo'linmadan iborat. Unga quyidagi jihozlar o'rnatilgan: eritmani tozalash uchun gidrosiklonlar; moy ajratgich; qalqovichli sathni rostlovchi; suyuqlik sathini chegaralovchi; zatvorlar; bug' registrlari; sathni ko'rsatkich va truboprovodlar.

Gidrosiklonlar eritmadan og'ir aralashmalarni jadalroq ajratib olish uchun qo'llaniladi. Gidrosiklon yuqorigi silindrik qismdan (unga silindrning devoriga urinma qilib so'rish trubasi chiqarilgan) va konus qismlardan tuzilgan. So'rish trubasi silindrning gorizontal tekisligiga nisbatan 4° ga nishablikda o'rnatilgan, bu nishablik konusning pastki asosida yuvuvchi suyuqlikning oqim yo'naliшини hosil qilish uchun zarur. Markazdan qo'chma kuch ta'sirida konus ichida suyuqlik aylanganda, og'irroq bo'lgan zarrachalarning ajralishi sodir bo'ladi, ular konusning yasovechisi bo'yicha sirpanib, rezervuarning birinchi bo'linmasiga tushadi. Tozalangan eritma tepaga uzatilib, truboprovod bo'yicha ikkinchi bo'linmaga uzatiladi, u yerda eritmaning keyingi tindirilishi sodir bo'ladi.

Moy ajratgich yuvuvchi suyuqlikdan moyni ajratish va uni ventilga oqizib yuboruvchi truba o'rnatilgan alohida bo'limga yig'ish uchun mo'ljallangan. Moy ajratgich bak ichiga joylashtirilgan izolyatsiyalangan metall g'ilofsi sifatida tasavvur qilish mumkin. G'ilof kiritish tuynukehasiga ega bo'lib, u bakdagi eritmaning sathida joylashgan bo'ladi. Shunday qilib, eritmaning sathi ko'tarilganda yoki uning sathi o'zgarganda, eritmada suzayotgan moy qatlami g'ilof ichiga kiradi. G'ilof ichida g'ilofning qayta-quyish trubasi balandligiga teng bo'lgan sathda suyuqlik ushlab turiladi, u orqali eritma korxona timitgichiga o'tishi mumkin. Tindirgichdag'i eritma sathi rezervuardagi eritmaning umumiy

sathidan pastroq joylashgan bo'ladi. G'ilofning ichki qismiga to'siqchalar o'rnatilgan bo'lib, u g'ilofni ikki qismiga bo'ladi, ularning birida kiritish tuynukehasi joylashgan. Ushbu to'siqda ikki tuynukcha mayjud bo'lib, ulardan biri g'ilofdagi suyuqlik sathidan pastroq joylashgan qayta quyish trubasiga ega, ikkinchi tuynukcha esa g'ilofning birinchi yarmini pastki tuynuk bilan tutashtiradi.

G'ilofning birinchi yarmiga tushuvechi moyli eritma zichligining pastligi tufayli pastki tuynukka tushmaydi, unda to'plangan moy yuqorigi tuynuk orqali moy yiqqichga o'tadi. Eritmadan ajratib olingan moyning ortiqchasi, pastki tuynuk orqali g'ilofning ikkinchi yarmiga kirib, qayta quyish trubasi orqali chiqib ketadi.

Nasosning so'rish trubasi, soplo kamerasi devorlar bilan o'ralgan bo'lib, uzatuvchi eritma bilan oziqlanishi uning pastidan sodir bo'ladi. Devorlar so'rish trubasidagi moyni ifloslashtirmaslik uchun kerak.

Sathning qalqovichli chegaralagichi rezervuar to'lib ketishining oldini olish uchun mo'ljallangan. U payvandlab yasalgan korpus, qalqovich, richag va VK-111 oxirgi uzgichidan tuzilgan. Rezervuardagi suyuqlikning sathi ortganda, qalqovich yuqoriga ko'tariladi va richag orqali oxirgi o'chirgichga ta'sir ko'rsatib, mash'al nasosini o'chirishga komanda beradi. Yuvish kamerasida ham shunday sathni chegaralagich o'matilgan, uning yordamida soploga yuvuvchi suyuqlik uzatuvchi ZKM-6 nasosini o'chiradi. Rezervuar ikki bunkerga ega. Har bir bunkerning pastiga boltilar bilan zatvor qotirilgan. U zadvijkanli ifloslanishdan saqlash uchun qo'llaniladi. Zatvor korpus, zaslona va zaslona dastasidan iborat. Zaslona o'qi atrofida 90° ga buriladi va cho'kmani tushirib yuborish teshigini ochib-yopadi.

Bug'li registrlarni yuvuvchi suyuqlikning ishechi harorati ($75-80^{\circ}\text{C}$) ni ishslash jarayonida ushlab turish uchun xizmat qiladi. Registrlar trubalardan payvandlanib yasalgan bo'lib, bak devorlariga kronshteynlarda osib qo'yiladi. Sathni ko'rsatkich rezervuardagi suyuqlikning sathini kuzatishga mo'ljallangan. U ikki uchlikdan va shisha trubkadan iborat bo'lib, uning sirtiga chiziqlar chizilgan.

Yuvish kamerasining suv rezervuari uchinchi va to'rtinchi bo'limmalar ustida joylashgan. U birinchi rezervuar o'rnatilgan

ramaga o'rnatiladi. Rezervuar murakkab shakldagi bak bo'lib, ustidan ikki dona qopqoq bilan yopilgan. Uning barcha tomonlari penoplast bilan issiqlikdan izolyatsiya qilingan. Rezervuar tashqi tomonidan qalinligi 1,6 mm bo'lgan po'lat list bilan qoplangan. Rezrvuar karkasi 5 va 10 sonli shveller, 3, 2 va 5 sonli ugoloklar va qalinligi 4 mm bo'lgan listlardan payvandlanib yasalgan. Rezervuar ikki bo'linmaga ega. U sathni qalqovichli rostlagich, suyuqlik sathini chegaralovechi, zatvorlar, bug' registrlari, sathni ko'rsatuvchi va keltiruvchi truboprovodlar bilan jihozlangan. Suv rezervuaridagi uskunalarining vazifasi va tuzilishi, yuvuvchi eritmaning rezervuaridagilar bilan bir xil sathda bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Ikki bakning zatvorlari to'kish kollektordi bilan juft qilib birlashtirilgan. Har bir kollektorda ikkitadan zadvijka o'rnatilgan bo'lib, ulardan biri yuvuvchi eritmani oqizib yuborish uchun, ikkinchisi esa chayqab oluvchi suv va yuvuvchi eritma uchun mo'ljallangan. Har bir smenaming oxirida cho'kma oqizib yuboriladi, buning uchun navbatma-navbat zatvorlar va zadvijkalar ochiladi. Dastlab suv rezervuaridagi cho'kindini oqizish uchun zadvijka ochiladi, undan so'ng esa ikkinchi zadvijka va ikkala zatvor ochiladi.

Nasos qurilmasi suyuqliknini va chayqab oluvchi suvni yuvish kamerasidagi va rezervuarlardagi sirkulyatsiyasini ta'minlash uchun xizmat qiladi. ZKM-6 nasosi yuvuvchi suyuqliknini yuqorigi rezervuardan yuvish kamerasining birinchi bo'linmasidagi soploga, 2,5NF mash'al nasosi esa suyuqliknini yuvish kamerasining ushbu bo'linmasidagi poddondan yuqorigi rezervuarga uzatadi. 2KM-6 nasosi chayish suvini yuqorigi rezervuardan yuvish mashinasining uchinchi bo'linmasidagi soploga, 2KM-6a nasosi esa suvni yuvish kamerasining ushbu bo'linmasidan yuqorigi rezervuarga uzatadi.

Yuvish eritmasi quyidagi tartibda tayyorlanadi: ximikatlarning to'yintirilgan eritmasi yuvish kamerasining poddoniga to'kiladi, u yerdan mash'al nasosi bilan yuqorigi rezervuarga haydaladi. Yuqorigi rezervuar vodoprovod tizimidan suvga to'ldiriladi. Undan so'ng ZKM-6 va 2,5NF nasoslari yurgiziladi. Suyuqlik biroz sirkulyatsiyalangandan so'ng aralashadi va isiydi. Ish jarayonida laboratoriya tahlili bilan eritma tekshiriladi, suyuqliknинг haroratini esa datchik va indikatoridan iborat bo'lgan

qurilma ko'rsatadi. Ushbu ikki omil (yuvuvchi eritmaning tarkibi va harorati) detallarni tozalash sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Mayda detallarni va podshipniklarni tozalash uchun kichik gabaritli yuvish mashinalari qo'llaniladi. Ular sanoat tomonidan seriyalik ishlab chiqariladi.

Kichik detallarni yuvishda oqim mashinalarida tozalab bo'lmaydigan smolalik yopishmalardan tozalashda ultratovush qurilmalaridan foydalaniлади. Ulardan UZV-18m ultratovush vannalarining ish unumi kattaroq, ularga nominal rezonans chastotasi 22 kGs bo'lgan to'rt ta PMS-6 magnitostriksion o'zgartiruvchi o'rnatilgan. Bunday vannalarda ultratovush manbai bo'lib chiqish quvvati 10 kVt bo'lgan UZG-2-10 generatori xizmat qiladi. Uning chastotasi 20,5-23,5 Gs chegarada rostlanadi. Generator tomonidan iste'mol qilinadigan quvvat 19 kVt ni tashkil qiladi.


7.2. Uchqunli o't oldirish svechalarini va cho'g'lanma svechalarini ta'mirlash

Uchqunli o't oldirish svechalarining o'ziga xos nosozliklari quyidagilardan iborat: izolyator issiqlik konusiga va korpusning ichki bo'shilig'iga qurumning yopishib qolishi; elektrodlar orasidagi tirkishning kengayishi; markaziy elektrod izolyatorining shikastlanishi, yonaki elektrondning sinishi; izolyator va korpus orasidagi germetiklikning buzilishi va rezbaning shikastlanishi.


Dvigatelning ishlashi jarayonida svecha elektrodlari orasidagi tirkish, asosan, uchqun razryadi hamda elektrod metallariga issiq aggressiv gazlar (NO_x , CO_x , SO_x) va yonilg'iga qo'shiladigan detonatsiyaga qarshi qo'shimchalar ta'sirida kengayadi.

Nosozliklarni ta'mirlash. Svechalar qurumdan qum oqimi bilan tozalangandan so'ng kerosinda yoki ishqor eritmasida yuviladi. Elektrodlar orasidagi tirkish rostlangandan so'ng (tirkish 0,6-0,7 mm) svechaning germetikligi yonaki elektrodnii egib uchqun bosil qilish hisobiga va maxsus (7.1-rasmida keltirilgan) qurilmada sinaladi. Ikki simli cho'g'lanma svechalarining o'ziga xos nosozliklari quyidagilardan iborat: svecha o'zagining dvigatel massasiga qisqa tutashuvi, o'zak va svecha markaziy sterjeni

o'rtaida yuzaga keladigan qisqa tutashuv, spiralning kuyishi va uzilishi.



7.1-rasm. Uchqunli o't oldirish svechalarini tekshirish sxemasi; 1-siqish sxemasi; 2-nasos; 3-manometr; 4-kuzatish oynasi; 5-sinaladigan svecha; 6-uchqun razryadini bergich; 7-induktsion g'altak; 8-udash tugmachasi.



7.2-rasm. Cho'g'lamma svechani tekshirish; 1-vtdka; 2-korpus; 3 va 5-gayka; 4-markaziy shifti; 6-gayka; 7-spiral.

Ayniqsa, dvigatelga tarkibida ko'p oltingugurt bo'lgan yonilg'i quyilsa, spiral korroziyadan jadal yemiriladi. Markaziy sterjen va svecha vtulkasida qisqa tutashuv bo'lib, ulardan juda katta tok o'tganda, markaziy sterjen gazlarning juda yuqori haroratida massaga ulanib qolganda spiral kuyadi.

Nosozliklarni bartaraf etish. Cho'g'lanish svechasingning qisqa tutashishi va massaga ulanib qolishi 7.2-rasmida keltirilgan sxemaga muvofiq tekshiriladi.

Qisqa tutashuv yonmayotgan markaziy sterjenga va svecha vtulkasiga ulanib, lampochkaga qarab aniqlanadi. Lampoehkani spiral va svecha korpusi oralig'iga ulab, svechaning massaga ulanib qolishi tekshiriladi. Tutashuv bo'lganda lampochka yonadi. Fa'mirlashda shikastlangan izolyatsiya yangisiga almashtiriladi. Yangi cho'g'lanma spiral 2 mm diametrli nixrom simdan yasaladi. Shikastlangan detallari almashtirilgandan so'ng svechani qaytadan qisqa tutashuvga va massaga tutashuvga tekshiriladi.

7.3. Ajratkich-taqsimlagichchlarni ta'mirlash

Taqsimlagichchlarni bo'laklarga ajratish. Taqsimlagichchlarni bo'laklarga ajratishda dastlab oktan-korrektorning qotirish bolti bo'shatiladi. Buning uchun taqsimlagich yig'ilgan holda, bo'rtib chiqqan detallar chuqurchasi bo'lgan maxsus vertikal taglikka o'rnatiladi. Taqsimlagich korpusining uch tomoni yuqoriga yo'naltirilgan. Taqsimlagich korpusini bir qo'l bilan ushlab, ikkinchisi bilan elektromexanik ochgichning shpindelini bolt kallagiga keltiriladi va M6 bolt bo'shatiladi. Oktan korrektor va rostlovechi plastinalar taqsimlagich korpusidan chiqarib olinadi. Furli modeldagagi taqsimlagichclarining oktan-korrektorning konstruksiyalari bir-birlaridan farq qilsa-da, ko'rsatib o'tilgan bo'laklarga ajratish operatsiyalarini muvofiqlashtirishga xalaqtir bermaydi.

Undan so'ng taqsimlagichning holati o'zgartirilib, ikkinchi gorizontal holatga o'rnatiladi. So'ng korpus aylanasi bo'yicha joylashgan vintlar ketma-ket bo'shatiladi. Bir qo'l bilan korpus ushlanib va burilib turiladi, ikkinchisi bilan esa elektromexanik ochgichning uchi korpusga keltiriladi. R119 va R119-B taqsimlagichlarida dastlab kondensator simini qotirish vinti bo'shatiladi, undan so'ng esa navbatma-navbat kondensatorni ikki ta

qotirish vinti, uzgich plastinasining qotirish vinti, vakuum-rostlagichning qotirish vintlari bo'shatiladi. Undan so'ng ochgich bilan vakuum-rostlagich tortqisining uchini ko'tarib uzgich plastinasining ustuniga mos keluvechi tortqisi chiqariladi. Elektromexanik ochgich bilan uzgich plastinasini qotiruvchi ikkinchi vint va vakuum-rostlagichni qotirish ikkinchi vinti bo'shatiladi. Vakuum rostlagich va uzgichning plastinasi chiqarib olinadi. R4 va R13 taqsimlagichlarda ko'rsatilgan o'tishlardagi asosiy farq shundan iboratki, ularning korpusida kondensator yo'q, R4-V2 va R13-V2 taqsimlagichlarida kondensator uzgich plastinasiga qotiriladi, bo'laklarga ajratish jarayonida plastina bilan birgalikda ajratiladi. R4-D1 va R13-D taqsimlagichlarida esa umuman kondensator yo'q. Bulardan tashqari R4, R13, R18 taqsimlagichlarining R20, R119, R119-B lardan farqi, uzgich plastinasining korpusga qotirilishiда farq mavjud, agar oxirida ko'rsatilgan modellarida plastina korpusga ikki vint bilan qotirlisa, R4 va R13 modellarida esa teshik orqali o'tuvchi va maxsus pishang jismiga vint kirib turadi. Ushbu vintlarni bo'shatish uchun R4, R13, R118 taqsimlagichlar korpus cheti ostqo'yma teshigiga vertikal holatda o'rnatiladi.

Plastinani olishdan avval izolyatsiyalangan o'tkazgichni chiqish simidan uzish, buning uchun uning qotirish gaykasini bo'shatish kerak. Undan so'ng tashqi izolyatsiyalash vtulkasi bo'shatiladi va uzilgan ikkala ichki va tashqi vtulkalar chiqarib olinadi.

Qo'lda yoki gaykali kalit yordamida maslyonka qopqog'i taqsimlagich korpusidan chiqarib olinadi.

Undan so'ng, valik oxiridagi vtulka parchin mixi bilan qotirilgan bo'lsa, parchin mix kallagi kesib tashlanadi yoki uning sterjeni shlitfovkalanib, parchin mix presslab chiqariladi va vtulka chiqarib olinadi. Bundan keyin markazdan qochma rostlagich yig'ilgan holda korpusdan chiqarib olinadi. Bo'laklashda mustadan prujina chiqarib olinadi va shtift presslab chiqariladi, so'ng musta yig'ilgan holda olinadi. Bunday uzellarni bo'laklarga ajratish va ta'mirlash maxsus postlarda olib boriladi.

Markazdan qochma rostlagichni bo'laklarga ajratish va yig'ishni ushbu bo'limmaning o'zida olib borishdan tashqari, uni bo'laklarga ajratish bo'limmasida olib borish varianti ham bo'lishi

mumkin. Bo'laklash jarayoni ko'rib chiqilgan taqsimlagichlarda kulachokni valikda ushlab turish tagiga shayba qo'yilgan qulfi halqa yordamida amalga oshiriladi. Bo'laklarga ajratishda maxsus asbob yordamida halqa olib tashlanadi va ajratgich moslamasi yordamida valikdan kulachok chiqarib olinadi. R118 taqsimlagichlarida kulachokni valikka qotirish valik uchiga burab kiritiladigan vint yordamida amalga oshiriladi, vint tagiga prujinali shayba qo'yilgan. Ushbu vint elektromexanik oehgich yordamida ochiladi. Undan so'ng yuqchalarining prujinalari, ularning stoporlovchi halqalari va prujinalar chiqarib olinadi. Taqsimlagich detallari bo'laklarga ajratib bo'lingandan va yuvish mashinalarida tozaolangandan so'ng, ular nazorat qilish-saralash uchastkasiga yuboriladi.

Ajratgich-taqsimlagich detallarining nuqsonlari.

Ajratgich-taqsimlagich detallarining asosiy nuqsonlari ishehi aralashmalarining yonishida uzilishlar bo'lishi, ayrim hollarda svecha elektrodlarida uchqun razryadining bo'lmay qolishi hisoblanadi.

Ajratgich-taqsimlagichning o'ziga xos nuqsonlari quyidagilardan iborat: ajratgich kontaktlarida uchqunlanishning ko'payishi; kontaktlar orasidagi tirkishning kattalashuvi yoki kichiklashuvi; markazdan qochma ajratgich va vakuum rostagich richagi prujinasining kuchsizlanishi va sinishi; kulachok bo'rtmasining yeyilishi; valik vtulkasining yeyilishi; vakuum rostagichi germetikligining buzilishi; rotor va taqsimlash qopqog'ining iflosanishi; ularda darzlarning paydo bo'lishi.

Kondensatorning yomon qotirilishi yoki uning nosozligi, kontaktlarning moylanib qolishi, kontaktlardagi tirkishning kichiklashuvi, generator tarmoqlarining tutashib qolishi oqibatida kontaktlarda uchqun paydo bo'lishi mumkin. Bu nuqson kontaktlarning tezda oksidlanib qolishiga, ularning elektroerozion yeyilishiga va oraliq qarshilikning ortib ketishiga olib keladi.

Richag yostiqchasi yeyilganda yoki noto'g'ri rostlanganda kontaktlar orasidagi tirkish qisqaradi, bundan tashqari ularning noto'g'ri rostlanishi natijasida tutashuv paytida ajratgich valigining katta aylamishlar chastotasida kontaktlarning tebranishi ortib ketadi.

Vakuum rostlagichning germetikligi diafragma yoki shtutser tagidagi qistirmaning shikastlanishi oqibatida va qopqoq darz ketgan hollarda sodir bo'ldi.

Nosozliklarni bartaraf etish. Ajratgich-taqsimglagichdagi ko'pchilik nuqsonlar u maxsus stendda sinalganda aniqlanadi. Kontaktlarning oraliq qarshiliklari kontaktlardagi kuchlanishning pasayishiga qarab tekshiriladi. Tekshirish natijalari esa ularning holatini xarakterlaydi.

Kontakt yopiq bo'lгanda millivoltmetr bo'yicha kuchlanishning pasayishi aniqlanadi, uning qiymati 0,1 V dan katta bo'lmasligi lozim. Kontaktlar oynali qumqog'oz bilan yoki yupqa yalpoq nadfil bilan tozalanadi. Volfram kontaktlarning yeyilishi sezilarli bo'lган hollarda ular almashtiriladi. Yangi kontaktlar esa kumush kavshar PS-70 bilan kavsharlanadi.

KI-968 stendida ajratgich kontaktlarning tutashuv holatdagi burchagi, ular ishlayotgan paytidagi tokning o'rtacha qiymati bo'yicha aniqlanadi. Ajratgich kontaktlarining tutashuv holatda bo'lish burchagi $7 \pm 0,1$ gacha ruxsat etiladi.

Firqish rostlangandan so'ng dinamometr orqali ajratgich richagi prujinasi kontaktlari ajralishining boshlanish paytidagi tarangligi aniqlanadi. Kuchsizlangan richag prujinasi almashtiriladi.

Taqsimglagich davriylikka va o'z vaqtida to'xtovsiz uchqun hosil qilishga sinalganda kulachok, yuritma valigi va vtulkalarning yeyilish darajasi aniqlanadi. Buning uchun taqsimglagich katta kuchlanishi disk klemmasiga ulanadi va taqsimglagich valining 200-250 ayl min aylanishlar chastotasida uchqunlanishning to'g'ri sodir bo'lishi kuzatiladi. Agar sinov natijalari qoniqarsiz bo'lsa, dastlab harakatlantiruvchi valikning ko'ndalang siljishi tekshiriladi. Agar ko'ndalang yo'nalishda siljimasa, yeyilgan kulachok va mis-grafitdan yasalgan vtulkalar yangisiga almashtiriladi.

Faqsimlagichning markazdan qochma rostlagichi o't oldirishni ilgarilatuvchi burchak qiymati bo'yicha tekshiriladi. O't oldirishni ilgarilovchi burchak gradatsiyalangan diskda, valining malum aylanishlar chastotasida, uchqun hosil bo'lishning siljishi bo'yicha aniqlanadi. Agar uning ko'rsatkichlari me'yordan chetga chiqqan bo'lsa, rostlagich prujinasi osmasining stoykasi bukib rostlanadi. Stoykani aylanish o'qi tomon bukib, o't oldirishni

ilgarilovchi burchak kichiklashtiriladi, teskari tomonga bukilganda esa bu burchak kattalashadi. Agar bunday rostlash bilan zarur bo'lgan o't oldirishni ilgarilovchi burchakni hosil qilib bo'lmasa, prujina yangisiga almashtiriladi. Prujinani almashtirishda shunga ahamiyat berish kerakki, ulardan birining elastikligi yuqori. Bu prujina cho'zmasdan qotiriladi. Elastikligi pastroq bo'lgan prujinani tortibroq qotirish lozim. Turli elastiklikka ega bo'lgan prujinalarning qo'llanilishi, o't oldirishni ilgarilovchi burchakni dvigatelning tezlik rejimida o'zgarishiga qarab o'zgartirish imkonini beradi.

Vakuum-rostlagichning ishlashini tekshirishdan avval u germetiklikka sinaladi.

Tizimning germetikligi vakuum-nasos tomonidan hosil qilinadigan vakuumning pasayishi bo'yicha tekshiriladi. Uning germetikligi diafragmani yoki shtutser ostidagi qistirmani almashtirish yo'li bilan tiklanadi.

Vakuum-rostlagich yuritma valining ma'lum aylanishlar chastotasida va vakuum-nasos tomonidan hosil qiladigan vakuumda tekshiriladi. Gradatsiya diskida uchqun hosil bo'lshining siljishi bo'yicha vakuum rostlagichning to'g'ri rostlanganligi aniqlanadi.

O't oldirishni ilgarilovchi burchak vakuum-rostlagichni qotirish vinti oval kesiklarida siljitim va prujinaning tarangligini, uning chetidagi shaybalar sonini o'zgartirib rostlanadi. Undan so'ng taqsimlagich maksimal aylanishlar chastotasida va vakuum-rostlagich hosil qilgan to'liq o't oldirishni ilgarilovchi burchakda va vakuumsiz uchqun hosil qilishning uzlusizligi tekshiriladi.

7.4. O'zgaruvchan tok generatorlarini ta'mirlash

Generatorni bo'laklarga ajratish. G 250 generatorining barcha modifikatsiyalari hamda G 270A va G 271 generatorlarida bajariladigan operatsiyalarning ketma-ketligi va ta'mirlashda qo'llaniladigan qurilmalar bir-birlaridan farq qilmaydi. Bu holat ko'rsatib o'tilgan generatolarning afzalliklarini ko'rsatadi. Quyida G 250L1 generatorining bo'laklarga ajratish jarayoni ko'rib chiqilgan.

Generatorlarning ko'pchilik detallarining moslashtirilishi va qolgan detallarning yuqori darajadagi o'xshashligi barcha bu modeldagi generatorlarni ta'mirlash bir korxonada tashkil qilishining

maqsadga muvofiqligini ta'minlaydi. Buning natijasida generatorlarni ta'mirlashning umumiy samaradorligi ortadi.

Generatorni bo'laklarga ajratish uni osma transportyor ilmog'idan chiqarib olishdan boshlanadi. Generator chilangarlik stoliga mahkamlangan maxsus taglikka o'rnatiladi. Dastlab ochgich kallakli pnevmatik gayka buragich bilan massa vinti 7X-1598 chiqariladi. X-401 prujinali shayba va VK143708053 skoba chiqarib olinadi. Undan so'ng shu asbobdan foydalanib, navbatma-navbat sharikli podshipnik qopqoq'ini qotiruvchi uch dona 8X-1541 bolt chiqarib olinadi, ushu qopqoq (G 250-3701060 detal) va uch dona X-1012 prujinali shayba chiqarib olinadi. Gayka buragichning kallagi ichki olti qirralikka almashtirilib, navbatma-navbat shchyotka tutgichning ikki qotirish bolti G 250-370106 bo'shatilib, shchyotkan'i tutgich kontakt halqalari tomonidan qopqoq chiqarib olinadi. Generator kontakt halqalari tomonidan rotor uchidagi gayka MX-0015, S-17 kallak bilan gayka buragich yordamida prujinali X-4289 va oddiy MX-0825 shaybasi chiqariladi. Avval ishlab chiqarilgan generatorlarning rotorda kontakt halqalari tomonida rezba bo'limganligi sababli avval ko'rsatilgan o'tish bo'lmaydi. S-17 kallakdan foydalanib shkvini qotirish gaykasi MX-0235 bo'shatilib, prujinali MX-0234 va oddiy NO-1002 shaybalar chiqariladi. Undan so'ng navbatma-navbat to'rt dona tortib turuvchi vint (ikkita MX-1252 va ikkita MX-1210) bo'shatiladi, buning uchun ochgich kallakdan foydalilanadi, to'rt ta prujinali shayba X-4001 chiqariladi.

Chiqarib olgich yordamida kontakt halqalari valdan chiqarib olinadi. Undan so'ng statordan fazalarining uchta chiqish uchi to'g'rilash bloklarining mos keluvchi uchidan navbatma-navbat uziladi, buning uchun M11-90118 uchta gaykani bo'shatiladigan S-8 mm kallakdan foydalanib uchta X-4001 prujinali shayba va fazalarining uchblari klemma sterjentari bilan birgalikda chiqarib olinadi. Stator olinib, qopqoqdan to'g'rilash bloki uziladi. Buning uchun ikkita gayka 8X-1533M bo'shatilib, shayba NO-1067, ikkita prujinali shayba X-4001, izolyatsiyalovchi vtulka G250A1-3701319 va kontakt bolti G250A1-3701352 chiqarib olinadi. Undan so'ng qopqoq teskarisiga aylantirilib, yarim dumaloq kallakli ikkita vint NO-0424 bo'shatilib, ikkita prujinali shayba X-1012 chiqariladi, vint 7X-4279 bo'shatilib, prujinali shayba X-4001 chiqariladi. Undan

so'ng qopqoqdan to'g'rilash bloki olinadi. Rotor valini shkivdan presslab qopqoqning yuritma tomonidan chiqarib olish uchun stolga o'rnatilgan reykalik press va uning tagfigidan iborat bo'lган moslamadan foydalanish mumkin. Ushbu operatsiyani bajarishda qopqoq taglikka tayanadi, rotor valning uchiga press puansonining kuchi qo'yilgan bo'ladi. Dastlab shkivdan rotor presslab chiqariladi, ventilator va vtulka olinadi. Undan so'ng shu moslamaning o'zida yuritma qopqog'i tomonidan rotor presslab chiqariladi. Generatorni ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan ushbu operatsiyani bajarish uchun qopqoqda ikkita erkin M6 rezbali teshik nazarda tutilgan. Biroq katta hajmdagi ishlab chiqarishda ushbu teshiklardan foydalanib ajratgichni qo'llash zarur bo'lган ish unumini ta'minlay olmaydi.

Bo'laklarga ajratishning oxirgi operatsiyasi bo'lib, reykalik pressda kontakt halqalari tomonidan 180502 K1S9Sh sharikli podshipnikni presslab chiqarish va qopqoqni yuritma tomonidan bo'laklarga ajratish hisoblanadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, sharikli podshipnik qopqoq bilan birqalikda kontakt halqalari tomonidan chiqarib olinadi. Bu holda ham uni qopqoq uyasidan chiqarib olish uchun ham maxsus taglik talab etiladi.

Qopqoq yig'ilgan holda yuritma tomonidan maxsus taglik yordamida o'matiladi va pnevmatik gayka buragich, kallak oehgich bilan navbatma-navbat maxsus shaybani qotiruvchi to'rtta vint bo'shatiladi. To'rtta prujinali va maxsus shayba chiqarib olinadi. Val rotoridan borodok va bolg'a shponka va tayanch kosasi va qirqimli halqa press yordamida chiqariladi. Bo'laklarga ajratiladigan generatorlarning qotirish va boshqa mayda detallari bo'laklash jarayonida chilangarlik dastgohi yacheysidagi maxsus idishlarga yig'iladi. Idish detallar bilan to'lganda, uni chilangarlik dastgohi yacheysidan olib, yuvuvchi mashinalarga olib kelinadi. Generatorning yirik detallari osma transportyorga osiladi yoki unga osilgan korzinalarga rotorlar, shkivlar, ventilatorlar joylashtirilib, yuvuvchi mashinaga keltiriladi. Generatorlar bo'laklarga ajratilganda barcha operatsiyalarning sifatlari bajarilishi ta'minlanishi va detallarning idishlarga to'g'ri joylashtirilishi kerak. Bo'laklarga ajratish sifati detallarning saqlanishiga va shu bilan bog'liq bo'lган ta'mirlash samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Generator qurilmasida uchraydigan nuqsonlar bu akkumulyatorlar batareyasining zaryadlanishi yoki zaryadlanmasligi hisoblanadi. Bunga sabab generator to'g'rilaqichining yoki relestlagichning nosozligi hisoblanadi.

Qurilmaning alohida agregatlarini tekshirishdan oldin, generator klemmalariga, to'g'rilaqichga va rele-rostlagichga ularanadigan simlar kontaktlarining puxtaligiga ishonch hosil qilish kerak. Faza klemmalarida uzilgan simlar o'zgaruvchan tok voltmetrlarida kuchlanishi 12 V bo'lgan nazorat lampalari bilan tekshiriladi. Dvigatel tirsaklı vali 600-800 ayl/min aylanish chastotasida generatordaning har bir klemmasiga navbatma-navbat voltmetr massaga yoki lampa klemmasiga ularadi. Agar kuchlanish voltmetr bo'yicha 12 V yoki undan katta bo'lsa va lampa to'liq cho'g'lanib yonsa, generator soz hisoblanadi.


Uyg'otish chulg'ami yoki statorning ishdan chiqishi, shehyotkalarning osilib qolishi yoki tutashuv halqalarining oksidlanishi oqibatida generatorda nosozlik vujudga kelishi mumkin.

O'zgaruvchan tek generatorini ta'mirlash uni qismlarga ajratishdan boshlanadi. Qismlarga ajratishdan avval cho'tka uzelining sozligiga ishonch hosil qilish kerak, chunki ularda tutashuvning buzilishi, ularning oksidlanishi, tutashuv halqalarining moylanib qolishi, cho'tkalarning kattaroq yeyilishi yoki cho'tka tutgicelarining osilib qolishi, cho'tka tutkich prujinalarining elastikligi pasayishiga, zanjirdagi uyg'otish qarshiligining ortib ketishiga sabab bo'ladi. Natijada uyg'otish toki anchaga pasayadi, unga mos holda generatordaning quvvati ham tushib ketadi.

Generatorlarda elektr nosozliklardan tashqari mexanik nosozliklar ham sodir bo'ladi. Masalan, podshipniklarning yeyilishi va buzilishi, rotor vali bo'yinlarining yeyilishi, val va shkiydag'i shponka uyasining yeyilishi, val, gayka va boshqalardagi rezbaning shikastlanishi. Nosozliklarning ayrimlari generator qismlarga ajratilganda tashqi nazorat bilan aniqlanadi.

Statordagi nosozliklarni ta'mirlash. Statorlarda chulg'anilar tarmoqlarining massa tutashuvi ko'proq uchraydi. Bunday nosozlik bir yoki bir necha g'altakning izolyatsiyasi buzilganda sodir bo'ladi. Izolyatsiyasi shikastlangan g'altakni avval


tekstolit ponalardan ajratib, so'ng stator ariqchalaridan chiqarib olinadi.



7.3-rasm. G 250-A1 statori g'altagini joylashtirish: 1-g'altak oxiri; 2-g'altak boshi; H_1 , H_2 va H_3 -l-; 2- va 3-fazalarning boshlaniши; K_1 , K_2 va K_3 -l-; 2- va 3-fazalarning oxiri.

G'altaklarni stator ariqchalariga o'rnatishdan oldin, ariqchaga EV yoki EVS markali elektrotexnik karton izolyatsiyasi yotqiziladi. Stator g'altaklari ariqchalariga tekstolitdan pona qoqib qotirilib qo'yiladi. G 250 tipidagi generator fazalarining g'altaklari ketma-ket ulangan bo'lib, ular quyidagi tartibda joylashtiriladi. 1-g'altakning 1-fazasi statoring tishlariga kiydiriladi, shartli ravishda qabul qilingan 1-, 2- g'altaklarga ikkita tishini tashlab, 3-siga kiygiziladi (7.3-rasm). Shu tartibda 2- va 3-fazalarning g'altaklari joylashtiriladi. Har bir g'altak uch qatlam o'ralgan tarmoq: ikki qatlamli besh tarmoq, yuqorigisi esa uch tarmoqdan iborat. Fazalarning chiqqan uchlari ko'rsatilgan o'lchamda kesiladi va 6-8 mm uzunlikda emaldan tozalanadi. Fazalarning tozalangan uchlarni

birgalikda burab POS-40 kavshari bilan kavsharlab qo'yildi, buralgan joyiga esa 4 mm lik diametrga ega bo'lgan xlorvinil trubka (naycha) kiydiriladi. Stator fazalarining tozalangan uchlariga diametri 2,5 mm bo'lgan xlorvinil trubka kiygizilib, ularning uchlari kavsharlab qo'yildi. Stator g'altaklariga GE-95 yoki ML-92 loki shimdirliladi, so'ng 100-200°C da 4 soat davomida quritiladi.



7.4-rasm. Generator chul-g'amlarining sxemasi; H_1 , H_2 va H_3 -lari, 2- va 3-fazalarning boshlanishi; K_1 , K_2 va K_3 -lari, 2- va 3-fazalarning oxiri.

G'altak izolyatsiyasining namga, issiqlikka bardoshliligini va tarmoqlarning o'zaro qotirishini ta'minlash maqsadida lok shimdirliladi.

Megometr yordamida izolyatsiyaning qarshiligi o'lchanadi va statorning chulg'amlarida fazalararo qisqa tutashuv bor-yo'qligi tekshiriladi.

Stator ariqchalariga soat mili yo'nalishi bo'yicha uch fazali chulg'am g'altaklari 6.4-rasmda ko'rsatilgandek yotqiziladi. G 285 generatori uchun o'n sakkizta g'altak yasaladi. Statorning har bir

fazasi uzlusiz ulangan g'altakdan iborat. Har bir g'altak ikki qatlam qilib o'ralgan beshta tarmoqdan tuzilgan: 1- qatlamda uchta tarmoq, 2- qatlamda ikkita tarmoq mavjud.

Rotorlardagi nosozliklarni ta'mirlash. Rotorni ta'mirlashda uning uyg'otish chulg'ami almashtiriladi, tutashuv halqasi yo'niladi yoki almashtiriladi, sharikli podshipnikning valdag'i o'rnatish joylarining yeyilishi bartaraf etiladi.


G 250 tipidagi o'zgaruvchan tok generatorlarida rotor qutblari va vtulkalari valga presslab, G 285 generatorida shponka va gayka yordamida qotirib mahkamlanadi. Tutashish halqalarining yeyilishi ularga chang, loy va moy tushishi oqibatida sodir bo'ladi. Bu esa o'z navbatida cho'tkalarning tez va notekis yeyilishiga sabab bo'ladi.

Yeyilgan tutashish halqalari tokarlik dastgohida qora dog'lar ketgunga qadar yo'niladi. Bunda halqa diametrining kichiklashuvi 1 mm dan ortiq bo'lmasligi lozim. Yo'nilgan yuzalarining tepishi rotorning barcha turlari uchun 0,1 mm dan katta bo'lmasligi lozim. Tutashish halqasining yeyilishi 1 mm dan ortiq bo'lsa, ular yangisiga almashtiriladi. Buning uchun uyg'otish chulg'ami uehlari kavshardan ajratiladi, halqa valdan press yordamida chiqarib olinadi. G 250 generatorida halqalar ketma-ket, G 285 generatorida ikkala halqa bir yo'la chiqarib olinadi, chunki ular umumiy plastmassa asosiga o'tqazilgan. Yangi halqalar valga moslama yordamida presslanadi, so'ng yo'niladi, shishali qumqog'oz bilan tozalanadi. Uyg'otish chulg'aming chiqib turgan uehlari halqaga POS-40 kavshari bilan kavsharlab mahkamlanadi.

Barcha xildagi generatorlarning uyg'otish chulg'amlari vtulkaning o'ziga o'raladi. Tutashuv plastinkasi va val o'rtasiga yog'och pona o'matiladi. Tutashuv plastinkasining bir uchi tutashuv halqasiga kavsharlanadi, ikkinchisi esa uyg'otish chulg'ami uehlarining biriga kavsharlanadi. Uyg'otish chulg'aming bo'sh qolgan uchi ikkinchi tutashuv halqasiga kavsharlanadi. Avval uyg'otish g'altagi 110-120°C da 2-3 soat davomida quritiladi. So'ng g'altak izolyatsiyasining metall qismiga nisbatan qarshiligi o'lehanadi. Rotorga yig'ilgan holda 25-60 minut davomida ML-92 loki shimdirliladi, so'ng 8-16 soat davomida 120-130°C da quritish shkafida quritiladi.

Rotor havo haroratigacha sovitiladi va uning izolyatsiyasi qarshiligi 500 V kuchlanishli megommestr bilan o'lchanadi. Unda qarshilik 50 Ohm dan kichik bo'lmasligi lozim.

Uzelga chang va qum tushishi oqibatida cho'tka jadal yeylimadi. Yeyilgan cho'tkalar yangisiga almashtiriladi. Ko'pchilik o'zgaruvchan tok generatorlarida cho'tka tutgich yopiq holda ishlanadi. Bu holda prujinaning cho'tkaga bo'lgan bosimi 7.5-rasmda keltirilgan sxemadan topiladi.



7.5-rasm. Cho'tka tutgich holatini tutashuv halqlariiga nishbatan aniqlash: H -cho'tka balandligi; h -cho'tkaning chiqib turgan qismi


Tekshiriladigan cho'tka tutgich cho'tka bilan birlgilikda tarozi pallasiga o'rnatiladi. Ostqo'yma stoykasiga qotirilgan siuvchi richag bo'rtlamani 2,5-3,5mm o'lchamgacha cho'ktiradi. Prujinaning cho'tkaga bo'lgan bosimi tarozining bosimidan cho'tka tutkich og'irligini ayirib (grammlarda) aniqlanadi.

O'zgaruvchan tok generatorlarining qolgan nuqsonlari odatdag'i usullarda bartaraf etiladi.

To'g'rilaqieh qurilmasini ta'mirlash. Selenli to'g'rilaqichlarning elementlari teskar'i tokni o'lchab tekshiriladi (7.6-rasm).

To'g'rilaqichni tekshirishdan avval ajratgichlar VK_1 va VK_2 tutashtiriladi, reostat to'liq kiritiladi, polotno shehuplari

tekshiriladigan element masofadan boshqarish shaybasiga zinch qilib siqladi. Bunda shehup jezdan yasalgan tutashuv shaybasi tomonidan o'zgarmas tok manbaining musbat qutbiga ulangan bo'lishi lozim.




7.6-rasm. Selenli to'g'rilaqich elementlarning sozligini aniqlash moslamasining sxemasi

Reostat yordamida shehuplardagi kuchlanish 14 V gacha tekis oshiriladi. Agar teskari tok 2 A dan kattaroq bo'lsa, selen to'g'rilaqichda qisqa tutashuv mayjudligini ko'rsatadi, agar teskari tok 200 mA dan katta bo'limasa, element soz hisoblanadi. 500 mA gacha bo'lgan teskari tokni aniqlash uchun ajratgich VK₂ ni uzish lozim. Agar kuchlanish 12 V, teskari tok 200 mA dan kattaroq bo'lsa, bunday element kichiklashgan teskari qarshilikka ega bo'ladi. Selen elementlarning jez shaybasining alyuminiy plastina bilan tutashgan joylarida amorf holatdag'i selen qatlami hosil bo'lishi mumkin. Bu holda kuchlanish 16-18 V bo'lganda ham, teskari tok 4-5 mA dan oshmaydi. Barcha nuqsonli plastinalar, texnik talablarga javob bermasa, yangisiga almashtiriladi.

Diodlarning har biri qismlarga ajralgan stator chulg'ami uzilgan generatorda 12-24 V kuchlanishli o'zgarmas tok manbai yordamida alohida tekshiriladi. Elektr zanjirida diodga ketma-ket qilib, zarur kuchlanishga ega bo'lgan traktor cho'g'lanish lampasi ham ulanadi (7.7-rasm).

Lampa bir yo'nalishda tok o'tganda yonishi lozim, chunki soz diod tokni korpusida ko'rsatilgan maxsus belgi yo'nalishidagina o'tkazadi.

Agar ikki yo'nalishda ham lampa shchupi yonsa, dioddan qisqa tutashuv mavjudligini ko'rsatadi, agar biror yo'nalishda ham yonmasa, unda uzilish borligini ko'rsatadi.



7.7-rasm. Diodlarning sozligini tekshirish sxemasi

Diodlarni nominal kuchlanishdan katta bo'lgan kuchlanishda o'zgaruvchan tok tarmog'ida va diod bilan ketma-ket ulanmagan lampada tekshirib bo'lmaydi. Nosoz anod almashtirilishi lozim. Yangi diod radiatorga gayka bilan qotiriladi va undan so'ng o'tkazuvchini tokning uzatish joyiga elektr kavsharlagich bilan kavsharlab qo'yiladi. Kavshar sifatida POS-30 dan foydalaniadi, flyus vazifasini esa tanakorning spirli eritmasi bajaradi. Kavsharlash paytida diodning harorati 150-5 °C dan oshmasligi lozim, shuning uchun ham kavsharlash tez bajarilishi zarur. Yangi o'rnatilgan diodlar avvalgi diodlar bilan bir xil markada va qutblilikda bo'lishi lozim.

O'zgaruvchan tok generatorlariga VKZ va VA seriyadagi ventillar o'rnatiladi. Bu seriyadagi ventillar yuboruvchilar sifatida generatorning qopqog'i yoki maxsus sovitgichlarga presslab o'rnatiladi. Presslash uchun moslamaning diametri izolyator

gardishidan 0,2-0,3 mm katta bo'lishi lozim. Presslash kuchi tekis qo'yilishi va 5000 N dan katta bo'lmasligi kerak.


O'zgaruvchani tok generatorini sinash. G 250 generatorini sinash generator klemmalaridagi kuchlanish 12,5 V, tok kuchi 28A, rotoring aylanishlar chastotasi 3000 - 3300 ayl/min bo'lganda 10 minut davomida xo'rdaleshdan boshlanadi. Bunda rotoring statorga tegishi, podshipniklarda cho'tka tutkichlardan shovqin chiqishiga ruxsat etilmaydi. Undan so'ng generatorni 10000 ayl/min aylanishlar chastotasida 1 minut davomida, aylanishlar chastotasini tekis oshirib, uyg'otilmagan generatorda tekshiriladi. Bunday sinashda generator statori stendga puxta qotirilishi lozini va aylanishlar chastotasi keskin oshib ketgan holat (raznos) da xavfsizlik choralarini ko'rilishi lozim. Undan so'ng rotoring boshlang'ich (minimal) aylanishlar chastotasi o'lehanadi. Generator sovuq holatda ($20,7 \pm 5^{\circ}\text{C}$) yuklamasiz 12,5 V kuchlanish hosil qilishi zarur. Bunda uyg'otish chulg'ami kuchlanishi 12,5 V bo'lgan akkumulyatorlar batareyasidan oziqlantirib tekshiriladi (7.8-rasm).

G 250A-1 va G 250G-1 generatorlari rotoring boshlang'ich aylanishlar chastotasi 950 ayl/min dan, G 250I-1 generatoriniki esa 900 ayl/min dan oshmasligi lozim.

Generator rotoring aylanishlar chastotasini klemmalardagi kuchlanish 12,5 V ga yetgunga qadar sekin-asta oshirib boriladi va uning qiymati o'lehab turiladi. Undan so'ng sovuq holatda 28A nominal tok beradigan va 12,5 V kuchlanish hosil qiladigan rotoring boshlang'ich aylanishlar chastotasi o'lehanadi. Bunda uyg'otish chulg'ami kuchlanishi 12,5 V bo'lgan akkumulyatorlar batareyasidan oziqlantiriladi. Sinash sxemasi 7.9-rasmida keltirilgan. Bunda reostat bilan yuklama toki ampermetr bo'yicha 28A da ushlab turib, rotoring aylanishlar chastotasi sekin-asta oshirib boriladi. Uning qiymati G 250A-1 va G 250G-1 generatorlarida 2200 ayl/min dan, G 250I-1 generatorida esa 2100 ayl/min dan oshmasligi lozim.


G 285 generatorini sinashdan avval tok yuruvechi qismlarning izolyatsiyasi korpusga nisbatan 380 V kuchlanishda 5s davomida tekshiriladi. Yuqorida ifodalangandek, generatoring uyg'onishini boshlang'ich aylanishlar chastotasida yuklamasiz atrof-muhit haroratida tekshiriladi. Rotoring aylanishlar chastotasi to'g'rilagichdan chiqayotgan kuchlanish 12,5 V kam bo'limganda,

rotorning aylanishlar chastotasi 1400 ayl/min dan ortib ketmasligi lozim. So'ng nominal yuklamali generatorning boshlang'ich (minimal) uyg'otish chastotasi atrof-muhit haroratida tekshiriladi.



7.8-rasm. Generator rotorini yuklamasiz boshlang'ich aylanishlar chastotasida tekshirish sxemasi

To'g'rilagichdan chiqayotgan kuchlanish 12,5 V dan kichik bo'lmasa, rotorning aylanishlar chastotasi 1400 ayl/min dan katta bo'lmasligi lozim. So'ng generatorni uyg'otishdagi boshlang'ich (minimal) aylanishlar chastotasi nominal yuklamada atrof-muhit ya generator harorati ($20,7 \pm 5^{\circ}\text{C}$) da tekshiriladi.



7.9-rasm. Generatorni xo'rda qilish sxemasi

To'g'rilagichdan chiqayotgan kuchlanish 12,5 V dan kam va yuklamadagi tok kuchi 80 A bo'lsa, rotoning aylanishlar chastotasi 3200 ayl/min dan katta bo'lmasligi lozim. O'zgaruvchan tok generatorining boshqa markalari ham shu tartibda tekshiriladi, ularning ko'rsatkichlari texnik shartlarga solishtiriladi.

Nazorat savollari

1. Elektr jihozlari detallarini yuvish va tozalash qanday olib boriladi?
2. Elektr jihozlarini yuvish mashinasida bajariladigan ishlarning tavsifini ayтиб bering.
3. Uchqunli o't oldirish svechalari va cho'g'lanma svechalarni ta'mirlash jarayonini tushuntirib bering.
4. Ajratgich-taqsimlagichlarni ta'mirlash nimalarni o'z ichiga oladi?
5. O'zgaruvchan tok generatorlarini kapital ta'mirlash qaysi jarayonlarni o'z ichiga oladi?
6. Generator qurilmasida uchraydigan nuqsonlar nimalardan iborat?
7. Stator va rotordagi nosozliklar qanday ta'mirlanadi?
8. To'g'rilagich qurilmasini ta'mirlash qanday olib boriladi?
9. O'zgaruvchan tok generatorini sinash jarayonini tushuntirib bering.

Adabiyotlar

1. Нанцберг И.Д., Соколин Л.З., Каманин В.Н. Ремонт электрооборудования тракторов. -М.: Транспорт, 1981. -318 с.
2. Конылов Ю.М., Нуходицкий Ф.Н., Сапожников Е.Ж. Текущий ремонт колесных тракторов. -М.: Росагропромиздат, 1988. -287 с.
3. Конылов Ю.М., Нуходицкий Ф.Н. Техническое обслуживание и ремонт гусеничных тракторов. -М.: Росагропромиздат, 1990. -160 с.
4. Maxkamov Q.H, Irgashev A. Avtomobilarni ta'mirlash. Kasb-hunar kollejlari uchun darstlik. T.: O'qituvchi, 2005. -278 b.
5. TTZ 60.10, TTZ 60.11, TTZ 80.10, TTZ 80.11, 100K.11 TTZ traktorlari. Texnik taysifi, foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yo'tiqnomasi. Toshkent, 228 b.
6. Техническая эксплуатация электрооборудования тракторов в автотранспортных предприятиях. ГосНИИ автомоб. транс.- М.: Транспорт, 1976. -157 с.
7. Найкин Е.М. Эксплуатация и ремонт электрооборудования тракторов. - М.: Транспорт, 1978. -200 с.
8. Тимофеев Ю.Л., Илин И.М. Неисправности и техническое обслуживание электрооборудования тракторов. -М.: Транспорт, 1977. -126 с.
9. [9. http://www/unilib.neva.ru/rus/stu/fa/pages/4/mdnv/](http://www/unilib.neva.ru/rus/stu/fa/pages/4/mdnv/).

MUNDARLJA

Kirish

3

1- BOB. YONILG'I BILAN TA'MINLASH TIZIMINI TA'MIRLASH

1.1. Yonilg'i nasoslarini ta'mirlash	4
1.2. Forsunkalarni ta'mirlash	12
1.3. Karbyurator va benzin nasoslarini ta'mirlash	16
1.4. Yonilg'i bilan ta'minlash tizimi uzellari va asboblarini ta'mirlash	17
1.5. Aylanishlar chastotasi rostlagichini ta'mirlash	22
1.6. Turbokompressorni ta'mirlash	24
1.7. Yonilg'i bilan ta'minlash tizimi uzel va asboblarini xo'rdalash va sinash	27
Nazorat savollari	28

2- BOB. MOYLASH TIZIMINI TA'MIRLASH

2.1. Moy nasosini ta'mirlash	30
2.2. Moy filtrlarini ta'mirlash	35
2.3. Moy radiatorlarini ta'mirlash	43
Nazorat savollari	44

3- BOB. SOVITISH TIZIMINI TA'MIRLASH

3.1. Sovitish tizimi uzellari va uskunalarini ta'mirlash	45
3.2. Radiatorni ta'mirlash	49
3.3. Suv nasosini ta'mirlash	57
Nazorat savollari	60

4- BOB DVIGATELNI YIG'ISH VA SINASH

4.1. Dvigatelni yig'ish	61
4.2. Dvigatelni sinash	64
4.3. Dvigatelni xo'rda qilish	66
Nazorat savollari	68

5- BOB. ELEKTR JIHOZLARIGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

5.1. Akkumulyator batareyalariga texnik xizmat ko'rsatish	69
5.2. Gildirakli traktorlarning elektr jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish	73
5.2.1. Generatorga texnik xizmat ko'rsatish	73
5.2.2. Rele-regulyatorga texnik xizmat ko'rsatish	74
5.2.3. Startyorga texnik xizmat ko'rsatish	76

5.2.4. Yoritish va yorug'lik signalizatsiyasi asboblariga texnik xizmat ko'rsatish	76
5.3. Kontakt-tranzistorli rele-rostlagichlarni sinash va rostlash	78
5.4. Rele-rostlagichini nazorat stendida tekshirish	80
5.5. Gusentsalik traktorlarning elektr jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish	83
Nazorat savollari	88
6- BOB. ELEKTR JIHOZLARINI JORIV TA'MIRLASH	
6.1. Generatorni ta'mirlash	90
6.2. Rele-regulyatorni ta'mirlash	98
6.3. Startyorlarni ta'mirlash	103
6.4. Tok yuruvchi qismlar va asboblarni ta'mirlash	111
6.5. Nazorat-o'lechov asboblarini ta'mirlash va rostlash	115
6.6. Induksion spidometrlarni tekshirish va rostlash	124
6.7. Yurgizib yuborish dvigatelining magnetosini ta'mirlash	125
6.8. Elektr simlarini ta'mirlash	128
Nazorat savollari	129
7- BOB. ELEKTR JIHOZLARINING AGREGAT VA ASBOBLARINI KAPITAL TA'MIRLASH	
7.1. Elektr jihozlari detallarini yuvish va tozalash	132
7.2. Uchqunli o't oldirish svechalari va cho'g'lanma svechalarni ta'mirlash	138
7.3. Taqsimlagichlarni bo'laklarga ajratish. Ajratgich-taqsimlagichlarni ta'mirlash	140
7.4. O'zgaruvchan tok generatorlarini ta'mirlash	144
Nazorat savollari	156
Adabiyotlar	157

**Shorahmat Asqarovich Shoobidov
Amirqul Irgashev**

**Traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalari texnik servisi va
ularni ta'mirlash**

(Ichki yonuv dvigatellari, traktorlar va qishloq xo'jalik texnikasi
elektr jihozlari va elektronikasiga servis xizmatini
ko'rsatish va ularni ta'mirlash)

O'quv qo'llanma

2-qism

Muharrir

M.M. Botirbekova

Musabhibh

Sh.S. Dexkanova

Bosishga ruhsat etildi 1.04.2010 y. Bichimi 60x84 1/16.
Shartli bosma tabog'i 9,3. Nusxasi 50 dona. Buyurtma № 161.

TDTU bosmaxonasida chop etildi. Toshkent sh,
Talabalar ko'chasi 54. tel: 246-63-84.